
SHARQ MASH'ALI



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

2
2026

Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yildan chiqa boshlagan
Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi
ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)

Bosh muharrir:
G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)
Tahrir hay'ati:
D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinbosari)
X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)
A. MANNONOV (prof., f.f.d.)
Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)
R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)
SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)
Q. OMONOV (prof., f.f.d.)
U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)
D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)
X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)
B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)
A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)
M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)
X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)
D.XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD
SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)
N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)
A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)
R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)
I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)
R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)
E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)
A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya univ. prof.)
G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.)
ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba univ. prof.)
LI DJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar univ. prof.)
V. MESAMED (Isroilning Quddus univ. prof.)
A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.)
A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)
G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.)
A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)
S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)
H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)
Nashrga tayyorlovchilar:
J. ISMOILOV, A. ZIYODOV
H. SULAYMONOVA

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal original-maket asosida bosildi.
Sharq mash'ali, 2026-yil 2-son.
e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 2, 2026-yil
Arabshunoslikka bag'ishlangan maxsus son

Adabiyotshunoslik	***R. Xodjaeva*** G'arbiy Yevropa va Rossiya adabiyoti hamda san'atida arab-musulmon adabiyoti timsollari va motivlari ..... 2 ***Sh. Shomusarov*** Jaholiyat davri arablar hayotida shoir maqomi ..... 9 ***D. Muxiddinova*** Zamonaviy arab adibalari ijodida kichik nasriy janrlar 14
Tilshunoslik va tarjimashunoslik	***Z. Islomov*** Mahmud Zamaxshariy – "Dunyo xalqlari ustozi" ..... 19 ***B. Begmatova*** Cheklov, hol va mutlaq masdarning sintaksisdagi farqli va umumiy jihatlari ..... 24 ***I. Usmanov*** Hakim Termiziy va Ishoriy grammatika konsepsiyasi ..... 31 ***Sh. Alamov*** O'zbek, tojik va arab tillaridagi turizm terminlarining tematik tasnifi va qiyosiy tahlili 34
Tarix	***З. Мунаввaров*** От средневековых медресе к современному университету ..... 44 ***Sh. Ikromov*** Tuluniylar amirligida ijtimoiy madaniy hayot 50
Tashqi siyosat	***Sh. Yovkochev*** Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining arabshunoslik fanining rivojlanish tarixi va arab davlatlari bilan siyosiy-akademik aloqalari ..... 58 ***С. Турсунова*** Национальные особенности и коммуникация арабского этноса ..... 62 ***G. Kadirova*** Misrda "Musulmon birodarlar" harakatining tarixiy rivojlanishi 66

G‘ARBIY YEVROPA VA ROSSIYA ADABIYOTI XAMDA SAN’ATIDA ARAB-MUSULMON ADABIYOTI TIMSOLLARI VA MOTIVLARI

RA’NO XODJAEVA

Professor, f.f.d., TDSHU

Annotatsiya: *ushbu maqola xalqlar madaniy taraqqiyotining muhim omili bulgan adabiyotlarning o‘zaro aloqalar va o‘zaro ta’sirlanish masalalariga bag‘ishlangan. Jumladan unda yevropaliklarning arab tilida yaratilgan boy adabiy meros bilan tarjimalar orqali tanishishi, unig tarixiy va badiiy tajribasiga yondoshishi ,timsollari va siymolaridan bahramand bo‘lishi kuzatiladi.*

Kalit so‘zlar: *arab adabiyoti, jahon adabiyoti , yevropa adabiyoti, adabiy jarayon, adabiyotlar aro ta’sir, islomgacha she’r, qasida, islom adabiyoti.*

Abstract: *the present article is dedicated to the problem of interconnection and mutual influence of literatures, which are reviewed here as an important factor in the cultural development of peoples. In particular, it traces the acquaintance of Europeans with the rich literature in Arabic through translations and familiarization with its historical and artistic experience, images and motifs.*

Key words: *Arab literature, the concept of world literature, European literature, literary process, interaction, pre-Islamic poetry, qasidah, Islamic literature.*

Аннотация: *настоящая статья посвящена проблеме взаимосвязи и взаимовлияния литератур, которые рассматриваются как важный фактор культурного развития народов. В частности, в ней прослеживается знакомство европейцев через переводы с богатой литературой на арабском языке, приобщение к ее историческому и художественному опыту, образам и мотивам.*

Ключевые слова: *арабская литература, концепция мировой литературы, европейская литература, литературный процесс, взаимовлияние литератур, доисламская поэзия, касыда, исламская литература.*

Kirish. Arab adabiyoti chuqur qadimiy ildizlarga ega bo‘lib, islomdan oldin rivojlangan milodiy 5-6-asrlardayoq “johiliya she’riyati ” deb ataluvchi she’riyat gullagan yashnagan davrini boshdan kechirgan. Uzoq asrlar davomida ushbu she’riyat yuksak namuna va metrika mezoni bo‘lib, arablar uchun estetik qadriyatlar va badiiy obrazlarni ishlab chiqqan. Islomgacha bo‘lgan 125 ga yaqin shoirning ismlari saqlanib qolgan , ular orasida Imruul-Qays, Antara, Tarafa, Zuhayr kabi atoqli siymolar bor. Qadimiy arab she’riyatining timsollari va motivlari arab tilini tushunadigan butun musulmon olami adiblarini o‘ziga jalb qilgan va ilhomlantirgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. G‘arb olami ushbu arab adabiyoti namunalari bilan ancha keyinroq, asosan 18-19-asrlarda Yevropada sharqshunoslikning (oriyentalistika) jadal rivojlanishi munosabati bilan kuchaygan tarjimalar orqali tanishdi. Buyuk nemis shoiri va mutafakkiri Iogann Volfgang Gyote arab adabiyoti, fors va turkiy tillardagi she’riyat bilan yaxshi

tanish edi. Sharqshunoslarning tadqiqotlari va tarjimalari uning uchun Antara, Imruul-Qays va o‘rta asrlar shoirlar ijodidagi arab she’riy san’atining hayratlanarli olamini ochib berdi.

Natijalar va muhokama. E’tiborlisi shundaki, bu olamda uni ayniqsa “Taabbata Sharran” (so‘zma-so‘z: “qo‘ltig‘ida yomonlik ko‘tarib yuruvchi”, (ya’ni qilich nazarda tutilgan) laqabi bilan mashhur bo‘lgan Sobit ibn Jobir Sufyonning she’rlari maftun etgan. Bu mag‘rur shoir o‘z bo‘ysunmasligi va qaysarligi uchun qabilasidan haydalgan edi. U yolg‘iz holda sahroda kezib yurgan, botirlik va jasorat mo‘jizalarini ko‘rsatgan, ammo vaziyatga qarab talonchilik maqsadida hujum ham qilishdan tortinmagan. Gyote uning mustaqil va erkin ruhini yuqori baholagan hamda uning eng mashhur qasidasini tarjima qilgan. Unda arab shoiri odatiy jamoaviy qabila hayotidan chiqib ketib, yolg‘izligda va darbadarlikda kun kechirishini tasvirlab, o‘z taqdiridan nolaydi.

“Sharq havosi bilan nafas olish uchun” - deb yozgan edi Gyote 1815-yilda o‘z “Annallari”da - “men arab tiliga murojaat qildim va uni o‘rgana boshladim. ‘Muallaqotlarni, ya’ni qadimiy arab she’riyatining eng yaxshi namunalarini tadqiq qildim ” (9, 446-447). Gyote uchun Majnun laqabli arab shoiri al-Amiriyning go‘zal Layliga bo‘lgan muhabbat tarixi “tuyg‘u va tasavvur tomonidan yangidan o‘zlashtirilgan cheksiz muhabbat namunasi”ga aylandi. Ammo Gyote musulmon Sharqining boshqa mashhur sevishgan juftliklari tarixini ham yaxshi bilar edi - bular Yusuf va Zulayxo, Farhod va Shirin, Sulaymon va Bilqis, Rustam va Rudoba kabi juftliklar. Hatto hayratlanarlisi shundaki, Gyote badaviy shoir Jamilning Busaynaga (Gyoteda Botina) bo‘lgan umidsiz sevgisi tarixini ham yaxshi bilgan. U ular haqida o‘zining mashhur “G‘arbu Sharq devoni”ning “Ishk” deb nomlangan bobida shunday eslatib o‘tadi:

Keksayganda ham yona
Sevgan Jamil Botina (3, 69)

Bu rivoyat arab dunyosidan tashqarida unchalik keng tarqalmagan bo‘lsa-da, Gyotening e’tiborini tortgan.

Ammo qadimiy arab she’riyatidan yevropaliklarni ayniqsa Antara timsoli o‘ziga ko‘proq jalb etgan. Antara (525-608) – islomgacha bo‘lgan davrning atoqli arab shoiri, “muallaqot” mualliflaridan biri. U qabila shayxining o‘g‘li bo‘lgan, ammo qora tanli cho‘ridan tug‘ilgan, bu esa uning qabilada pastroq tabaqaviy mavqega tushurib qo‘ygan. Garchi shoir jasorat va sadoqati bilan ajralib turib, qabila sharafini himoya qilgan bo‘lsa-da, u sevgan va deyarli barcha she’rlarini bag‘ishlagan Abla ismli qizning qo‘lini so‘raganda, rad javobini olgan. Antara shaxsi atrofida ko‘plab afsona va rivoyatlar shakllangan. Unga filolog olimlar tomonidan to‘plangan va yozib olingan “Sirat Antara” (Antara hayot yo‘li) xalq romani bag‘ishlangan. Roman Yevropa tillariga tarjima qilingan va London, Parij, Vena, Leyden, Leypsig va boshqa sharqshunoslik markazlarida 32 jildda nashr etilgan. Mashhur rus bastakori N. Rimskiy-Korsakov Antara haqidagi afsona motivlari asosida o‘zining “Antar” simfoniyasini yozgan. Fransiyada rassom Etyen Dine rahbarligida rassom-oriyentalistlar maktabi shakllandi, ularning ijodida arab motivlari kuchli edi; ular orasida rassom Diana Richmond ham bo‘lib, u “Antar va Abla” mavzusida ko‘plab rasmlar ekspozitsiyasini yaratgan.

Bashariyat tarixida buyuk monoteistik din sifatida tanilgan islom dini va uning muqaddas kitobi “Qur’oni Karim” umuman jahon madaniyatiga, jumladan, adabiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bunday ta’sirni yorqin aks ettiruvchi misollarni A.S. Pushkin, M.Yu. Lermontov, L.N. Tolstoy, I.A. Bunin va rus adabiyotining boshqa buyuk namoyandalari asarlarida kuzatamiz. Muqaddas Qur’on buyuk rus shoiri A.S. Pushkin ijodiga qanchalik ta’sir qilgani ma’lum - u “Qur’onga taqlid” falsafiy she’rlar turkumini yozib, unda payg‘ambarlik mas’uliyati, haqiqiy e’tiqod, inson aqliy adashishlari va poklanishi kabi mavzularni ko‘targan. Shoir Qur’onda haqiqat,

poklik va ezgulik manbaini ko‘radi. Yana bir rus adabiyoti klassigi, adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori I.A. Bunin Qur’on mavzulari, syujetlari va timsollari ta’sirida 30 dan ortiq she’rlar yozgan (“Tosh”, “Qush soyasi”, “Sir”, “Qonun”, “Ka’baning qora toshi” va boshqalar).(2) Qur’onning alohida suralari va oyatlariga uslubiy taqlid qilish, uning motivlariga she’riy aks-sadolar ko‘plab g‘arbiy yevropalik adiblar asarlarida ham uchraydi, masalan, Gyotening “G‘arbu Sharq devoni”da (3) yoki Charlz Dikkens asarlaridagi ko‘plab islomiy ishoralarda.

Gyote o‘z “G‘arbu Sharq devoni”da birinchi she’riga bejiz “ Hijrat” deb nom qo‘ymagan va asl arab so‘zini ishlatgan. Islom tarixi bilan alohida qiziqqan Gyote Muhammad Payg‘ambar Makkadan Yasribga (keyin al- Madina al-Munavvara) hijrat qilishi sababini yaxshi bilardi. Gyote esa devonida musulmon Sharqiga hijrat qilishga da’vat qiladi va musulmon–arab Sharining romantik obrazini yaratadi. Bu da’vatga ma’lum sabablar bor edi. “G‘arbu Sharq devoni” yozilgan payt shoir G‘arb qadriyatlaridan hafsalasi pir bo‘lgan bir davrga to‘g‘ri keldi. Ittifoqchi Yevropa mamlakatlari Fransiya imperatori Napoleon Bonapartni mag‘lubiyatga uchratgandan so‘ng g‘arb jamiyatida qaltis vaziyat ruy berdi, istibdod kuchaydi, aholida ruhiy inqiroz kuzatildi, ijtimoiy ahvol og‘irlashdi, Ashaddiy Bonapart muxlisi bo‘lgan Gyote bu o‘zgarishlarni og‘ir qabul qildi va ma’naviy – axloqiy izlanishlar natijasida Sharqqa yuz o‘girdi. Mana shu kayfiyatini shoir “Hijrat”she’rida chiroyli ifodalagan:

Taxtlar qullab, ne taajjub,
Xarob shimol, mag‘rib, janub.
Sharqqa hijrat erur vojib,
Unda ishqu mayu,mutrib.
Hajda Hizr suvi bordir.
Boqiy umr senga yordir.
Ajdodlarga bor ehtirom,
Mashriqda g‘ayr urfi xarom.
Qisqa suxan-fikri dono-
Gavhardan ham qimmat mudom,
Muqaddasdir zero Kalom. (3, 1 6)

Shoir o‘z esdaliklarida sharq ma’naviyati va adabiyotiga murojaat qilganidan keyin kechirgan ruhiy holatini baland kayfiyatda tasvirlaydi:

“Sharqqa bo‘lgan qiziqish butun vujudimni qamrab oldi, Bu katta muvaffaqiyat!Chunki agar bu intilishim chegaralanib,boshqa jihatlarga ham qaratilsa, men hech qachon bu jannatga yo‘l topmas edim.” (9, 449)

Tadqiqotchilar Gyote devoniga yuksak baho berdilar va uni sharq va g‘arb madaniyatlarining sintezi- uyg‘unlashuvini ko‘rdilar.Haqiqatda , devonda sharq adabiyotining obrazlari, timsollari va siymollari, rivoyatlari va hikoyatlari, tasavvurlari va falsafasi o‘z in’ikosini topkan. Qur’oni Karimning ma’nolariga kelsak, Gyote sharq shoirlari kabi ulardan to botiniy , to zohiriy ravishda iste’foda etib, iqtiboslar keltiradi.Masalan “G‘arbu Sharq devoniing “Tilsimlar” nomlm she’rida Gyote “Bakara surasisning 115 oyati ma’nosidan foydalangan:

“Mashriq ham, Mag‘rib ham Allohnikidir. Bas, qaysi tarafga yuzingizni qaratsnagiz, o‘sha tomonda Allohning yuzi mavjuddir”. Gyote she’rining so‘zma-so‘z tarjimasi: ”Sharqga ham, G‘arbga ham Alloh ega. Shimol ham, janub ham Uning qo‘lida”.

Qur'oniy ma'nolar ayniqsa devonning "Xuldnoma" qismida ko'p talqin qilinadi. Umuman olganda "Devon"da arab tilidan tanlangan muhim so'zlar va iboralar Gyote tomonidan nemis tiliga tarjima qilinmasdan o'z aslini saqlab qolgan: ishq, ranj, soqiy, mug'anniy, tafsir, hikmat, xuld va h.k.

"G'arbu Sharq devon"dagi rivoyatlarga kelsak, bu borada ham shoir mashhur arab rivoyatlarni eslab o'tadi va o'z shaxsiy qarashlaridan kelib chiqib, ularning talqin qiladi: bular g'orda uxlab qolgan yetti o'g'lon haqidagi Qur'oniy rivoyat, o'z sahovati va karomati bilan hammaga tanilgan Hotam Toy haqidagi rivoyat, mahzun sevgisi bilan mashhur bo'lgan Majnun rivoyati va boshqalar.

Mumtoz arab she'riyati namoyandalaridan Gyote e'tiborini X asrda yashagan mashhur shoir Abu Toyyib al-Mutanabbiy betakror ijodi hassosligi, o'tkir tanqidiy ohangi, hozirjavobligi, badiiyati bilan o'ziga tortdi. Yana Gyotega ta'sir ko'rsatgan omil – bu "Ming bir kecha" jozibali ertaklaridir. Gyote ulardan o'ziga xos kompozitsiya uslubi – qoliplash uslubini o'rgandi va "hikoya ichida hikoya" usulini o'z asarlarida ishlatdi.

Ma'lumki,Mavarounnahr va Xorazmning buyuk mutafakkirlari arab tilidagi ilmiy va badiiy adabiyot rivojiga katta hissa qo'shganlar. Markaziy Osiyoda rivojlangan boy arabzabon adabiyot IX - XII asrlarda nafaqat ushbu mintaqa xalqlarining ma'naviy-ijtimoiy tafakkurini yanada rivojlanishiga, balki butun musulmon Renessansining birinchi bosqichi nomini olgan qudratli madaniy yuksalishga zamin yaratdi. O'lkaning porloq olimlari Abu Bakr al-Xorazmiy, Ibn Sino, Mahmud az-Zamaxshariy va ko'plab boshqa allomalar o'z ijodlarida ilmiy izlanishlarni adabiy faoliyat bilan uyg'unlashtirganlar. Aynan shu davrda Mavaraunnaxr va Xorazmda jahon adabiyoti xazinasidan munosib joy olgan badiiy meros durdonalari – mashhur adabiy yodgorliklar yaratilgan.

Buyuk mutafakkir Ibn Sino (980-1037) asosan tibbiy va falsafiy asarlar muallifi sifatida tanilgan. Ammo u adabiyot sohasida ham samarali mehnat qilib, turli she'riy va nasriy janrlarda badiiy asarlar yaratgan, shuningdek, adabiyotshunoslik tadqiqotlarini yozgan. U qasida, ruboiy, g'azal, qit'a kabi she'riy janrlarda ijod qilgan. Uning tibbiy she'riy risolalari urjuza deb atalgan bo'lib, rajaz vaznida yozilgan va ular butun dunyoda keng tarqalgan, ularga ko'plab sharhlar yozilgan va ular tibbiyot muassasalarida maxsus o'rganilgan. Ibn Sinoning lirik she'rlariga kelsak, ularda vatanparvarlik motivlari ishqiy lirika bilan uyg'unlashib ketadi, mahbub bilan uchrashuv shodligidan kelgan quvonchli ohanglar ayriliqdan kelgan g'amgin o'y-xayollar bilan almashadi.

Nasriy asarlaridan adibning "Hayy ibn Yaqzon" qissasi eng katta shuhrat qozongan qissadir. Bu asar butun dunyo adabiyotiga ta'sir ko'rsatdi desak, xato qilmaymiz. Uning qahramoni mustaqil bilim olish va tinimsiz mehnat yo'li bilan yuksak ma'naviy kamolotga va hayotiy cho'qqilarga erishadi. Unda faqat o'z-o'zini anglash va fan hamda bilim yordamida takomillashish orqaligina jaholat va nodonlikka qarshi turish mumkin degan qat'iy ishonch shakllanadi. Bu qissa falsafiy xarakterga ega bo'lib, uning qahramonlari o'zida ma'lum timsollarni ifodalaydi, ularni o'zlashtirmasdan turib qissaning ma'nosini tushunish qiyin. Qissa musulmon dunyosidagi ko'plab adiblarga, masalan, XII asrda uzoq arab Andalusiyasida (Ispaniya janubida) yashagan arab faylasufi va mashhur tabibi Ibn Tufaylga ta'sir ko'rsatgan. Qissa uni ayni shu "Hayy ibn Yaqzon" nomi ostida roman yozishga ilhomlantirdi. Roman lotin tiliga tarjima qilinib Yevropada ham tarqaldi va ingliz, fransuz, nemis va boshqa g'arb xalqlari tillariga tarjima qilinib, katta shuhrat qozondi. Roman syujeti biroz o'zgartirilgan bo'lib, uning qahramoni kimsasiz orolda yolg'iz qolib, o'z-o'zini takomillashtirishga va bilimga erishadi, tabiat qonunlarini anglashda, koinotni o'rganishda hayotiy tajriba orttiradi. Keyin Hayy orolini tark etib odamlar jamiyatiga qo'shilib,

unda adolatsizlik ko‘radi va tuzatishga intiladi, hayotning ijtimoiy qonunlari va olam asoslaridan o‘zi anglagan narsalarni o‘rgatishga intiladi, ammo odamlar uning aqliy tafakkuri cho‘qqilariga ko‘tarila olmaydilar. Umidsizlangan qahramon o‘zining kimsasiz oroliga qaytadi va o‘z ma’naviy dunyosini hamda hayotiy tajribasini rivojlantirishda davom etadi. Ibn Tufayl tomonidan qiziqarli tarzda tasvirlangan bu bilimga intilish jarayoni inson aqli va mehnatiga o‘ziga xos madhiyaga aylandi. Roman fabulasi bilan inson haqiqatni izlashda qanday takomillashuv bosqichlardan o‘tishini ko‘rsatib, falsafiy masalga yaqinlashadi. Ibn Tufayl o‘zi tan olishicha uning bu asari mutlaqo Ibn Sinoning axloqiy-estetik qarashlari bilan sug‘orilgan. Roman nafaqat arab- musulmon falsafasiga , balki G‘arb falsafasi hamda adabiyotiga ta’sir ko‘rsatgan. Uning ta’siri ostida Angliyada hatto “tarbiyaviy roman” janri paydo bo‘ldi, buning eng yorqin misoli ingliz yozuvchisi Daniel Defoning insonning yaratuvchanlik mehnatini va bilimini ulug‘lovchi mashhur “Robinzon Kruzo” romanidir.

Ibn Sinonin yana boshqa “Solomon va Ibsal” nomli qissasi his-tuyg‘ulardagi samimiylik, sadoqat, vafodorlik, iroda kabi axloqiy-etik muammolarni ko‘taradi va xiyonat, adolatsizlik, zo‘ravonlik va boshqa illatlarni qoralaydi. Bu qissa ham, xuddi uning uchinchi qisssi – “Yusuf” kabi majoziy obrazlarga boy. Ibn Sino adabiyotda birinchilardan bo‘lib Yusuf haqidagi Qur’on qissasiga murojaat qildi, undan ilhomlanib o‘z tuyg‘ularini jilovlay oladigan, aqlni va bilimni hamma narsadan ustun qo‘yadigan inson timsolini yaratdi . Qissadagi har bir qahramon u yoki bu xarakter xususiyatini ifodalaydi, bu esa mashhur Qur’on qissasining adabiy talqini haqida gapirishga imkon beradi. Ibn Sinoning to‘rtinchi asari “At-Tayr” birinchi uchtasidan biroz farq qiladi. U qush nomidan hikoya qilinadi, qush bu asarda ruh ramzi, ruh substansiyasi, tana esa - materiya substansiyasidir. Ikki substansiyaning bir tanada uyg‘unlikda birlashishi insonni takomillashuviga, haqiqatni anglashga olib keladi. Ushbu falsafiy qissa ham nafaqat Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotiga ham butun musulmon Sharqi adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi, balki butun dunyoda tanildi. Qissa turli tillarga tarjima qilingan, uning adabiy talqinlari ko‘p. Bu talqinlar orasida ikki buyuk mutafakkirning asarlari eng mashhurdir – bu Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr”i va Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarlaridir.

Shuni ta’kidlash kerakki, musulmon dunyosining bir chekkasida yaratilgan mashhur olim va adiblar qo‘lyozmalarining nusxalari vaqt o‘tishi bilan ko‘chirilgan holda shu dunyoning boshqa chekkasidagi kitobxonlarning ham mulkiga aylangan. G‘arb dunyosiga kelsak, Yevropani musulmon madaniyati bilan tanishtirishda eng katta rolni Ispaniya janubida joylashgan Al-Andalus arab musulmon davlati o‘ynadi. Bu davlat arablar VIII-asr boshlarida Ispaniyaning katta bir qismini bosib olgandan keyin barpo bo‘lgan va u yerda arab va ispan madaniyatlari uyg‘unlashishi natijasida yorqin xususiyatlarga boy arab-ispan tamadduni tashkil topgan. X asr oxiriga kelib yaxlit Kordoba amirligi mayda amirliklarga bo‘linib ketdi, ulardan eng uzoq vaqt – XV asr oxirigacha Granada xalifaligi mavjud bo‘ldi. Ispaniya o‘z janubiy hududlarini ozod qilish uchun uzoq vaqt kurashdi va bunga Rekonkista - ozodlik kurashi natijasida erishdi. Arablarning Ispaniyada uzoq vaqt qolishi, arab-ispan madaniyatlarining ajoyib sintezi ta’sirini ispanlar bugungi kunda ham his qiladilar.

Garchi boshlang‘ich bosqichda arab Andalusiyasi adiblari butunlay sharqiy arab adabiyoti an’analariga amal qilgan bo‘lsalar-da, Kordoba amirligi parchalanishi, ko‘plab tarqoq arab amirliklarini yuzaga kelishi natijasida Kordoba, Sevilya, Valensiya, Granada, Toledo kabi madaniy markazlarning shakllanishi bilan Andalusiya san’ati va adabiyotida yangi tamoyillar paydo bo‘ldi.(5) Azaliy an’anaviy janrlar bilan bir qatorda shoirlar ispan mavzulariga murojaat qildilar. Agar boshida arab she’riyatida yo‘qotilgan arab vatan mavzusi ustunlik qilgan bo‘lsa, endi

u Andalusiyaga bo‘lgan muhabbat mavzusi bilan almashdi. An’anaviy janrlar – madh (maqtov), riso (marsiya) mohiyati saqlanib qoldi, ammo vasfda katta o‘zgarishlar yuz berdi. Shoirlar sharqiy arab shoirlariga taqlid qilib sahroni tasvirlashni to‘xtatdilar, buning o‘rniga ular Ispaniya tabiatini, uning bog‘ va ko‘mko‘k o‘tloqlarini, maydon va saroylarini hamda arab she’riyati uchun yangi bo‘lgan – kemalar va dengizlarni tasvirlay boshladilar. Mashhur andalusiyalik shoir Ibn Zaydun she’riyatida biz bir tomondan an’anaviy she’riy motivlarni ko‘ramiz, ammo boshqa tomondan – ko‘plab ispan unsurlari – Ispaniya tabiati, ilm va san’ati gullab-yashnagan Andalusiyaning buyuk shaharlari tavsifi, jumladan, uning sevimli shahri Kordoba tasvirini uchratamiz. Lirika ham o‘zgardi, unda ikki yo‘nalish platonik va epikuriy yo‘nalishlar ko‘zga tashlandi. Sharob, ziyofatlar, quvnoq davralarni kuylash – Andalusiya shoirlarining sevimli mavzusiga aylandi. Ammo XI asr oxiridan boshlab, ispanlar arablar tomonidan bosib olingan shaharlarni qaytarish harakati jadallashgandan keyin , she’riyatda g‘amgin ohanglar - riso (marsiya) janri rivojlanib ketdi, unda endi arablar yo‘qotgan shaharlar va g‘oyib bo‘lgan sulolalar uchun yig‘i ohangi paydo bo‘ldi. Faqat Shimoliy Afrikadan berber qabilalarining bostirib kirishi va hokimiyatning ularning qo‘liga o‘tishi ispanlarning o‘z yerlarini ozod qilish uchun oborgan kurashi - rekonsitani bir muncha vaqtga to‘xtatdi. Andalusiya adabiyoti, shubhasiz, o‘rta asr arab madaniyati tarixida salmoqli va o‘ziga xos qismni tashkil etadi. Biroq Andalusiya adabiyotining jahonshumul ahamiyati, xuddi Ispaniyadagi butun arab-musulmon madaniyati kabi, nafaqat o‘zining arab-ispan koloriti bilan, balki u Sharq va G‘arb o‘rtasida bajargan o‘sha o‘ziga xos vositachilik roli bilan ham belgilanadi. Birinchi navbatda, Andalusiya orqali Yevropaga arablar tomonidan o‘zlashtirilgan qadimiy yunon, qadimiy sharq va aynan arab-musulmon bilimi va madaniy an’analari oqib kirdi, bu esa Yevropada Renessans davridan oldingi asrlarda Yevropa fani va tafakkuri rivojlanishiga xizmat qildi. Musulmon sivilizatsiyasi o‘rta asrlar Yevropada katta ta’sirga ega edi va muhimi, bu ta’sir nafaqat arablarga, balki butun musulmon olamining turli xalqlariga tegishlidir. Ispaniya va Fransiya janubi orqali musulmon Ispaniyasidan Yevropaga u tanish bo‘lmagan ilmiy bilimlar, adabiyot va falsafa oqimi yopirilib kirdi. Shu tariqa, o‘rta asrlar va Uyg‘onish - Renessans davri Yevropa ma’naviy va moddiy madaniyatining ko‘plab elementlari arab-musulmon o‘rta asr madaniyatiga borib taqaladi. Bu tendensiyalar 11-13-asrlarda kuzatilgan bo‘lib, bunga qadar Yevropa qorong‘u o‘rta asrlar davrida ma’naviy tushkunlik holatida edi, ayni shu vaqtda arab Ispaniyasi - Andalusiya o‘z madaniyati - fani, san’ati va adabiyotining gullagan davrini boshidan kechirayotgan edi. Badiiy adabiyotga kelsak, arab bandli she’riyatining provansal trubadurlari she’riyatiga, unda mavjud bo‘lmagan qofiyaning paydo bo‘lishiga, mavzular o‘xshashligiga, metrika xususiyatlari o‘tishiga va boshqa ta’sir omillarini kuzatish mumkin.

So‘nggi yillarda Ispaniyada arablar hukmronligi davridagi o‘z o‘tmishiga va arab-ispan madaniyatiga qiziqish ispanliklarda sezilarli darajada kuchaydi. Bu xotirani VIII-XV asrlarda arablar tomonidan Andalusiyada qurilgan muhtasham qasrlar, rabotlar, masjidlar, madrasalar va musulmon merosining boshqa shakllaridagi ko‘plab me’moriy yodgorliklari eslatib turadi.

Jahon adabiyoti tarixida shunday siymolar borki, ular o‘z ijodi bilan muayyan bosqichda adabiyot rivojini eng yuksak cho‘qqisiga olib chiqadilar yoki qudratli adabiy jarayonning boshida turib, uning so‘ngi ravnaqiga asos soladilar. Shunday jahonshumul ahamiyatga ega ijodkorlar safiga buyuk arab adibi Abu Ala al-Maarriy (973-1058) va buyuk italyan shoiri Dante Aligyeri (1265-1321) kiradi. Har ikkala adib zamonasining yangicha fikrlash talabiga javob berib, mutafakkir maqomini ham olgan va o‘z xalqlari madaniyatida o‘chmas iz qoldirib, ijodi bilan milliy chegarani yorib o‘tgan va jahon tamadduni rivojiga o‘z xissasini qo‘shgan. Ular adabiyotga yangi mavzular va g‘oyalar, yangi qadriyatlar va qarashlar, yangi syujetlar va badiiylik olib

kirganlar. .Mana shu mavzulardan eng ahamiyatlisi, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan mavzu – bu jannat va jahannamga sayohat mavzusidir. Adiblar yashagan davrlar orasida uch asrga yaqin farq borligiga , va ular turli dinlarga va mamlakatlarga mansub ekanligiga qaramay , ularning narigi dunyoga qilgan safarlarga bag‘ishlangan asarlarida bir biriga o‘xshash jihatlari juda ko‘p .

Al-Maarriyning “Risolatu- g‘ufron” asari uzoq vaqtdan beri G‘arb sharqshunoslar e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Bu asar Dantega “ Ilohiy komediya”sini yaratishda uni ilhomtirgan degan taxmin bor. Dante yashagan davrda - XIV asr – arab-musulmon madaniyatiga, jumladan adabiyotiga, qiziqish katta bo‘lgan. Uning namunalari bilan yevropaliklar arablar zabt etgan Ispaniyaning janubi – Andalusiyada jadal rivojlangan tarjimonlik faoliyati orqali keng tanishgan. Dante islom madaniyati, ilmiy va falsafiy fikri bilan yaxshi tanish bo‘lgan va asarlarida Ibn Sino, G‘azoliy, Ibn Rushd, Ahmad al-Farg‘oniy va boshqa musulmon mutafakkirlar qarashlaridan iqtiboslar keltiradi. Ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Andalusiyada arab tilidan lotin tiliga qilingan tarjimalardan olgan. Narigi dunyo , oxirat tug‘risida arab-musulmon tasavvuri va Dantening esxatolog (narigi dunyo) tasavvuri orasida ko‘p o‘xshashlik borligiga dastlab taniqli ispan arabshunosi Asis Palasios e’tibor berdi. U 1919-yili nashr qilgan “Ilohiy komediyada” musulmon esxatologiyasi” nomli mashhur kitobida narigi dunyoga nisbatan arab-musulmon qarashlarni Danteni qarashlari bilan taqqosladi va islom esxatologiyasini Dantega to‘ppa to‘g‘ri ta’siri borligi to‘g‘risida xulosaga keldi. Asin Palasiosning fikrini italyan arabshunos olimlari Enrike Cherulle va Franchesko Gabrieli qo‘llab quvatladi va Dantega al- Maarriyning 300-yil oldin yozilgan “Risolatu-l- g‘ufron” asari ta’sir qilganini tan olishadi. Ularning qarashida al-Maariy o‘z zamonasidan uzib ketgan faylasuf va mutafakkir adib sifatida namoyon bo‘ladi. U dunyoviy masalalarga yondoshganda ham, narigi dunyo tug‘risida lavhalar yaratganda ham chuqur mulohazalardan kelib chiqadi va ma’naviy yuksalish bilan bog‘laydi. “U inson fojeasi to‘g‘risida fikr yuritar ekan,”- yozadi taniqli ingliz arabshunosi R.A. Nikolson, – unda adolatsizlikka, munofiqlikka va diniy bid’atlarga bo‘lgan nafrati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Hikmat va solihlikni izlashida u illatlarni va nodonlikni fosh qiladi. U o‘z davrini qo‘rquvsiz va g‘arazsiz tasvir etadi.Hammadan uning jozibaligi shundaki, adib o‘zining shak-shubxalari bilan kurashib, baribir faqat aql-zakovat og‘ir muammolarni xal qilishga va haqiqatga olib chiqishga qodir deb ishonadi”. (8,64).

Al- Maarriy va Dante o‘z zamonasining eng peshqadam ijodkorlaridir.Ular hayotning ezgulik va yovuzlik, inson haqqi va mas’uliyati, e’tiqod va imon, hayot va mamot kabi asosiy masalalarida fikr yuritar ekan, voqelikka tanqidiy va xolis nazar tashlab, inson takomillashuvini ruhiy yuksalishda, ilm va ma’rifatda, xalqga xizmat qilishda, jaholat va zulmat bilan kurashda ko‘rishdi va ushbu qadriyatlarga da’vat qilishadi .

Shunday qilib, arab-musulmon madaniyati G‘arb malaniyati uchun keng tarqalgan ekzotik timsol bo‘lib qolmasdan, balki ulug‘ sivilizatsiya - tamaddun va ma’naviyat timsolida namoyon bo‘ldi va Sharqa chuqurroq nazar tashlashga undadi, o‘rgatdi va moslashtirdi. Har bir milliy adabiyot asliyatini saqlab qolgan holda boshqa milliy adabiyotlar bilan bo‘lgan muloqatlardan o‘zaro boyidi, ma’naviy qadriyatlar bilan erkin almashuvida ishtirok etadi va natijada jahon adabiyoti o‘zaniga qo‘shilib kuchli oqimning bir qismini tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lukov, V. L. (2005). Istoriya literatury: Zarubezhnaya literatura ot istokov do nashikh dney. Akademiya. (in Russian)
2. Oriental’naya proza I. Bunina i dukhovno-esteticheskoe nasledie narodov Vostoka. (1988). Fan. (in Russian)

3. Goethe, J. W. (2010). *G'arbu Sharq devoni* (S. Bukhariy, Trans.). (in Uzbek)
4. Suvorov, M. N., et al. (2015). *Srednevekovaya literatura musul'manskogo mira*. Prezidentskaya biblioteka. (in Russian)
5. Dyakov, N. N. (2006). Arabskaya kul'tura i arabistika v Ispanii. *Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta*, Series 9(3). (in Russian)
6. Yakusheva, G. V. (2014). *Tysyacha let kul'tury Vostoka: Chast' 1. Arabskaya literatura*. (in Russian)
7. Al-Zamakhshari, A. al-Q. M. (1982). *Maqamat al-Zamakhshari*. Dar al-Kitab al-'Ilmi. (in Arabic)
8. Gibb, H. A. R. (1960). *Arabskaya literatura: Klassicheskiy period*. Nauka. (in Russian)
9. Goethe, J. W. (1988). *Annaly*. Nauka. (in Russian)

MARKAZIY OSIYO ARABLARI ERTAKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

SHORUSTAM SHOMUSAROV
Professor, f.f.d., TDSHU

Annotatsiya*. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo hududida arablar yashaydigan asosiy jug 'rofiy hududdan ancha olisda, o'zga tilda so'zlashuvchi va etnik jihatdan qarindosh bo'lmagan xalqlar orasida istiqomat qiladigan arab tiliga mansub aholi og'zaki ijodiga doir materiallar jalb etilgan. Markaziy Osiyo arablari folklorini o'rganishning jihatlari ochib borilgan. Markaziy Osiyo arablari folklorining badiiy evolutsiyasida o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi ta'siri ikki xalq ertaklari misolida ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *arab ertaklari, xalq og'zaki ijodi, lisoniy tadqiq, badiiy evolutsiya, folklor aloqalar ta'siri, forsiyzabon, turkiyzabon, qayta folklorlashuv, epic dostonlar, "Go'ro'g'li".*

Abstact. *This article draws on materials related to the oral folklore of Arabic-speaking populations residing in Central Asia, far from the primary geographical area of Arab settlement, among peoples who speak different languages and are not ethnically related. The study reveals key aspects of researching the folklore of Central Asian Arabs. It also demonstrates, through examples of folk tales from both traditions, the influence of Uzbek oral poetic creativity on the artistic evolution of Central Asian Arab folklore.*

Keywords: *Arabic tales, oral folklore, linguistic research, artistic evolution, influence of folklore contacts, Persian-speaking, Turkic-speaking, re-folklorization, epic dastans, dastan of "Gorogly."*

Аннотация. *В данной статье привлечены материалы, относящиеся к устному народному творчеству арабоязычного населения, проживающего в регионе Центральной Азии - на значительном удалении от основного географического ареала расселения арабов, среди народов, говорящих на иных языках и не являющихся этнически родственными. Раскрываются аспекты изучения фольклора арабов Центральной Азии. На примере сказок двух народов показано влияние узбекского устного поэтического творчества на художественную эволюцию фольклора арабов Центральной Азии.*

Ключевые слова: *арабские сказки, устное народное творчество, лингвистическое исследование, художественная эволюция, влияние фольклорных связей, персоязычные, тюркоязычные, повторная фольклоризация, эпические дастаны, дастан «Гуроглы».*

Markaziy Osiyo arablarining urf-odatlari va folkloriga doir ishlarda, asosan, yozib olingan materiallarning matnini chop ettirish, ularni lisoniy nuqtan nazardan tadqiq etishga e'tibor qaratilgan bo‘lib, arablar yashaydigan asosiy jo‘g‘rofiy hududdan ancha olisda, o‘zga tilda so‘zlashuvchi va etnik jihatdan qarindosh bo‘lmagan xalqlar orasida istiqomat qiladigan arab millatiga mansub aholi og‘zaki ijodiga doir materiallar haligacha folklorshunoslik aspektida tahlil etilmadi. Bu masala kelgusida alohida yo‘nalish sifatida o‘rganilishi kerak.

Markaziy Osiyo arablari folklorini o‘rganishning ikki jihati muhimdir:

Birinchidan, Markaziy Osiyo arablari folklorining tarixiy ildizlarini arablar yashaydigan asosiy hududdan yozib olingan materiallar bilan qiyoslab tadqiq etish. Bunda har bir ertak, afsona, qo‘shiq yoki maqolning qadimiy asoslari va badiiy rivoji bosqichlari belgilab beriladi;

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo arablari folklorining badiiy evolyusiyasida o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi ta'sirining estetik o‘rnini ko‘rsatib berish. Bu esa, biz yuqorida aytganimizdek, arab-o‘zbek folklor aloqalari tizimidagi arab folkloriga ko‘rsatilgan ta'sirini o‘rganishdan iborat bo‘ladi. Holbuki, arab va o‘zbek folkori o‘zaro ijodiy munosabatarining asosiy tamoyillarini belgilab beradigan yetakchi estetik mezonlarni aniqlash ham ana shu yo‘nalishdagi izlanishlarni talab qiladi. Bu mavzu hozirga qadar o‘z tadqiqotchisini kutib turibdi.

I. N.Vinnikov o‘zining «Buxoro arablarining tili va folklori» nomli asariga yozgan so‘zboshisida Buxoro arablari folklorining o‘ziga xos xususiyatlari va uning o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiga munosabati haqida shunday yozgan: «Mazkur majmuaga kiritilgan 67 matndan 62 tasini xalq ertaklari tashkil etadi. Shuni alohida qayd qilish lozimki, bu ertaklarda sof arab folkloriga xos badiiy unsurlar unchalik ko‘p emas. Yozib olingan ertaklarning asosiy qismida forsiyzabon va turkiyzabon Sharq xalqlari folklorida keng tarqalgan syujetlar o‘z ifodasini topgan. Ayrim ertaklar adabiy manbalar asosida yuzaga kelgan, bu esa badiiy jihatdan qayta ishlanib, yozma adabiyotdan o‘rin olgan qadimiy syujetlarning qayta folklorlashuv jarayoniga doir qiziqarli kuzatishlar olib borish imkonini tug‘diradi. Ba'zi bir ertaklarning aynan o‘xshash variantlari Misr, Suriya, Iroq va boshqa arab mamlakatlaridan ham yozib olingan. Kelib chiqishiga ko‘ra Markaziy Osiyo xalqlarining mashhur epik dostonlari syujetiga aloqador bo‘lgan ertaklar alohida guruhni tashkil etadi. Bu guruhga mansub ertaklar yana shunisi bilan ham xarakterliki, ularni o‘rganish bu epik asarlar syujet o‘zagining rivojlanish bosqichlari va chinakam xalqchillik xususiyati haqida fikr yuritish imkonini beradi. Men bu o‘rinda «Ahmad va Yusuf» «Go‘ro‘g‘li» kabi ertaklarni nazarda tutmoqdaman» (Vinnikov I. N. *The Language and Folklore of the Bukhara Arabs*. Moscow, 1969).

I. N. Vinnikovning Markaziy Osiyo arablari tili va folklorini o‘rganish hamda xalq og‘zaki ijodi asarlari matnini nashr etish borasidagi xizmatlarini e'tirof etgan holda so‘z yuritilayotgan majmua xususida ayrim mulohazalarimizni ham bayon etmoqchimiz:

1) Yuqorida qayd qilinganidek, I.N.Vinnikov o‘zi nashr etgan 67 matnning 62 tasi ertak janriga mansub, deb hisoblaydi va bu bilan yozib olib nashr etilgan arab folklori namunalarining janriy xilma-xilligini to‘g‘ri ko‘rsatadi.

Biz folklor asarlarining janr xususiyatlarini belgilash va epik turga kiradigan janrlarni tasniflashning atoqli olim V.Ya.Propp tavsiya etgan ilmiy mezonlariga (Propp V. Ya. *Principles of the Classification of Folklore Genres, 1964, № 4*) asoslangan holda, I.N.Vinnikov nashr etgan matnlarning qaysi janrga mansubligi masalasida o‘zgacha xulosaga keldik.

Nashr etilgan 67 matnning 51 tasi (62 ta emas) ertak janriga mansub asarlardir. Qolgan matnlar arab xalq og‘zaki ijodining quyidagi janrlariga taalluqli: 7 tasi afsona («Qirq qiz», «Mustafo», «Ali», «Zaynul arab», «Zufnun», «Iskandar», «Yusuf»), 4 tasi rivoyat («Xatib va dehqon», «Arab solig‘i», «Bir ayolning uch marta minoradan tashlanishi»), 2 tasi latifa («Bir odam bor ekan», «To‘rt shirini bo‘lgan ekan») va 3 tasi esa og‘zaki hikoya («Amir Olimxon», «Arablar mozori», «Olim ibn Qurbon»).

2) I.N.Vinnikov o‘zi yozib olgan ertaklarning mavzularini tarixiy-genetik asoslariga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘ladi: a) sof arab ertaklari; b) turkiyzabon va forsiyzabon xalqlar folkloridan o‘zlashtirilgan ertaklar; v) kitobat qilingan xalq qissalarining ertak variantlari; g) Markaziy Osiyo xalqlari eposi syujetlari asosida yaratilgan ertaklar.

I.N.Vinnikov to‘plamdagi barcha matnlarni shunday tasniflashi unchalik to‘g‘ri bo‘lmasa-da (chunki, afsona, rivoyat, og‘zaki hikoya va latifalar syujetining kelib chiqishi, manbalari bu o‘rinda hisobga olinmagan), ertaklarning mavzu qamrovini to‘la ifoda etganligi bilan muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

To‘plamdagi materiallarning guvohlik berishicha, Buxoro viloyatida istiqomat qilgan arablar folklori azaldan yuksak darajada taraqqiy etgan epik an’analarga ega bo‘lgan o‘zbek xalq og‘zaki ijodining badiiy ta’sir doirasida rivojlanib kelgan. O‘zbek dostonchiligi, ertakchilik va qo‘shiqchilik san’ati mazkur hududda yashayotgan boshqa xalqlar ijoditnyoga ham o‘z ta’sirini o‘tkazishi tabiiy bir hol edi. Asrlar bo‘yi o‘zbeklar orasida yashab, ular bilan yaqin madaniy aloqada bo‘lib kelgan arablar o‘z millatdoshlari istiqomat qiladigan asosiy hududda mavjud bo‘lgan og‘zaki ijod an’analari bilan bevosita aloqada bo‘lmaganliklari tufayli o‘z folklorining lokal xususiyatlarini to‘la saqlab qololmaganlar. Natijada, o‘zbek folklori epik janrlariga xos syujetlar silsilasi arab folkloriga singib, yangi variantlarni yuzaga keltirdi. An’anaviy arab folklorining o‘z qatlami esa asrlar davomida assimilyasiyalashib, yondosh epik ijrochilik an’analarining badiiy ta’sir doirasida o‘zining dastlabki poetik qiyofasini yo‘qota borgan Markaziy Osiyo arablari folklorining badiiy evolyusiyasidagi bu semantik o‘zgarishlarga quyidagi omillar sabab bo‘lgan:

a) hududiy omil – Buxoro va Qashqadaryo arablarining azaldan o‘zbeklar bilan bir hududda yashab kelganligi;

b) etnoijtimoiy omil – arablar asrlar davomida o‘zbeklarning urf-odatlari, marosimlari va turmush tarziga oid an’analarni o‘rganib, ulardan ko‘pchilik qismini qabul qilishi, ya’ni Movarounnahrdagi o‘zbek va arab xalqlari etnofolkloristik xarakteristikasida mushtaraklik yuzaga kelganligi;

v) tarixiy-folkloriy omil – Markaziy Osiyo arablarining yuksak an’anaga ega bo‘lgan turkiyzabon xalqlar folklorining badiiy ta’sir doirasida bo‘lganligi;

g) diniy birlik omili – arab va o‘zbek xalqlarining yagona dinga e’tiqod qilganliklari;

d) lisoniy omil – etnik kelib chiqishi jihatidan turli tillar oilasiga mansub bo‘lgan xalq vakillari yonma-yon yoki aralash yashaydigan hududlardagi folklor ijrochiligi o‘zining lisoniy ifoda usullariga ko‘ra o‘ziga xoslik kasb etadi. Masalan, Xorazm, Qoraqalpogiston yoki Toshovuzdagi ayrim tumanlarda o‘zbek, qoraqalpoq va turkmanlar yonma-yon yashaydilar. Bu yerda baxshilar ma’lum dostonii tinglovchilar auditoriyasining etnik tarkibiga qarab turib goh o‘zbekcha, goh turkmancha, gohida esa qoraqalpoq tilida aytaveradilar. Shuning uchun bu yerdagi baxshilar ijrochiligiga xos muhim bir xususiyat – ikki yoki ko‘p tillilik o‘ziga xos epik an’ana sanaladi. O‘zbek folklorshunoslari muayyan bir baxshi repertuariga ma’lum bir dostonning bir necha tilda aytilgan versiyalari mavjudligini aniqlaganlar (masalan, qoraqalpoq baxshisi Qurbonboy jirov Tojiboyevdan «Shirin va Shakar» dostonining ham o‘zbekcha, ham qoraqalpoqcha variantlari yozib olingan) (Madrahimova N. *On the Genesis of the Dastan “Illirin bilan Shakar”* // *Uzbek Language and Literature*, № 3).

Demak, ikkitillilik hodisasi folklor ijrochiligiga xos xususiyatlardan biri sanalar ekan, bu holat Markaziy Osiyo arablari epik ijodiyotining badiiy rivojida ham kuzatilgan bo‘lishi kerak. O‘zbek va tojiklar bilan juda yaqin madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqada bo‘lgan Markaziy Osiyo arablari XX asrning birinchi yarmiga kelib batamom yoki qisman assimilyasiyalashib ketganliklarini qayd qilgan I.N.Vinnikov ham bu haqda «arablar o‘z tili va o‘ziga xos madaniy an’analarini yo‘qotib, o‘zbek va tojik xalqlari tili va madaniyatini qabul qilganlar» (Vinnikov I. N. *Dictionary of the Dialect of the Bukhara Arabs,* M.-L., 1962), – deb yozgan edi.

Nazarimizda, Markaziy Osiyo arablarining o‘z ona tilini yo‘qotib o‘zbek yoki tojik tilida so‘zlashishga o‘tishi jarayoni birdaniga ro‘y bergan emas. Ma’lum arab qavmlari ikki tilda (o‘z ona tili va o‘zlashtirilgan til) so‘zlashishgan bo‘lishi kerak. Shunday ekan, o‘zbek folkloridan o‘zlashtirilgan epik syujetlar tarixiy-folkloriy jarayonning ma’lum bosqichlarida arablar tomonidan ikki tilda ijro etilgan bo‘lishi ham mumkin.

Buxoro viloyatida yashab, o‘z ona tilini saqlab qolgan arablardan XX asrning 30-yillarida yozib olingan asosiy (I.N.Vinnikov aytgani kabi “turkiy va forsiy xalqlar emas”) folkloridan o‘zaro epik ta’sir jarayonida badiiy o‘zlashtirilgan syujetlar asosida shakllangan.

O‘zbek folklorining Markaziy Osiyo arablari og‘zaki ijodiyotiga ta’siri qay darajada bo‘lganligi, etnik va lisoniy mansubiyatida mushtaraklik bo‘lmagan xalqlar og‘zaki ijodi an’analarining o‘zaro diffuziyalanishi jarayonining badiiy o‘ziga xosligi va epik transformatsiyalanish qonuniyatlarini aniqlashda arab va o‘zbek ertaklari syujet elementlarini qiyosiy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida «Bir yigit o‘z singlisini olmoqchi bo‘lgani» nomli arab ertagini urganchlik Qutlimurod Masharipovdan Fattoh Abdullayev yozib olgan «Oltin beshik» nomli o‘zbek ertagiga muqoyasa qilib ko‘raylik.

Xalq ertaklari syujetining ko‘rsatkichini tuzgan Aarne-Tompsonlar tasnifiga ko‘ra, «Opa va uka» mavzusi 450-syujet ko‘rsatkichi bilan belgilangan. O‘zbek folklorida qayd qilingan bu syujet Tompson tasniflagan variantlarga o‘xshamasligini «Yoriltosh» ertagi misolida ko‘rsatib bergan. T.Rahmonovning yozishicha, «Opa va uka» syujetining voqealari S.Tompson ko‘rsatkichida ertak qahramonlari bo‘lmish opa va ukaning uydan haydalishi bilan boshlanadi. Bu syujetning «Yoriltosh» tipidagi variantlarida muqaddima butunlay o‘zgachadir: o‘gay aka o‘gay singlisiga uylanmoqchi bo‘ladi. Bundan xabar topgan qiz uydan qochib ketadi. Keng dalada panoh izlab, xarsang toshga, ayrim variantlarda qamishlarga yalinadi. Tosh (qamishlar) ochilib, qizni berkitadi. Orqasidan izlab kelgan otasi, onasi, akasi, opalariga tosh ochilmaydi, faqat kichik singilga (yoki ukaga) ochiladi. Opa-singil (uka) yo‘lga ravona bo‘ladilar. Shu yerdan boshlab, ertakning syujeti «Opa va uka» ertagining S.Tompson ko‘rsatkichidagi syujet tipiga mos ravishda rivojlanadi.

O‘zbek xalq ertaklari sirasidagi bunday tematik guruhlarni boshqa xalqlardagi mushtarak syujetlar bilan qiyosiy o‘rganish, bir tomondan ana shu xalqlarning tarixiy-madaniy rivojidagi aynanliklarni aniqlashga imkon bersa, ikkinchi tomondan, turli xalqlar ertak eposining o‘zaro ta’siri hamda aloqalarini ochishga ko‘mak beradi (*Rakhmonov T. The Plot Structure of the Thematic Cycle “Innocently Oppressed” // Uzbek Language and Literature*. 1988. No. 6.).

Har ikkala ertak ham Markaziy Osiyo turkiy xalqlari folklorida keng tarqalgan syujetlardan biri – akaning o‘z singlisiga uylanmoqchi bo‘lishi va bu qabohatdan qutulish uchun uyidan qochib ketgan opa-singilning sarguzashtlariga bag‘ishlangan an’anaviy mavzu asosida yaratilgan. Bu tipdagi ertak variantlari Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari, masalan, turkmanlar folklorida ham mavjud. «Ikki opa-singil» nomli turkman xalq ertagida katta o‘g‘il uylanmoqchi bo‘lib, bozordan bir uzuk sotib oladi va shu uzuk qaysi bir qizning barmog‘iga to‘g‘ri kelsa, shunga uylanmoqchi ekanligini ma’lum qiladi. Onasi hamma qizlarga uzukni taqdirib ko‘radi, ammo u hech qaysi qizga to‘g‘ri kelmaydi. Uzukni

yigitning singlisi taqib ko‘rsa, loppa-loyiq keladi. Shunda yigit singlisiga uylanmoqchi bo‘ladi. Qiz esa uydan qochib ketadi va qamishzorlarga yashirinadi (*Rakhmonov T. The Plot Structure of the Thematic Cycle “Innocently Oppressed” // Uzbek Language and Literature. 1988*).

Tahlil qilinayotgan arab va o‘zbek ertaklarida esa voqealar rivojiga turtki bo‘ladigan syujet unsuri – tugun talqini biroz boshqacharoq. Bu ertaklarda tasvirlanishicha, ota-ona o‘z o‘g‘lini uylantirib qo‘ymoqchi bo‘lib, maslahat solsalar, yigit o‘zining go‘zal singlisiga og‘iz soladi. Bundan ranjigan singil uydan qochib ketadi va ertakning o‘zbek versiyasida tosh ichiga, arab versiyasida esa qamish ichiga kirib yashirinadi (*Vinnikov I. N. The Language and Folklore of the Bukhara Arabs. Moscow, 1969).*

Mazkur ertaklar tug‘ishganlar o‘rtasidagi nikoh (insest) bilan bog‘liq qadimiy miflar syujeti asosida shakllangan. Ingliz etnograf olimi J. Frezer bu qadimiy nikohning matriarxat(ona hukmronligi tuzumi)dan patriarxat(ota hukmronligi tuzumi)ga o‘tish davri uchun xos odatlardan bo‘lib, ertaklarga mif orqali o‘tgan, deb hisoblaydi (*Frazer J. The Golden Bough. Vol. III. Moscow, 1930*).

Turkiy xalqlar nikoh va oilaviy munosabatlarining sehrli-fantastik ertaklardagi badiiy ifodalanishi masalasini maxsus o‘rgangan X. Egamov esa o‘zbek, turkman, ozarbayjon folkloridagi shu mavzuga doir ertaklarni qiyosiy tahlil qilib, «bunday ertaklarda biz bir urug‘ ichida mavjud bo‘lgan nikox formalarining (endogamiya) buzilishini ko‘ramiz. Ma’lumki, endogamiya ma’lum bir guruhlar, urug‘lar ichidagi nikohga chek qo‘ygan, O‘z akasining maqsadidan xabar topgan qizning bu nikoxdan qochishi ana shu ekzogamiyaning ta’sirini, ekzogamiyaning yemirilishini o‘zida saqlab kelganligini kursatadi» (*Egamov Kh. Essays from the History of the Interrelations of Fairy-Tale Traditions of the Turkic Peoples of the Soviet East. Tashkent, 1982*), - deb yozadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vinnikov I. N. *The Language and Folklore of the Bukhara Arabs*. – Moscow: Nauka, 1969. (in Russian)
2. Propp V. Ya. *Principles of the Classification of Folklore Genres* // *Ethnography*. 1964. No. 4. (in Russian)
3. Madrahimova N. *On the Genesis of the Dastan “Illirin bilan Shakar”* // *Uzbek Language and Literature*, No. 3. (in Uzbek)
4. Vinnikov I. N. *Dictionary of the Dialect of the Bukhara Arabs* // *Palestinian Collection*. Issue 10 (73). Moscow–Leningrad, 1962. (in Russian)
5. Rakhmonov T. *The Plot Structure of the Thematic Cycle “Innocently Oppressed”* // *Uzbek Language and Literature*. 1988. No. 6. (in Uzbek)
6. Dzhalalov G. O. *Uzbek Folk Fairy-Tale Epic*. Tashkent: Fan, 1980. (in Uzbek)
7. Frazer J. *The Golden Bough*. Vol. III. Moscow, 1930. (in Russian)
8. Egamov Kh. *Essays from the History of the Interrelations of Fairy-Tale Traditions of the Turkic Peoples of the Soviet East*. Tashkent, 1982. (in Uzbek)
9. Shamusarow Sharustam. *Poetics of Arabic Fairy Tales*. Germany: Lambert Academic Publishing. (in Germany)

ZAMONAVIY ARAB ADIBALARI IJODIDA KICHIK NASRIY JANRLAR

DILAFRUZ MUXIDDINOVA
Dotsent, f.f.d., TDSHU

Annotatsiya*: Ushbu maqola zamonaviy arab adabiyotidagi yangi janrlardan biri – "eng qisqa hikoya" janri haqida bo'lib, unda arab adabiyotida ushbu janrda ijod qilgan bir nechta suriyalik, iroqlik ayol yozuvchilarning juda qisqa hikoyalaridan namunalar keltiriladi va hikoyalarning mazmun mohiyati, badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida esa adibalarning mahorati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar*: eng qisqa hikoya, ayol yozuvchilar, realizm, modernizm, ramziylik, falsafiylik, tag ma'nolilik.*

Аннотация: *Данная статья посвящена одному из новых жанров современной арабской литературы – жанру «самого короткого рассказа». В ней приводятся образцы чрезвычайно коротких рассказов нескольких сирийских и иракских писательниц, работающих в данном жанре, а также анализируются их содержание, идейная сущность и художественные особенности. В процессе анализа раскрывается творческое мастерство авторов.*

Ключевые слова: *самый короткий рассказ, женщины-писательницы, реализм, модернизм, символизм, философичность, скрытая смысловая многослойность.*

Abstract: *This article examines one of the emerging genres in modern Arabic literature - the very short story. It presents selected examples of very short stories written by several Syrian and Iraqi female writers who have contributed to the development of this genre in Arabic literature, and analyzes their thematic content and artistic features. In the course of the analysis, the literary skill and creative mastery of these women writers are revealed.*

Keywords: *very short story, women writers, realism, modernism, symbolism, philosophicity, implicit meaning.*

Kirish. Zamonaviy arab hikoyanavisligida boshlangan yangi uslubiy-poetik izlanishlar XX asrning 70-80 yillarda ham davom etib, yangi tarixiy sharoitdagi ijtimoiy-estetik hayot haqiqatlarini ifodalashning yangicha shakllarini ham paydo bo'lishiga olib keldi. Yozuvchilarning yangi shakllarda qanchalik tajriba qilsalar kitobxonlarda ham ularning ijodiga bo'lgan qiziqishlari ortib borar edi. Hikoyanavislarning diqqati mazmunan shaxs hayotining ichki ruhiy tomonlarga qaratilgan bo'lsa, shakliy o'zgarishlar ularning hajmida namoyon bo'ladi: Bir nechta jumladan to ikki yoki uch sahifadangina iborat hikoyalar keng rivoj topdi. Garchi bunday hikoya shakli XX asr hikoyanavislarining kashfiyoti bo'lmasa ham, eski an'analar, yangidan yana tiklanib bu janr arab adabiyotida – "قصة قصيرة جدا" "eng qisqa hikoya" deb atala boshladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab adabiyotida zamonaviy hikoya turlari, xususan "eng qisqa hikoya" turini o'rganishda arab adabiyotshunoslaridan doktor Jamil Hamdaviyning "Eng qisqa hikoya darsligi" (دراسات في القصة القصيرة جدا) muhim manba bo'lib xisoblanadi. Shuningdek, mazkur masala bo'yicha Ibrohim Sabtining "Eng qisqa hikoya tajribasi" (محنة القصة القصيرة جدا), Haysum Bihnam Bardi "Eng qisqa hikoya:Iroq hududi" (القصة القصيرة جدا: الريادة العراقية) kabi tadqiqotlarda qator tahlillar olib borilgan. Tadqiqot materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tavsifiy, qiyosiy va komponent tahlil usullari asosida o'rganildi.

Natijalar. Zamonaviy adabiyotdagi "eng qisqa hikoya" ham mavzu qamroviga ko'ra xilma-xil. Ularda kundalik hayotiy voqealar, inson tabiati, insonlar orasidagi munosabatlar, insonning ichki "meni", ruhiy holati, kechinmalari yoki hayot, borliq haqidagi o'y-kechinmalari ixcham hajmda ochib beriladi. An'anaviy nasr namunalarida pand-nasihat, o'git ustunlik qilsa, "eng qisqa hikoya"larda xulosani o'quvchining o'ziga havola qilish, zamonaviy voqelikni ramziy-majoziy,

syurrealistik tasvirlar, inson ruhiyatini chuqur ochib beruvchi omillar yetakchilik qiladi. Mazkur janr amaliyotida, bir tomondan, arab adabiy merosi, ikkinchi tomondan, jahon adabiyoti, ya'ni Yevropa, Amerika va Lotin Amerikasi adabiyotining ta'siri ham sezilarlidir.

Zamonaviy arab adabiyotida ayol ijodkorlarining o'rni beqiyos darajada o'smoqda. Arab adibalari badiiy adabiyotning barcha turlarida sermahsul ijod qilib kelmoqdalar. Shu jumladan, zamonaviy arab yozuvchilari hikoyaning "eng qisqa hikoya" (قصة قصيرة جدا) turida ham o'z mahoratlarini ko'rsatib, ijod qilishmoqda. Zamonaviy arab adabiyotidagi "eng qisqa hikoya" o'zbek adabiyotidagi "shingil hikoya" atamasiga to'g'ri keladi. Hozirgi zamon suriyalik adiba A'bir Xolid Yahyo ijodida "eng qisqa hikoya" shakli ahamiyatli kasb etadi. Adibaning "Jamlanma" to'plami juda qisqa hikoyalardan tashkil topgan bo'lib, to'plamdagi har bir hikoyada hayotiy voqelik chuqur falsafiy ruh bilan sug'orilgan.

لملمات
و أخيراً حسمت أمرها، و امتطت صهوة قلمه،
ستكتب ما أحجت عنه لسنوات،
جزأت رويتها الي العديد من الأجزاء، و اختصرت الكثير من
علامات التوضيح،
و أشركت فيها العدبد من الأبطال،
و بقي العنوان..
كتبت في أعلي الصفحة.. لملمات

"Jamlanmalar"
Nihoyat, uning ishi hal bo'ldi. Qalamini qo'liga oldi, (qalamining yelkasiga o'tirdi)
Yillar bo'yi rad etgan narsalari haqida yozadi,
Uning hikoyalari ko'plab bo'laklarga bo'linib ketdi, izohli belgilarning ko'pi qisqarib ketdi,
Ularda qahramonlar ko'paydi,
Nomlar qoldi..
Sahifalarni to'ldirib yozdi. Jamlanmalar (Yakhya, 2015, p.21).

Adiba A'bir Xolid Yahyoning juda qisqa hikoyalari o'zining shoironaligi bilan ajralib turadi. Adibaning "Jamlanmalar" juda qisqa hikoyasi ma'lum bir ma'noda avtobiografik xususiyatlarga ega. Muallif lirik ruhdagi mana shu juda kichik hikoyasida ijod jarayoni, yozuvchining ijodga kirish olami tasvirlangan. Sababi, A'bir Xolid Yahyoning asl kasbi tish shifokorilik bo'lib, keyinchalik ijodga kirib kelgan. Adiba "Jamlanmalar" hikoyasida "Jamlanmalar" to'plamining dunyoga kelish tarixi xaqida ortiqcha izohlarsiz qisqa va lo'nda tarzda bayon qilgan. Hikoyaning har bir satri, har bir jumlasida yashiringan ma'nolar yotadi. "Ularda qahramonlar ko'paydi, Nomlar qoldi.." birgina, qisqagina jumlasida yozuvchi yaratadigan obrazlar, ularning turli-tuman taqdirlari, o'quvchilarning yodida qoladigan ismlari nazarda tutilgan.

معايير
سألها بدهشة: من انتِ؟
و من أنتِ؟ و الي أين أنتِ؟
قالت: إمرأة، تسكنها رسالة طفل، تقود قطاراً يحمل أحلاماً!
ختمت بخاتم (محققة)، يجوب كل محطت الوطن!
قال لها: "كم أنت سطحية،
غادي كهفي سريعاً الي فضاءات تسعك، لملمي أحلامك عنا
كفانا، قد سئمنا ضجة الأطفال"!
يقول طفل

"كلما بكيت سمعت ضحكتها
تجلجل، أمسح دمعي و أمضي في عمق حكاياها و
أكبر

Me'yor
Undan (ayoldan) dahshatlanib so'radi:Sen kimsan?
Va sen nimasan? Va sen qayerga?
U (ayol) dedi: Ayol, farzand dunyoga keltirish risolasida yashaydigan, orzular poyezdini boshqaradigan, Vatanning har bir bekatida sayr qildiradigan uzuk taqqan ayol!
Unga (ayolga) dedi: Qanchalar sen yuzakisan,
Darhol kulbamni tark et va fazolaring kengligiga ket. Orzularingni bizdan yig'ib ol. Kifoya, bolalar shovqini bizni bezor qilib yubordi.
Bola deydi:
Yig'laganimda uning kulishini eshitaman
U qo'ng'iroqdek jaranglaydi, ko'z yoshlarimni artib,uning hikoyalari ichiga sho'ng'iyman va katta bo'laman (Yakhya,2015,79).

Adiba A'bir Xolid Yahyo "Me'yor" juda qisqa hikoyasida ayollarga, jamiyatda, hayotda ayolning o'rnini o'ziga xos uslubda aks ettirgan. Adiba mazkur hikoyasida ayolga ta'rif berar ekan shoirona dialog ko'rinishda bayon etgan. "Sen kimsan?Va sen nimasan? Va sen qayergasan?" savollarga "farzand dunga keltirish risolasida yashaydigan, tugatilgan orzular poyezdini boshqaradigan, Vatanning har bir bekatida sayr qiladiragan uzuk taqqan ayol!" javobi orqali "Ayol bir qo'li bilan beshik, bir qo'li bilan dunyoni tebratar" kabi o'zbek maqoliga hamoxangdir. "Vatanning har bir bekatida sayr qildiradigan uzuk taqqan ayol" jumlasi orqali esa Vatanni onadek muqaddasligi, onadek azizligi, insonning tug'ilib, kindik qoni to'kilgan joy, maskan Onadek tabarruk ekanligi bayon etilgan. Adiba A'bir Xolid Yahyo hikoyasining har bir satrida tagma'nolilik kasb etadi. "Qanchalar sen yuzakisan, Darhol kulbamni tark et. Keng fazoingga ket. Orzularingni bizdan yig'ib ol. Bolalar shovqini bizni bezor qilib yubordi" jumlalari orqali qalbi yorug'lik, ezgulikdan, mehr-muhabbatdan, orzu-istaklardan uzoqlashgan qalb sohiblari gavdalantirilgan. Nazarimizda, adiba mazkur iboralar orqali o'z mamlakatida vatanini xarobaga aylantirayotgan, yosh, qari, norasida go'daklarga rahmi kelmay o'z manfaati yo'lida halok etayotgan qabih kimasalarning fikr, qarashlarini ko'rsatgan. Hikoyada qarama-qarshi fikrlar teng-baravar berilgan bo'lib, ezgulik va yovuzlik o'rtasida kurash keskin ravishda ifodalangandek. Hikoyada bosh qahramon ayolga nibatan bildirilgan e'tirozli fikrlarga qarma-qarshi "Bola deydi:Yig'laganimda uning kulishini eshitaman. Go'yo qo'ng'iroqdek yangraydi, ko'z yoshlarimni artaman va uning hikoyalarining ichiga kirib ketaman va katta bo'laman" jumalalarda ezgulik, tinchlik, baxt, orzu-umid, vatan timsoli bo'lmish ona albatta g'olib bo'lishi, yovuzlik ustidan ezgulik albatta g'alaba qozonishini namoyon qilgan.

Ko'rib turganimizdek, suriyalik A'bir Xolid Yahyoning eng qisqa hikoyalari boshqa shu shaklda ijod qilgan mualliflarning asarlaridan o'z shakli, o'z mazmuni bilan farqlanadi. Adiba hikoyalarini she'riy shaklda, ohang, ritmga ega holda yaratib, nasr va nazmni bir-biriga uyg'unlashtirgan.

XX asrning ikkinchi yarmida ijodini boshlagan, hozirgi zamon mashhur Iroq adibasi Busayna an-Nosiriy ijodida "eng qisqa hikoya" turi salmoqli o'rinni egallaydi. Shu jumladan, adibaning "كلمة" "So'z" hikoyasida bir yigitning sevgi iztiroblari bayon etilgan bo'lib, adiba qahramonning mana shu holatlarini yorqin aks ettirgan. Adiba hikoyada maktub detalidan foydalanib, oshiq

yigitning sevgilisidan olgan maktubi va uni o‘qish jarayoni birgina so‘zning inson ruhiyatiga kuchli ta’siri aks ettirilgan.

“Odamlar orasida buklangan qog‘ozni titrayotgan barmoqlarim bilan ushlashga harakat qilardim, al-Jabhaga ketayotgan edim. O‘sha payt biz uchrashgan ilk marotaba edi. Ilk bor ko‘zlarimiz to‘qnashdi. Birinchi marta uning ko‘zlari to‘q jigarrang ekanini bildim. Uyqusiz tunlarimda uning o‘sha ko‘zlarini eslab yotardim” (Al-Nasiri, 2016, p. 78).

Hikoyada oshiq yigitning o‘z sevgilisidan maktub olgan chog‘dagi holati tasvirlanib, qahramonning xotiralari orqali ikki sevishganlarning munosabatlari bayon etilgan. Adiba Busayna an-Nosiriy o‘z sevgilisdan maktub olgan yigitning maktubni tezroq ochib o‘qishga harakat qilishi, bu jarayonni hayajonli daqiqalardan ekanligi yorqin aks ettirgan:

“Men tezroq qo‘llarim orasidagi qog‘ozni o‘qishni hoxlardim, xatda nima yozilganini o‘qigunimcha qancha kutishim kerak?”

Yigit yonida ukasi bo‘lganligi sabab, hijolatdan uning yonida xatni ocholmay qiynalayotganini, ukasi tezroq yonidan ketsa-yu, u xatni ochib o‘qisa kabi holati ko‘rsatilgan.

“Qog‘ozni sekin ochdim. Sevaman degan so‘zingni harfma-harf ko‘rdim. Uning nozik barmoqlarini his etdim, hayol qildim va u “Alif”, “Ho”, “Ba”, “Kof” (Uhibbuka) harflarini alvon qizil satrlarda chizardi” (Al-Nasiri, 2016, p. 79).

Adiba hikoyaning so‘ngida mana shu birgina so‘z " أحبك "“Seni sevaman” jumlasini inson hayotida, hikoyada yigitning hayotida naqadar ahamiyatli ekanligini ta’sirchan, hissiyotli tasvirlar bilan bayon etgan.

Shuningdek, hozirgi zamon suriyalik adiba Hiyma al-Muftiy “juda qisqa hikoya” shaklida sermahsul mehnat qilmoqda. Hiyma al-Muftiyning “juda qisqa hikoya” lari turli-tuman mavzuga bag‘ishlanib, inson hayotidagi maishiy, ijtimoiy hodisalarning har bir lahzasi, oniy nuqtalari mohirona aks ettiriladi.

Aniq nusxa

O‘g‘il otasining qadamidan yurdi, nevara otasi va buvasining qadamidan yurdi. So‘ng ular izidan nevaraning o‘g‘li, uning o‘g‘li nevarasining o‘g‘lini o‘g‘li davom ettirdi. Oila a’zolari bir yo‘lni bosib o‘tdilar, bir joylarni ziyorat qildilar, bir xil to‘siqlarga qoqildilar, o‘xshash uqubatlarni o‘tdilar, ulardan kim yashagan bo‘lsa xuddi o‘sha nihoyaga yetib keldi.

Uzoq yillar o‘tgan bo‘lishiga qaramay, oila avlodlaridan ko‘pi ketma-ket o‘tib ketdi. Lekin, ularning barchasi yerda faqat bir kishining qadamlarini izini qoldirdlar (Al-Mufti, 2015.)

Hiyma al-Muftiy “Aniq nusxa” qisqagina hikoyasida ikki xil ma’no anglashiladi. Biri bir oilaning tarixi bo‘lsa, ya’ni ajdodlar izidan avlodlarning borishi, ajdodlar ishini avlodlar davom ettirishi kabi hayotiy voqealar anglashilsa, ikkinchisi odamzotning Yaratguvchi tomonidan belgilangan taqdiri, ya’ni bu dunyoga kelishi, yashash jarayonida turli qiyinchiliklarni bosib o‘tishi va hayotdan ko‘z yumishi kabi azaliy, takrorlanib turuvchi taqdir hukmini barcha insoniyatga tegishli ekanligi anglashiladi. Adibaning “Himoya” juda qisqa hikoyasi esa latifa tarzida namoyon bo‘ladi:

Himoya

O‘g‘rilardan qo‘rqib uyining to‘rt tomonini devor bilan o‘radi va uyiga hech kimni yaqinlashtirmaslik uchun faqat qo‘riqlashni yuklab qoravullarni qo‘ydi. O‘g‘rilar ayni bu uyga kirish harakatida qiyinchilikka duchor bo‘lishga hojati yo‘qligidan mamnun bo‘ldilar, chunki u yerga kirishga ko‘p qonuniy eshiklar bor.

Do‘stlar...Ular ham bundan mamnun edilar (Al-Mufti, 2015).

O‘rta asr arab adabiyotidagi kinoyaviy latifalarni eslatuvchi mazkur hikoyada o‘g‘ri va uy egasi o‘rtasidagi munosabatlar zamirida hiyonat, aldov, yolg‘on kabi holatlarni kinoyaviy tarzda bayon etgan. Hikoya matnidagi “qonuniy eshiklar bor” jumlasi orqali qorovullarning ichida ayg‘oqchilarning, o‘g‘rilarning o‘zi borligiga ishora yotadi. Shuning uchun ham adiba “O‘g‘rilar ayni bu uyga kirish harakatida qiyinchilikka duchor bo‘lishga hojati yo‘qligidan mamnun bo‘ldilar” jumlasi orqali o‘g‘rilarning o‘zi uy egasiga yollanganligiga ishora borligini ko‘rsatgan. Suriyalik adiba Hiyma al-Muftiyning juda qisqa hikoyalarida so‘z va matn o‘yinlari, matn osti hususiyatlari kuchli tarzda aks etadi.

Xulosa. Ko‘rib turganimizdek, zamonaviy arab adabiyotida hikoya janrining o‘ziga xos keng imkoniyatlari iqtidorli, mahoratli adibalar qalamida ochib borilmoqda. “Eng qisqa hikoya” turi har bir arab adibasi ijodida o‘ziga xos usulda namoyon bo‘lmoqda. Hozirgi zamon arab hikoyanavislari eng qisqa hikoya turida ham mohirona tarzda umumbashariy falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, ma’naviy mavzularni majoziy, ramziy, assotsiativ, kinoyaviy tarzda bayon etmoqdalar.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Al-Mufti, Kheeymah. (2015). Reading ten very short stories by a syrian short story writer. *(Qira’a fi ‘ashr qisas qasira jiddan lil-qissa al-Suriyya).* http://www.wata.cc/forums/showthread. (in Arabic)
2. Al-Nasiri, Buthayna. (2016). Diaries of stories and others. *(Yawmiyat al-qisas wa ukhra).* –131 p. (in Arabic).
3. Hamdaoui, Jamil. (2013). Studies in the very short story. *(Dirasat fi al-qissa al-qasira jiddan).* http://www.almothaqaf.com. (in Arabic)
4. Mukhiddinova, D. Z. (2015). The genre of "very short story" in modern Arabic literature. *Zhanr" ochen' korotkogo rasskaza" v sovremennoy arabskoy literature.* Sociosphere, (3), 57-60. (in Russian)
5. Mukhiddinova, D., & Saidova, N. (2023). Characteristics of the “Shortest Story” Genre in Modern Arabic Literature. *SGS-Engineering & Sciences*, *2*(02). (in English)
6. SHAMUSAROV, S. G., MUTALOVA, G. S., SAIDOVA, N. M., MUHIDDINOVA, D. Z., ABDULLAEVA, D. S., & UMAROVA, N. I. (2025). IDEOLOGICAL AND AESTHETIC EXPLORATION IN CONTEMPORARY REALIST SHORT STORIES (LATE 20TH-EARLY 21ST CENTURIES). *TPM–Testing, Psychometrics, Methodology in Applied Psychology*, *32*(S8 (2025): Posted 05 November), 1912-1921. (in English)
7. Yakhya, Abeer Khaled. (2015). Very Short Stories. *(Al-Malamat qisas qasira jiddan).* Arab Cultural Foundation. – 86 p. (in Arabic).
8. Allen R. An introduction to Arabic literature. –Cambridge university press. 2000.- 284 Pp. (in English)
9. Badawi M.M. Modern Arabic literature and the West. – London: Ithaca press. 1985. – 236 Pp. (in English)
10. Brockelmann C. History of the Islamic peoples. Translated by J.C., and M.Perlmann. – London, 1979. – 582 Pp. (in English)
11. Brugman J. An introduction to the history of modern Arabic literature in Egypt. –Leiden.: E.J.Brill, 1984. – 439 Pp. (in English)
12. Dr. Mohammed Darveesh, Soheeil Najm. Short stories from Iraq. Volume II. Baghdad: Al-Ma’mun, 2010. –34 Pp. (in English)
13. Wellek R., Warren A. Theory of letereture. – San Diego. New York. London. Printed in the USA. 1983. – 396 Pp. (in English)

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK

MAHMUD ZAMAXSHARIY – "DUNYO XALQLARI USTOZI"

ZOHIDJON ISLOMOV
Professor, f.f.d., O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola buyuk mutafakkir Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi, uning arab tilshunosligi, grammatika va lug'atshunoslik rivojiga qo'shgan hissasini yoritishga bag'ishlangan. Unda olimning hayoti, ilmiy faoliyati, yaratgan asarlari hamda ularning ta'lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ayniqsa, "Muqaddimat al-adab", "Al-Mufassal", "Al-Kashshof" kabi asarlarining ilmiy va amaliy qiymati ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijasida Zamaxshariy nafaqat arab dunyosida, balki boshqa xalqlar orasida ham "ustoz" sifatida e'tirof etilganligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Mahmud Zamaxshariy, arab tilshunosligi, grammatika, lug'atshunoslik, Muqaddimat al-adab, Al-Mufassal, Al-Kashshof, madrasalar ta'limi, ilmiy meros.*

Abstract: *This article is devoted to the study of the scientific heritage of the great scholar Mahmud al-Zamakhshari and his contribution to Arabic linguistics, grammar, and lexicography. It examines the scholar's life, academic activity, major works, and their significance in the educational system. Particular attention is given to such works as Muqaddimat al-Adab, Al-Mufassal, and Al-Kashshaf, highlighting their scientific and practical value. The study concludes that Zamakhshari was recognized as a "teacher of the world" not only in the Arab world but also among non-Arab nations.*

Key words *Mahmud al-Zamakhshari, Arabic linguistics, grammar, lexicography, Muqaddimat al-Adab, Al-Mufassal, Al-Kashshaf, education system, scientific heritage.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению научного наследия великого мыслителя Махмуда Замахшари, его вклада в развитие арабского языкознания, грамматики и лексикографии. В работе рассматриваются жизнь и научная деятельность ученого, его основные труды и их значение в системе образования. Особое внимание уделяется таким произведениям, как «Мукаммадимат аль-адаб», «Аль-Муфассал», «Аль-Кашшаф», а также их научной и практической ценности. В результате исследования обосновывается, что Замахшари признан «учителем» не только в арабском мире, но и среди других народов.*

Ключевые слова: *Махмуд Замахшари, арабское языкознание, грамматика, лексикография, Мукаммадимат аль-адаб, Аль-Муфассал, Аль-Кашшаф, система образования, научное наследие.*

Kirish. Ma'lumki, Markaziy Osiyo hududi qadimdan ilm-fan va madaniyat markazlaridan biri bo'lib, bu zaminda yetishib chiqqan allomalar jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ana shunday buyuk mutafakkirlardan biri Mahmud Zamaxshariy bo'lib, u arab tilshunosligi, grammatika, tafsir va lug'atshunoslik sohalarida o'ziga xos ilmiy maktab yaratgan.

Zamaxshariyning asarlari nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham ilmiy manba sifatida keng qo‘llanilgan. Ayniqsa, uning grammatikaga oid ishlari madrasalar ta’lim tizimida muhim o‘rin egallagan. Olimning ilmiy merosi arab tilini o‘rganishda sodda va tizimli yondashuvni shakllantirishga xizmat qilgan.

Mazkur maqolada Mahmud Zamaxshariyning hayoti, ilmiy faoliyati va asarlarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi hamda uning arab va jahon ilm-fanidagi o‘rni yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi va uning arab tilshunosligidagi o‘rnini o‘rganish uzoq yillar davomida ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Uning asarlari, jumladan, “al-Kashshof”, “Asosu-l-balog‘a”, “Mufassal fi san’ati-l-i’rob”, “Unmuzaj fi-n-nahv”, “Foiq fi g‘aribi-l-hadis” kabi fundamental manbalar arab tili grammatikasi, lug‘atshunoslik va balog‘at ilmining asosiy manbalari sifatida xizmat qiladi (Zamakhshari, 1998; 1999; 2000; 2004). Ushbu asarlarda tilning nazariy va amaliy jihatlari mukammal yoritilgan bo‘lib, ular arab tilini o‘qitish tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamaxshariy merosini o‘rganishda zamonaviy tadqiqotchilarning ishlari ham muhim o‘rin tutadi. Jumladan, B.M. Grandening arab grammatikasiga bag‘ishlangan tadqiqotida arab tili grammatik tizimi qiyosiy-tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan bo‘lib, bu Zamaxshariy qarashlarini kengroq ilmiy kontekstda baholash imkonini beradi (Grande, 2001). Shuningdek, Z.M. Buniyatovning Xorazmshohlar davlatiga oid tadqiqotlari Zamaxshariy yashagan davrning siyosiy va madaniy muhitini ochib berishda muhim manba hisoblanadi (Buniyatov, 1986).

O‘zbek olimlari tomonidan ham Zamaxshariy ilmiy merosi keng o‘rganilgan. Xususan, Z. Islomovning ishlarida olimning grammatik asarlari, ayniqsa “Muqaddamatu-l-adab”ning manbashunoslik va filologik tahlili chuqur yoritilgan (Islomov, 2002; 2020; 2023). Shu bilan birga, A. Rustamov va M. Oqilov kabi tadqiqotchilar ham Zamaxshariy asarlarining mazmuni va ahamiyatiga oid muhim fikrlarni ilgari surganlar.

Arab manbalari, jumladan “Qomus al-a‘lom” kabi ensiklopedik manbalarda ham Zamaxshariy shaxsi va ilmiy merosi haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ular olimning xalqaro miqyosdagi nufuzini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqotda manbalarning xususiyatidan kelib chiqqan holda tavsifiy, qiyosiy va tarixiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Zamaxshariy asarlari mazmun jihatidan tahlil qilinib, ularning arab tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasi aniqlandi. Shuningdek, turli davrlarda yozilgan ilmiy ishlar o‘zaro qiyoslanib, olim merosining zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni baholandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Mahmud Zamaxshariy arab tilshunosligi tarixida alohida o‘rin tutadigan qomusiy olim sifatida nafaqat o‘z davri, balki keyingi asrlar ilmiy taraqqiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning grammatika, lug‘atshunoslik, balog‘at, tafsir va boshqa sohalarga oid asarlari arab tilini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganish imkonini bergan.

Zamaxshariyning “Mufassal fi san’ati-l-i’rob” asari arab grammatikasi bo‘yicha eng mukammal manbalardan biri sifatida e’tirof etilgani aniqlandi. Ushbu asar keyingi davrlarda yozilgan ko‘plab grammatik risolalar uchun asos vazifasini bajargan. Shuningdek, “Unmuzaj fi-n-nahv” asari mazkur fundamental ishning soddalashtirilgan shakli sifatida yaratilib, ta’lim jarayonida keng qo‘llanilgan.

Tadqiqot davomida “Muqaddamatu-l-adab” asarining ham arab tilini o‘rgatishda muhim o‘rin tutishi ma’lum bo‘ldi. Asarning tuzilishi – ismlar, fe’llar, harflar va grammatik qoidalarning

tizimli bayoni – uni madrasalar uchun qulay o‘quv qo‘llanmaga aylantirgan. Bu esa Zamaxshariyning ta’lim metodikasiga ham katta hissa qo‘shganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “al-Kashshof” tafsiri orqali Zamaxshariy Qur’onni filologik va balog‘at nuqtayi nazaridan sharhlashda yangi yondashuvni shakllantirgani aniqlandi. Unda til va ma’no uyg‘unligi, uslubiy tahlil va lug‘aviy izohlar yuqori darajada ifodalangan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Zamaxshariy asarlari nafaqat arab dunyosida, balki ajam xalqlari orasida ham keng tarqalgan va ta’lim tizimida asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qilgan. Uning sodda va tushunarli uslubda yozilgan ayrim asarlari arab tilini ikkinchi til sifatida o‘rganuvchilar uchun ayniqsa muhim bo‘lgan.

Natijada, Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi arab tilshunosligi rivojida fundamental ahamiyatga ega ekanligi, uning asarlari esa hozirgi kunda ham o‘z ilmiy va amaliy qiymatini saqlab kelayotgani asoslandi.

Dunyo sivilizatsiyasini yaratgan Markaziy Osiyo allomalari o‘zining boy ilmiy – ma’naviy merosi bilan ajralib turadi. Ilm-fan sohalarining turli yo‘nalishlarida yozilgan nodir asarlar dunyo mamlakatlariga tarqalgan va hozirga qadar e’zozlanib kelmoqda. O‘zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi ham aynan mana shu bebaho merosni jamlash, tadqiq etish va yetishib kelayotgan yosh avlodni xalqimiz, o‘tmish allomalarimizning azaliy qadriyatlari asosida tarbiyalashga qaratilgan.

Islom sivilizatsiyani yaratgan buyuk allomalar sirasida tilshunos, adabiyotshunos, lug‘atshunos, islomshunos, qomusiy olim Abu-l-Qosim Mahmud ibn Umar bin Ahmad Zamaxshariyning alohida o‘rni bor. U o‘z davrining tafsir, hadis, grammatika, tilshunoslik, lug‘atshunoslik, adabiyot, tarix, jo‘g‘rofiya, pedagogika, mantiq, balog‘at, bayon ilmlarining yetuk olimi sifatida tanilgan.

Mahmud Zamaxshariy hijriy 467-yil rajab oyining yigirma yettinchi (1075-yil 18-mart chorshanba) kuni Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tavallud topgan. Bu qishloq hozirga qadar mavjud bo‘lib, mahalliy aholi uni Izmixshir deb ataydi. Zamaxshariyning otasi o‘z davrining ilmli kishilaridan bo‘lib, Qur’oni karimni yoddan bilgan. Masjidda imomlik qilgan. Onasi ham savodli, oqila, fozila ayollardan bo‘lgan. Zamaxshariy dastlab o‘z otasi Umar bin Ahmad ko‘magida savod chiqaradi. Xorazm va Buxoro madrasalarida tahsil oldi. O‘qishni tugatgach, bir necha yil Xoramzshohlar xizmatida bo‘ladi.

Zamaxshariy bir oyog‘ining nogironligiga qaramay, o‘zga ellarga bir necha bor sayohat qiladi. U dastlab Xuroson va Isfahonga, keyinroq saljuqiylar vaziri Nizomulmulk (1017–1092) huzurida faoliyat yuritadi. Muhammad ibn Anushtegin (1097–1127) asos solgan xorazmshohlar saltanati vujudga kelgunga qadar, Bag‘dod, Hamadon, Makka singari dunyoning turli shaharlariga borib, ularning olimu fuzalolari bilan tanishadi, arab tili grammatikasi va lug‘atini hamda mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o‘rganadi, mintaqa jug‘rofiyasiga oid xilma-xil ma’lumotlarni to‘playdi. Bag‘dodda ko‘pgina olimlar bilan muloqotda bo‘lib, so‘ng Makkaga boradi. Bu yerda “Al-Mufassal fi-n-nahv” asarini yaratadi. Makkada Amir Ibn Vaqqosning yordamidan ilhomlanib, o‘zining Qur’oni karimning tafsiriga bag‘ishlangan “Kashshof” asarini yozib tugatadi. U turli yurtlarga qilgan safarlari vaqtida faqatgina bilim olib qolmay, balki o‘zi ham tolibi ilmlarga adab, nahvu sarf, hadis, tafsirlardan saboq beradi va ko‘plab shogirdlar yetishtiradi.

Xorazmshoh Muhammad ibn Anushtegin (1097–1127) davrida yana Xorazmga qaytib keladi. Uning vafotidan so‘ng o‘g‘li Alouddavla Abulmuzaffar Otsiz ham Zamaxshariyga katta hurmat-

e'tibor bilan qaraydi. Bu davrda yozgan "Muqaddamat al-adab" ("Adab ilmiga kirish") asarini Alouddavla Abu-l-Muzaffar Otsiz sovg'a qiladi.

Uch yil Makkada yashagandan so'ng Zamaxshariy vatani Xorazmga qaytadi va 538-yil zul-hijja (1144-yil iyun) oyida arafa kechasi 69 yoshida Urganch (Jurjoniya)da vafot etadi. Olimning qabri hozirgi Turkmaniston respublikasi, Toshhovuz shahri Ko'ni Urganchdagi maqbarada joylashgan.

Buyuk mutafakkir chuqur bilimi, dahosi bois arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis, fiqh, mantiq, pedagogika, tarix va geografiyaga oid saksondan ortiq asar yaratgan. Ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. O'z davrida olimni "Ustozu-d-dunya" ("Butun dunyoning ustozi"), "Ustozu-l-arab va-l-ajam" ("Arablar va arab bo'lmaganlarning ustozi"), "Jorulloh" ("Allohning qo'shnisi"), "Faxru Xorazm" ("Xorazm faxri") deya ulug'lashgan.

Dunyo olimlari Mahmud Zamaxshariyga bu sharafli nomlarni bejiz bergan emaslar. Jumladan, arab dunyosi Zamaxshariyga bergan "Ustozu-l-arab va-l-ajam" - "Arablar va arab bo'lmagan xalqlarning ustozi" nomi diqqatga sazovor. "Arablar" da "agar shu oqsok turkiy bo'lmaganda arablar ham o'z ona tillarini bilmagan bo'lar edilar" degan naql mavjud.

Alloma arab dunyosini lol qoldirgan "Kashshof an g'avomizi haqoiqi-t-tanzil va uyuni-l-aqovil fi vujuhi-t-ta'vil" – "Qur'ondagi berk haqiqatlarni va uni sharhlash orqali rivoyatlar ko'zlarini ochish", "Mufassal fi san'ati-l-e'rob" – "E'rob san'ati bo'yicha mufassal manba", "Rabi'u-l-abror va nususu-l-axyor" – "Yaxshilar bahori va fozillar xabarlari", "Atvoqu-z-azahab fi-l-mavo'iz va-l-xutab" – "O'git va nasihatlarining oltin shodalari", "Muqaddamatu-l-adab" – "So'z ilmiga kirish" kabi hozirga qadar dunyo manbalar xazinalaridan topilgan qirq sakkiz nomdagi asarlari ahamiyati evaziga "Arablarning ustozi" nomini olgan. Demak, Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining qadri va ahamiyati bois unga arablar tomonidan unga shu sharafli nom berilgan.

Ma'lumki, arablar nazdida dunyo xalqlari "arablar" va "arab bo'lmaganlar – ajamlar" ga bo'lingan. Zamaxshariyning "ajamlarga ustozlik" qilishi haqida mulohaza ham o'ziga xos. Vaholanki, Mahmud Zamaxshariyning tili og'ir, mukammal grammatik qoidalarga suyangan holda yozilgan asarlarni madrasalarga o'qitish juda mushkul bo'lgan. Shu sababli ham xorazmshohlardan Alouddavla Abulmuzaffar Otsizning iltimosiga ko'ra Zamaxshariy arab tilini o'rganuvchi toliblar uchun qisqa, matni sodda risolalar yoza boshlaydi. Jumladan, "Mufassal fi san'ati-l-e'rob" asarini qisqartirib "Unmuzaj-fi-n-nahv" risolasini yozadi. Unda arab tili grammatikasining asosiy mazmun - mohiyati sodda til va tushunarli usulda bayon etib berilgan. Davr talabidan yuzaga kelgan bu holat ta'lim tizimida keng tarqalgan va unga tilshunos olimlar tomonidan ko'plab sharhlar yozilgan. Mahmud Zamaxshariy "Unmuzaj fi-n-nahv" risolasi grammatik materialning sodda va tushunarliligi, keng kitoblar uchun oson o'rganilish uslubida ekanligi, grammatik qoidalarning ko'plab misollar bilan to'ldirilganligi boshqa grammatik asarlardan farqlanib turgan. Asarning ta'lim tizimida arab tilini o'qitish uchun qulayligi uning turli davrlarda va hududlarda ko'plab qo'lyozmalar shaklida ko'chirilganligini ko'rsatadi. "Unmuzaj fi-n-nahv" asarining har tomonlama ta'lim tizimiga mosligi nafaqat Markaziy Osiyoda balki yondosh hududdagi mamlakatlar madrasalarida arab tilin o'rgatish bo'yicha asosiy qo'llanma sifatida shuhrat topishiga turtki bo'lgan.

Shuningdek, Mahmud Zamaxshariy o'zining mashhur "Muqaddamatu-l-adab" asarini ham xorazmshoh Abulmuzaffar Otsizning talabiga muvofiq yaratgan. Bu manba o'ziga xos tuzilishga ega. U ko'pchilik olimlar tomonidan lug'at deb izohlanadi. Filologik merosimizning nodir

namunasi sifatida bu manba besh qismdan iborat bo‘lgan. Asar qisqa kirish, ismlar, fe’llar, harflar, ismlarning turlanishi va fe’llarning tuslanishi qismlarini o‘z ichiga olgan. Asar nusxalarini o‘rganish uning dunyo fondlarida to‘liq besh qismi kiritilgan qo‘lyozmalari, shuningdek, faqatgina lug‘at qismlaridan tuzilgan qo‘lyozmalar mavjudligi aniqlandi. Eng e’tiborli jihati shundaki, asarning grammatik risolalar tarzida yozilgan qismlari madrasalar uchun mo‘ljallangan nahv, sarf majmualari tarkibiga kiritilgan va ko‘plab qo‘lyozma nusxalarda ko‘chirilgan.

Markaziy Osiyo va unga yondosh hududlarda XI- XII asrlardan boshlab mahalliy aholi sanalgan ajamlarga arab tilini o‘rgatish maqsadida tilshunos olimlar tomonidan sodda grammatik qo‘llanma asarlar yaratila boshlangan. Natijada asosiy ta’lim tizimi hisoblangan madrasalarga mo‘ljallangan grammatik to‘plamlar shakllana boshlaganligini ko‘rish mumkin. Grammatik majmualarga Ibn Hojibning “Kofiya fi-n-nahv”, Abdulqohir Jurjoniyning "Miyat omil", Zinjoniyning “Tasrifu-l-af’ol” kabi o‘nga yaqin risolalar kiritilgan.

Mazkur majmualar tarkibiga “Muqaddamatu-l-adab” matnidagi grammatik qismlar ham alohida mustaqil asar sifatida kiritilganligi muhim faxrli holat hisoblanadi. Jumladan, “Muqaddamatu-l-adab”ning uchinchi qismi harflar – yordamchi so‘zlarga bag‘ishlangan. Unda sof arab tili grammatikasi, arab adabiy tilidagi yuklama, bog‘lovchi, ko‘makchilar haqida ma’lumot beriladi. Asarning bu qismi o‘ziga xos mukammallikda yaratilgan. U harflar oid grammatik materiallar sakkiz faslda bayon etilgan mustaqil asar sifatida grammatik majmualar tarkibiga kiritilgan.

Mahmud Zamaxshariy grammatik merosiga mansub bo‘lgan to‘rtinchi qism arab adabiy tilida ismlarning turlanishiga bag‘ishlangan. Unda gapda turli grammatik holatlar ta’siri ostida ismlarda yuz beradigan harakatlardagi o‘zgarishlar izohlanadi. Ular arab tilidagi bosh kelishik (الرفع – *ar-raf’u*), qaratqich kelishigi (الجر – *al-jarru*), tushum kelishigi (النصب – *an-nasbu*) holatlarida namoyon bo‘ladi. Ismlarning turlanishiga bag‘ishlangan qism 31 ta fasldan iborat.

“Muqaddamatu-l-adab”ning beshinchi qismi arab tili grammatikasining eng muhim mavzusi – fe’llarning tuslanishiga bag‘ishlangan. Arab tilidagi fe’l so‘z turkumi, fe’llarning tuslanishi arab tili grammatikasining asosini tashkil etadi. Mazkur qism asar qo‘lyozmalarida turlicha nomlangan. “Muqaddamatu-l-adab” ning O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondidagi qo‘lyozmasida bu qism القسم فى تصريف الافعال – *al-qismu fi tasri:fi-l-af’a:li*, Rossiya FA Sharqshunoslik instituti fondidagi S 291 raqamli qo‘lyozmada القسم فى تصرف الأفعال – *al-qismu fi tasarrufi-l-af’a:li* deb ko‘rsatilgan. Arab tili grammatikasiga muvofiq har ikkala تصريف – *tasri:fun* va تصرف – *tasarrufun* so‘zlari “turlanish, tuslanish” ma’nolarini anglatadi.

Qismning boshlanishida an’anaviy arab tilshunoslari tomonidan qabul qilingan o‘zak sistemasi haqida fikr yuritiladi. Unga ko‘ra, so‘z o‘zagi uch harf ف – *fa:*, ع – *ayn*, ل – *la:m* harflari bilan belgilanadi. Kirish qismida fe’llarning birinchi bobdan o‘ninchi bobgacha bo‘lgan qoliplari, turli shakldagi fe’llarning qaysi bobga mansub ekanligini aniqlash haqida ma’lumot beriladi.

Xulosa. Buyuk tilshunos Mahmud Zamaxshariyning grammatik majmualar tarkibiga kirtilmagan “al-Mufrad va-l-muallaf” – “So‘z va so‘z birikmasi” , “al-Mufid fi-t-tasrif”- “Fe’llarning tuslanishiga oid foydali manba”, “al-Mufrad va-l-murakkab fi-l-lug‘ati-l-arabiya” – “Arab tilida birlik va ko‘plik” kabi ko‘plab risolalari ham davrimizga qadar yetib kelgan olimning kam o‘rganilgan asarlaridan sanaladi.

Demak, Mahmud Zamaxshariy dunyo olimlari e’tirof etgan arab tiliga oid mukammal fundamental asarlar yaratgan. Olimdagi arab tiliga bo‘lgan cheksiz muhabbat va iqtidor u tomonidan arablar tan oladigan daraja va saviyadagi o‘z nomi bilan “Mufassal” asarlarning yozilishiga xizmat qildi. “Ustozu-d-dunyo”- “Dunyo xalqlarining ustozi”, “Ustozu-l-arab va-l-

ajam”- “Arablar va arab bo‘lmagan xalqlarning ustozi” nomlari Mahmud Zamaxshariy tomonidan arab bo‘lmagan boshqa xalqlar ya’ni, “ajam”lar uchun ham arab tilini mukammal o‘rganishlariga bag‘ishlangan sodda, noyob asarlar yaratilganligini ishora qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bunyatov, Z.M. (1986). *The state of Khorezmshahs-Anushteginids (1097–1231)*. – Moscow: Nauka. – 248 p. (in Russian)
2. Grande, B.M. (2001). *A course of Arabic grammar in a comparative-historical perspective*. Moscow: Vostochnaya literatura RAN. – 592 p. (in Russian)
3. Islomov, Z. (2002). *Muqaddimat al-adab (source study analysis)*. – Tashkent. (in Uzbek)
4. Islomov, Z. (2020). *Muqaddimat al-adab: grammatical treatises*. – Tashkent. (in Uzbek)
5. Islomov, Z. (2023). *Scientific heritage of Mahmud Zamakhshari*. – Tashkent. (in Uzbek)
6. Oqilov, M. (1982). *Qamus al-A‘lam* (1314 AH), Vol. 17, pp. 21–24. (in Arabic)
7. Rustamov, A. (1971). Studies on Zamakhshari’s works (pp. 10–12) (in Uzbek)
8. Zamakhshari, A.Q.J.M.U. (2000). *Al-Kashshaf* (Vol. 1). – Cairo: Maktabat Misr. (in Arabic)
9. Zamakhshari, M. (1989). *Qustas al-mustaqim fi ‘ilm al-‘arud*. – Beirut. (in Arabic)
10. Zamakhshari, M. (1998). *Asas al-balaghah*. – Beirut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya. (in Arabic)
11. Zamakhshari, M. (1999). *Unmuzaj fi al-nahw*. (in Arabic)
12. Zamakhshari, M. (2004). *Al-Fa’iq fi gharib al-hadith*. (in Arabic)
13. Zamakhshari, M. (2004). *Al-Mufassal fi san‘at al-i‘rab*. – Amman: Jordan. (in Arabic)

CHEKLOV, HOL VA MUTLAQ MASDARNING SINTAKSISDAGI FARQLI VA UMUMIY JIHATLARI

BUZAHRO BEGMATOVA

Dotsent, yuridik fanlar nomzodi, TDSHU

Annotatsiya: *Arab tili grammatikasida mavzularning yoritilishi, tizimga solinishi ham boshqa tillar grammatikasidan katta farq qiladi, ya’ni unda cheklov, maf’uli mutloq (o‘z-o‘zini to‘ldiruvchi), maf’ul ma’ahu (birgalik to‘ldiruvchisi) va boshqa shu kabi faqat arab tiligagina xos bo‘lgan grammatik kategoriyalarning mavjudligi hamda sintaksis va morfologiyani alohida ajratmasdan, yonma-yon bayon qilinishi bu tilning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Chunki, arab tili grammatikasida bu ikki bo‘lim alohida yoritilmaydi. Shuningdek, arab tilida gapning “ikkinchi darajali bo‘laklari”, degan tushuncha ham yo‘q, ular “qo‘shilmalar” hisoblanib, faqat jumlani kengaytirishga xizmat qiladi. Mana shunday qo‘shilmalar sirasiga cheklov, mutloq masdar, hol va uning turlari ham kirib, ular tushum kelishigi mavzuida o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *tamyiz, masdari mutloq, zarf, al-hal, e’rob, fo’il, fe’l, raf’, nasb, jarr, sintaksis, morfologiya, murakkabat.*

Abstract. *In Arabic grammar, the presentation and systematization of topics significantly differ from those of other languages. This is due to the presence of grammatical categories unique to*

Arabic, such as restriction (tamyeez), the absolute object (al-mafʻul al-mutlaq), the comitative object (al-mafʻul maʻahu), and others. Moreover, syntax and morphology are not treated as entirely separate domains but are discussed in close interrelation, which reflects the distinctive nature of the language.

In Arabic grammatical tradition, these two branches are not strictly divided. Additionally, the concept of "secondary parts of the sentence" does not formally exist; instead, such elements are considered complementary components that primarily serve to expand the structure of the sentence. Among these components are restriction, the absolute masdar, the circumstantial adverbial (ḥāl), and its various types, all of which are studied within the framework of the accusative case.

Key words: *tamyeez, absolute masdar (al-mafʻul al-mutlaq), adverbial modifier (ẓarf), al-ḥāl, iʻrāb, subject (fāʻil), verb (fiʻl), nominative (rafʻ), accusative (naṣb), genitive (jarr), syntax, morphology, constructions (murakkabāt).*

Аннотация: *В арабской грамматике освещение и систематизация тем существенно отличаются от грамматик других языков. Это проявляется, в частности, в наличии специфических грамматических категорий, присущих исключительно арабскому языку, таких как ограничение (тамйиз), абсолютный масдар (маф ʿул мутлак), маф ʿул ма ʿаху (совместное дополнение) и др., а также в том, что синтаксис и морфология не разграничиваются строго, а излагаются параллельно. Поскольку в арабской грамматике эти два раздела не рассматриваются изолированно, это придаёт ей особую специфику.*

Кроме того, в арабском языке отсутствует понятие «второстепенных членов предложения»; они рассматриваются как «добавочные элементы», выполняющие функцию расширения высказывания. К числу таких элементов относятся тамйиз, абсолютный масдар, обстоятельство (халь) и его разновидности, которые изучаются в рамках категории винительного падежа.

Ключевые слова: *тамйиз, масдар мутлак, зарф, аль-халь, иʿраб, фа ʿиль, глагол, раф ʿ, насб, джарр, синтаксис, морфология, сложные конструкции.*

Kirish. Arab tilida aksariyat hollarda gapning bosh bo‘laklari bosh kelishikda turadi. Old ko‘makchilardan keyin kelayotgan so‘z hamda qaratqichli aniqlovchi, ya’ni izofaning muzof ilayhisi esa qaratqich kelishigida bo‘ladi. Demak, qaratqich kelishigi arab tilida faqatgina ikki o‘rinda qo‘lllaniladi. Tushum kelishigi haqida ma’lumot beradigan bo‘lsak, u arab tilidagi eng selmahsul kelishik bo‘lib, unga arab tilshunos olimlari, bosh va qaratqich kelishiklari ishlatilmaydigan barcha holatlarda tushum kelishigi qo‘llaniladi, deya ta’rif beradilar.

Tadqiqotimizning asosiy obyekti bo‘lgan cheklov, hol va mutlaq masdar ham arab tili sintaksisida tushum kelishigi yordamida ifodalanadigan gap bo‘laklaridir.

Ona tilimiz - o‘zbek tili nuqtai-nazaridan qaraydigan bo‘lsak, gap bo‘laklari deganda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarni tushunamiz. Bosh bo‘laklar ega va kesimdan, ikkinchi darajali bo‘laklar esa aniqlovchi, to‘ldiruvchi va holdan iborat. Ko‘rib turganimizdek, ona tilimizda cheklov, mutlaq masdar kabi gap bo‘laklari yo‘q. Demak, biz arab tilidagi cheklov, mutlaq masdar, holning sintaksisdagi farqli va o‘xshash jihatlari haqida ma’lumot berishdan avval, arab tilida gap bo‘laklari, ularning turi va jumladagi o‘rni haqida ma’lumot berishimiz zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab tili grammatikasida gapning ikkinchi darajali bo‘laklari hisoblanuvchi chyeklov, hol va mutlaq masdarga oid ma’lumotlar arab, o‘zbek va rus

arabshunoslarining asarlarida uchrasada, ularning ba'zilarida bu bo‘laklar umumiy tarzda, ba'zilarida to‘liq yoritilganini ko‘rishimiz mumkin.

Cheklov, hol va mutlaq masdar arab tilshunoslari Ibn Hishom, Mustafo G‘alayiniy asarlarida, Sayyid Sharif Jurjoniyning Samarqandlik ilmi toliblarga maxsus yozilgan “Nahvi Mir” asarida keng yoritib o‘tilgan. Shuningdek, mavzu o‘zbek va rus arabshunoslari tomonidan ham o‘rganilgan bo‘lib, jumladan, N.Ibrohimov va M.Yusupov, S.Qosimova, B.M.Grande kabi olimlar o‘z asarlarida bu mavzuning ayrim jihatlarini lingvistik tadqiq qilganlar.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy va komponentli tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va tadqiqot natijalari. Arab tilida gapning asosiy tarkibi, ya'ni sintaktik birlikning strukturasi fe'liy va ismiy bo‘lishiga ko‘ra jumla ikki xil bo‘ladi: ismiy va fe'liy. Ismiy jumlaning kesimi xabar, egasi mubtado, deb atalsa, fe'liy jumlaning kesimi fe'l, egasi esa fo'il, yuritiladi. Fe'liy jumladagi ikkinchi darajali bo‘laklar fe'lga tobe bo‘lgan “qo‘shilmalar” hisoblanib, ular jumlani faqat kengaytiradi, qo‘shma gap hosil qilmaydi. Fe'liy jumladagi “qo‘shilmalar”ga maf'ul bihi, maf'ul mutlaq, maf'ul fihi, maf'ul lahu, maf'ul ma'ahu, tamyiz, al-hol va boshqa shu kabi gap bo‘laklari kirib, ularning aksariyati tushum kelishigida turadi. (Qosimova, 2014, p. 114).

So‘zlarni kelishikda turlanishi, fe'llarning zamonlarda tuslanishi va mayllarda o‘zgarishi arab tilida “e'rob” deb nomlanib, nasb holatida e'roblanish, deganda o‘zbek tilidagi tushum kelishigi va fe'lning istak mayli tushuniladi. Ismlarning nasb holati o‘zbek tilidagi tushum kelishigiga to‘g‘ri kelsa, fe'llarning nasb holati istak mayliga to‘g‘ri keladi. O‘zbek tili grammatikasida to‘ldiruvchi tushum kelishigida ifodalanadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘zbek yoki rus arabshunoslari arab tilida tushum kelishigida ifodalangan gap bo‘laklarini to‘ldiruvchi, deb tarjima qiladilar. Bu bizningcha unchalik ham to‘g‘ri emas. Chunki, ularning hammasi ham o‘zbek yoki rus tilidagi to‘ldiruvchiga mos kelavermaydi. Buni quyida batafsil yoritishga harakat qilamiz.

Arab tilida ismlarning nasb holati sintaksisning o‘n bitta o‘rnida keladi. Tushum kelishigi haqida B.M.Grande quyidagicha ma'lumot beradi: “Tushum kelishigi ismning fe'lga tobeligini ifodalaydi. Bu tobelik turlicha, ya'ni vositasiz to‘ldiruvchidan tortib, ish-harakatni aniqlaydigan, cheklaydigan va rivojlantiradigan turlargacha bo‘lishi mumkin. Bu to‘ldiruvchilar nasb holatida turadi va fe'lga tavsif beradi. Bunday tavsiflar hind-yevropa tillarida, masalan, ravish yoki holatni bildiruvchi so‘zlar yordamida ifodalanadi. Bu kelishikni keng ma'noda “fe'l” yoki “ravish” kelishigi deb atash to‘g‘riroq bo‘lar edi. Bunda “ravish” kelishigi tushunchasi bilan birga obyekt kelishigi ham tushunilishi kerak”. (Grande, 1998, p. 328).

B.M. Grande ning “Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osveщeniye” asarida ham nasb holati, ya'ni tushum kelishigida keladigan ismlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi. (Grande, 1998, pp. 339-343).

1.Mutloq to‘ldiruvchi	**المفعول المطلق**
2.Vositasiz to‘ldiruvchi	**المفعول به**
3.Payt va o‘rinni ifodalovchi tushum kelishigi	**المفعول فيه**
4. Sabab va maqsadni ifodalovchi tushum kelishigi	**المفعول لأجله (له)**
5. Birgalikni ifodalovchi to‘ldiruvchi	**المفعول معه**
6. Harakat turini ifodalovchi tushum kelishigi (hol)	**الحال**
7. “Bo‘lmoq” va “aylanmoq” fe'llari yordamida kelgan tushum kelishigidagi kesimlar.	**كان و أخواتها**
8. Cheklashni ifodalovchi tushum kelishigi	**التمييز**
9. إنَّ va shunga o‘xshash yuklamalardan keyin kelgan nasb	**إن و أخواتها**

holatidagi ismlar	
10. Inkor yuklamalaridan keyin kelgan tushum kelishigidagi ismlar	**نفى الجنس**
11. Tushum kelishigida kelib turli holatlarni ifodalab kelgan ismlar, ya'ni: a) ajablanishni ifodalovchi fe'llardan keyin kelgan ismlar. b) istisnolikni ifodalovchi ismlar v) murojaatda ishlatiladigan ismlar	**المنادى**

Ko'rib turganimizdek, arab, o'zbek va rus tilshunoslarining ismlarning nasb holati haqidagi fikrlari bir-biridan farq qilmaydi. Arab tilshunosi Fuad Ne'mat ismlar 11 holatda nasb holatda turishini aytib o'tgan bo'lsa, o'rta asrlar mashhur tilshunosi Mahmud Zamaxshariy boshqalardan farqliroq, nasb holatidagi ismlarni **أَصْلٌ** – "Asl nasb holatdagi ismlar" va **مُلْحَقٌ بِهِ** "Asliga o'xshash nasb holatidagi ismlar"ga bo'lib o'rgangan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek cheklov, mutlaq masdar va holning har uchchalasi ham tushum kelishigida turadi masalan:

Mahmud chiroyli yuzlidir – **محمود حسن وجهًا**

(so'zma-so'z: Mahmud yuzi jihatdan yaxshidir).

محمود حسن خلقًا - Mahmud yaxshi xulqlidir.

(so'zma-so'z: Mahmud xulq jihatdan yaxshidir).

Bu misollarda arab tilidagi gap bo'laklardan biri cheklov ifodalangan bo'lib, cheklov vazifasini noaniq holatda, tushum kelishigida turuvchi ot bajaradi. Shuning uchun ham yuqoridagi jumlalarda **وجهً** va **خلقً** so'zlari birinchi jumlada **وجهًا** , ikkinchi jumlada **خلقًا** tarzida noaniq holatda tushum kelishigida, ifodalanib, cheklov vazifasida kelgan. Cheklov bo'lib kelgan so'z gapning kesimi ifodalagan ma'noning obyektini yanada konkretlashtirib, aniqlab, chegaralab keladi.

Mustafo G'alayiniy cheklov (cheklash)ni shunday bayon qilgan: "Cheklash-butun bir gapdagi mavhumlikni yo'qotadi (ya'ni, gapning ma'nosini konkretlashtirish, cheklash uchun xizmat qiladi) va tushum kelishigida bo'ladi". (Sheikh Al-Ghalayni, 2007, p. 88).

Ibn Hishomning "Qatrun-nado va ballus-sado" asarida mavzu yuzasidan quyidagi fikrlar keltirilgan: "Cheklov u: ism, ikkinchi darajali bo'lak, noaniq holatdagi so'z, o'zgarmas so'z, noaniqlikni aniqlashtiruvchi so'zdir". (Ibn Hisham, 1995, p. 24).

ضرّبه ضربًا - U uni qattiq urdi, **سارسيرًا** - U rosa yurdi. Bu misollarda esa gap bo'laklaridan yana biri mutlaq masdar kelgan bo'lib, ular **ضربًا** va **سيرًا** so'zlaridir. Mutlaq masdar ham cheklov kabi noaniq holatda, tushum kelishigida turadi va u ham gapning kesimi ma'nosini yana ham kuchaytirish va ta'kidlashga yordam beradi.

Mustafo G'alayiniyning aytishicha, المَفْعُولُ المُطْلَقُ إسْمٌ مَنْصُوبٌ مِنْ لَفْظِ الفِعْلِ(مصدر) يَذْكُرُ مَعَهُ لِتَأكِيدِهِ او لِبَيَانِ نَوْعِهِ او عَدَدِهِ. "Maf'ul mutlaq-fe'ldan yasalgan nasb holatidagi (masdar) ismdir va u fe'lni ta'kidlash, uning turini yoki sonini bildirish ma'nolarini ifodalaydi". (Sheikh Al-Ghalayni, 2007, p. 27).

Arab tili grammatikasida yana bir bo'lak, hol ham cheklov, mutlaq masdar kabi noaniq holatda, tushum kelishigida turadi. Hol bir necha turga bo'linib, ish-harakatning bajarilish o'rni, payti, sababi, maqsadi kabi turli munosabatlarni ifodalaydi. (Grande, 1998, p. 341). Masalan:

1. **قمت اكرامًا له** - Men unga hurmat yuzasidan turdim. Bu jumlada اكرامًا so'zi sabab holi bo'lganligi bois noaniq holatda, tushum kelishigida turibdi.

2. **حفظ محمد الكتاب رغبةً فى التقديم** - Muhammad kitobni bilimini kuchaytirish maqsadida yod oldi. Ushbu misoldagi **رغبة**-so‘zi nasb holatida bo‘lib, maqsad holini anglatadi.

3. **أقرأُ كتبا عربية دائما** – Men doim arabcha kitoblarni o‘qiyman. Ko‘rib turganimizdek jumlada **“دائما”** so‘zi payt holi vazifasida kelgan.

4. **مشى الطالب يمينا و يسارا** - Talaba o‘ngu chapga tomon yurdi.

5. **كتبنا هذه الجملة مرّتين** – Bu jumlani ikki marta yozdik.

6. **قرأ الطلاب هذا النصَ جملة، جملة** – Talabalar matnni jumla-jumla qilib o‘qidilar.

Qolgan uchta jumlalarda ham **يمينا ويسارا** va **مرّتين، جملة، جملة** kabi so‘zlarimiz o‘rin, miqdor va holat holi bo‘lganligi sababli tushum kelishigida, noaniq holatda ifodalangan. Ona tilidmizdagi holat (ravish) holi holi arab tilida “**الْحَالُ**” deb nomlanadi va unga mashhur tilshunos olim Sayyid Sharif Jurjoniy quyidagicha ta’rif bergan:

وَالْحَالُ: اِسْمٌ نَكِرَةٌ، يَدُلُّ عَلَى هَيْئَةِ الْفَاعِلِ، مِثْلُ: “رَاكِبًا” فِي: “جَاءَ زَيْدٌ رَاكِبًا”؛ أَوِ الْمَفْعُولِ مِثْلُ: “مَشْدُوْدًا”، فِي: “ضَرَبْتُ زَيْدًا مَشْدُوْدًا”؛ أَوْ كِلَيْهِمَا، مِثْلُ: “رَاكِبَيْنِ” فِي “لَقِيْتُ زَيْدًا رَاكِبَيْنِ”.

وَيُسَمَّى الْفَاعِلُ وَالْمَفْعُولُ ذَا الْحَالِ، وَيَكُونُ مَعْرِفَةً غَالِبًا، وَإِنْ كَانَ ذُو الْحَالِ نَكِرَةً، يُقَدَّمُ الْحَالُ عَلَيْهِ، مِثْلُ: “جَاءَنِيْ رَاكِبًا رَجُلٌ”، وَقَدْ يَكُونُ الْحَالُ جُمْلَةً، مِثْلُ: “رَأَيْتُ الْأَمِيْرَ وَهُوَ رَاكِبٌ”.

Hol foil (fe’liy jumla egasi)ning yoki vositasiz to‘ldiruvchining yoki har ikkisining holatiga ishora qiluvchi noaniq holatdagi ismdir. جَاءَ زَيْدٌ رَاكِبًا - Zayd (ulov) mingan holatda keldi, misolidagi رَاكِبًا so‘zi eganing holatiga ishora qilayotgan bo‘lsa, ضَرَبْتُ زَيْدًا مَشْدُوْدًا - Zaydni bog‘langan holida urdim misolidagi مَشْدُوْدًا vositasiz to‘ldiruvchining holatidir. (Sayyed Sharif Djurjaniy, 1997, p.48).

Payt holi va mutlaq masdarning yana bir o‘zaro o‘xshash tarafi, bu har ikkala bo‘lak izofali birikmalardan ham shakllanishi va bunda ularning muzoflari tushum kelishigida bo‘lishidir. Masalan: Dars paytida ko‘pgina arabcha jumlalarni daftarimizga yozamiz. – **نكتب وقتَ الدرس كثيرا من الجمل العربية الى دفترنا**

U qo‘rqoqlardek qo‘rqdi – **خاف خوفَ الجبان**

Yuqorida cheklov, mutlaq masdar va holning sintaksisdagi o‘xshash jihatlari ko‘rsatib o‘tildi. Endi ularning farqli tomonlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Cheklov odatda gapning egasi va kesimidan keyin yoki gapning so‘nggida noaniq holatda nasb holatida keladi va uning vazifasida ot so‘z turkumidagi so‘zlar keladi. Bunda gapning kesimi ot kesim yoki fe’l kesim bo‘lib kelishi mumkin. Cheklov gapning ega-kesimi bilan jinsda va sonda moslashmaydi. (Ibragimov, N., Yusupov, M. 2009, p. 254). Masalan:

Mahmud chiroyli yuzlidir – **محمود حسن وجهًا**

Fotima go‘zal yuzli – **فاطمة حسنة وجها**

Ot qaro terga botdi - **تصبّب الفرس عرقا**

Cheklov ko‘pincha gapning kesimi qiyosiy yoki orttirma darajadagi sifatdan iborat bo‘lganida ishlatiladi. (Ibragimov, Yusupov, 2009, p. 255). Masalan:

U mendan yoshroq – **هو أصغر منى سنًّا**

Mutlaq masdar esa cheklovdan farqli ravishda faqat fe’liy jumlalarda ishlatiladi, ismiy gaplarda kelmaydi. Chunki, gap tarkibidagi fe’l-kesim o‘zagidan hosil bo‘lgan masdargina mutlaq masdar vazifasida ishlatiladi. Masalan:

Dehqon paxtani yig‘adi - **يجمع الفلاح القطن جمعًا**

Mutlaq masdarning cheklovdan yana bir farqli tarafi shundaki, u o‘ziga moslashgan aniqlovchi olib kelishi mumkin. Cheklov esa bundan mustasno. Masalan:

انتصرنا انتصرا كبيرًا. - Biz katta muvaffaqiyat qozondik.

Ba'zan mutlaq masdar o'zining moslashmagan aniqlovchisi bilan ham kelishi mumkin. Masalan:

U qo'rqoqlardek qo'rqdi – **خاف خوفَ الجبان**

Endi hol va uning turlarini cheklov va mutlaq masdar bilan sintaksisdagi farqli tarafiga to'xtalib o'tsak.

Ma'lumki, payt va o'rin holi arab tilida maf'ul fihi deb nomlanib, noaniq holatda tushum kelishigida kelgan otlardan shakllanadi. Bu tarafi bilan u cheklov va mutlaq masdarga o'xshaydi, ammo payt va o'rin hollari gapning bu ikki bo'laklaridan farqli ravishda biror predlog yordamida qaratqich kelishigida kelgan aniq holatdagi otlardan ham shakllanishi mumkin. Masalan: Do'stlar bilan qiroatxonada kechgacha o'tirdik – **جلسنا مع الاصدقاء فى قاعة المطالعة حتى المساء**

Bu jumlada ham o'rin, ham payt holi mavjud. "qiroatxonada" so'zi o'rin holi bo'lib, ko'rib turganimizdek "fi" predlogi yordamida qaratqich kelishigida kelgan aniq holatdagi otdan shakllangan bo'lsa, "kechgacha" so'zi payt holidir. U ham "hatta" predlogi yordamida o'zidan keyingi qaratqich kelishigidagi aniq holatdagi ot bilan payt holini ifodalayapti.

Ba'zan esa o'rin-payt holi tushum kelishigida, aniq holatda bo'lishi ham mumkin. (Ibragimov, Yusupov, 2009, p. 222).

Masalan: Bu yil biz ko'p qishloqlarga bordik. – **زرنا هذه السنَةَ كثيرا من القرى**

Yo'lbars o'rmonlar tomon iltijo bilan o'kirdi, lekin ular uzoqda edi - **ونادى النمر الغابات بضراعة، ولكنها كانت نائية.**

Yuqorida aytib o'tganimizdek, birinchi jumlada **"هذه السنة"** payt holi, ikkinchi jumlada **الغابات** – o'rmonlar tomon so'zi o'rin holi vazifasida kelgan va old ko'makchilarsiz so'zni tushum kelishigiga qo'yish bilan ifodalangan.

Shuningdek, payt holi cheklov va mutlaq masdardan farqli ravishda ushbu holni ifodalovchi aniq holatda, tushum kelishigida keladigan **اليوم، الان، البرخة** kabi maxsus so'zlarga ega. Yana shunday so'zlar borki, ular umumiy qoidaga xilof ravishda bosh kelishikda kelgani holda payt holini ifadalaydi. Masalan: Poyezd hali kelmadi. – **ما وصل القطار بعدُ**

Bu aktyorni men ilgaridan bilaman – **اعرف هذا الممثل من قبلُ**

Daraja-miqdor, maqsad va sabab hollarining shakllanishi cheklov va mutlaq masdardan farq qilmaydi, shu sabab holning bu turlariga to'xtalmaymiz va holat holining tahliliga o'tamiz.

Holning bu turi ona tilimizga "holat yoki ravish holi" deya ikki xil tarjima qilinadi va u ham cheklov, mutlaq masdar kabi asosan noaniq holatda, tushum kelishigida ifodalanadi, ammo shu bilan birga ulardan farqli jihatlarga ham ega. Ba'zan holat (ravish) holi aniq nisbat sifatdoshidan shakllanishi mumkin va bunda sifatdosh ish-harakatning subyekti bilan jinsda va sonda moslashishi kerak. (Grande, 1998, p. 341). Masalan:

Talaba uyidan kulib chiqdi. – **خرج الطالب من بيته ضاحكا**

Talaba qiz uyidan kulib chiqdi. – **خرجت الطالبة من بيتها ضاخكة**

Cheklov va mutlaq masdarlar esa o'zi aniqlab, konkretlashtirib kelayotgan bo'laklar bilan na sonda, na jinsda moslashadi.

Shuningdek, holat (ravish) holi goho subyektning emas, balki obyektning holatini bildirishi ham mumkin va bunda, tabiiyki, hol obyekt bilan sonda va jinsda moslashadi.(Ibragimov, Yusupov, 2009, p. 318). Masalan: Men boqqa yashnab turgan holatida kirdim. – **دخلت البستان مزهرا**

Men boqqa yashnab turgan holatida kirdim. – **دخلت الحديقة مزهرة**

Xulosa. Keltirilgan ma'lumotlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, cheklov, hol va mutlaq masdarlarning sintaksisda o'xshash va ba'zi farqli jihatlari mavjud. O'xshash tomonlari bu bo'laklarning barchasi o'zi ishtirok etayotgan gapning kesimini yanada aniqlab, konkretlashtirib, cheklab, uni ma'nosini kuchaytirib, ish-harakatning bajarilish payti, o'rni, sababi, maqsadi, darajasi hamda holatini ifodalaydi, shuningdek ularning barchasi ko'pincha tushum kelishigidagi noaniq holatdagi ot va otlashgan so'zlardan shakllanadi. Shu bilan birga gapning bu bo'laklari o'zaro farqli jihatlarga ham ega. Masalan, mutlaq masdar o'zi ishtirok etayotgan gapning fe'l-kesimi yoki shu fe'lning sinonimi o'zagidan hosil bo'lgan, noaniq holatda tushum kelishigida turgan masdar bilan shakllansa, cheklov noaniq holatda tushum kelishida turgan ot so'z turkumidagi so'zlar yordamida yasaladi. Bu ikki bo'lakdan farqli ravishda payt va o'rin hollari ba'zida predloglar bilan qaratqich kelishigida turishi mumkin. Holat (ravish) holi esa yuqoridagilarning barchasidan farqli ravishda ish-harakatning subyekti bilan jinsda va sonda moslashadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begmatova B.M., Mutalova G.S., Kasimova S.S. (2023). The direct object and its use in arabic language. Boletin De Literatura Oral - The Literary Journal, Vol. 10 No. 1 (2023). (Scopus Q3). PP. 3601-3609. https://www.scopus.com/sourceid/21100810884.
2. Begmatova. B.M., Kasimova S.S. (2022). Study of the problem of predicativity and attribution in languistics. Central European Management Journal Vol. 30 Iss.3. PP.2242-2247. https://mjl.clarivate.com/search-results.
3. Begmatova B.M., Mutalova G., S.Korayem, Sh.Shamusarov, N.Saidova, (2024). Calling for the Use of Intermediate Language in Teaching Arabic to Non-Native Speakers, Its Foundations and Problems / Power System Texnology Journal, Том 48, № 4 (Scopus Q1) PP. 2221-2236. ISSN: 1000-3673. https://powertechjournal.com/index.php/journal/issue/view/28
4. Grande, B.M. (1998). Course of Arabic grammar in comparative-historical light. *Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii.* – Moscow: RAN. – 592 p. (in Russian)
5. Ibragimov, N., Yusupov, M. (2009). Arabic grammar. *Arab tili grammatikasi.* – Namangan: Ibrat. – 563 p. (in Uzbek).
6. Ibn Hisham al-Ansari. (1995). Qatr al-Nada wa Ball al-Sada (Dewdrops and the Quenching of Thirst). Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyyah. – 657 p. (in Arabic).
7. Sayyed Sharif Djurjaniy. (1997). Nahvi Mir. *Nahvi Mir.* – Karachi: Pakistan. – 78 p. (in Arabic).
8. Sheikh Al-Ghalayni, M. (2007). Collection of Arabic Lessons. *Ash-Shayx al-G'alayiyniy, Mustafa. Jami' ad-durus al-arabiyya.* – al-Qahira: Dar al-g'ad al-jadid. – 590 p. (in Arabic).
9. Qosimiva, S. (2014). "Muqaddima" by Hamiduddin Dariri: text and research. *Hamiduddin Daririyning "Muqaddima" asari: matn va tadqiq.* – Tashkent: Uzbekistan. – 151 p. (in Uzbek).

HAKIM TERMIZIY VA ISHORIY GRAMMATIKA KONSEPSIYASI

IBROHIM USMONOV
Dotsent, tarix fanlari nomzodi, ***O‘zRFA, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti***

Annotatsiya. *“Ishoriy nahv” tushunchasi tasavvufiy matnlarning mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan va tasavvufiy mazmunga parallel namuna sifatida qo‘llanilgan grammatikadir. Ishoriy nahv bo‘yicha yozilgan ilk asarlar Hakim Termiziy (vaf. 932-y.) qalamiga mansub. Uning “an-Nahv fi ilm al-bad’” asari ana shunday nodir asarlardan biri bo‘lib, unga Ibn Najjor (vaf.1179) sharh ham yozgan. Mazkur asar Termiziyning “Bahr at-tafsir” asaridagi “Fotiha” surasi tafsiriga oid bir qismidir.*

Kalit so‘zlar: *ishoriy nahv, irfoniy grammatika, Hakim Termiziy, Abulqosim Qushayriy, Abdussalom Maqdisiy, Ibn Arabiy, tasavvuf.*

Abstract. *The concept of "ishari-nahw" is a grammar used to reveal the content of mystical texts and as a parallel model for their mystical content. The first works written on the topic of ishari-nahw were written by al-Hakim al-Tirmidhi (d. 932). His work "an-Nahw fi 'ilm al-bad'" is one of the rare works, and Ibn Najjar (d. 1179) also wrote a commentary on it. This work is part of al-Tirmidhi's commentary on Surah Fatiha in Bahr al-Tafsir.*

Keywords: *ishari-nahw, mystical grammar, al-Hakim al-Tirmidhi, Abulqasim Qushayri, Abdussalam al-Maqdisi, Ibn Arabi, Sufism.*

Аннотация. *Концепция «ишари-нахв» – это грамматика, служащая для раскрытия содержания мистических текстов и используемая в качестве параллельной модели для мистического содержания. Первые работы, написанные на тему ишари-нахв, принадлежат перу Хакима Термизи (ум. 932). Его работа «ан-Нахв фи ильм аль-бад'» – одна из таких редких работ, и Ибн Наджар (ум. 1179) также написал к ней комментарий. Эта работа является частью комментария ат-Тирмизи к суре Фатиха в «Бахр ат-тафсир».*

Ключевые слова: *ишари-нахв, мистическая грамматика, Хаким Термизи, Абулькасим Кушайри, Абдуссалам Макдиси, Ибн Араби, суфизм.*

Kirish. Manbalarda “ishoriy nahv” tushunchasi arab tilida ikki xil mazmunda ishlatilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Birinchisi – tasavvufiy matnlarning mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan grammatika, ikkinchisi – tasavvufiy mazmunga parallel namuna sifatida qo‘llanilgan grammatika. Bu yo‘nalishga murojaat qilgan aksariyat mualliflar asosan tasavvuf ahlidan bo‘lganlar: Hakim Termiziy, Abulqosim Qushayriy, Abdussalom Maqdisiy, Ibn Arabiy va boshqalar.

Ishoriy nahv bo‘yicha yozilgan ilk asarlar Hakim Termiziy (vaf. 932-y.) qalamiga mansub (Zahri, 2023, p. 32). U garchi “ishoriy nahv” yoki shunga muqobil atamani qo‘llamasada, ammo arab tili grammatikasiga oid tasaavufiy talqinga ega mulohazalarni bildirgan. Xususan, uning harflar ilmiga oid qarashlari “Ilm al-avliyo” asarida muhokama qilingan. Uning bu qarashlari keyingi sufiylar ijodiga ta’sir ko‘rsatgan. Hakim Termiziy arab tiliga mukammal til sifatida qaragani uchun, arab tilidagi so‘zlarning asl mohiyatiga yetibgina diniy ta’limotlarni to‘liq anglash mumkinligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Grammatik qoidalar orqali oyatlarning botiniy ma’nolarini ochib berishni maqsad qiladi. Harflar asl so‘zlarning tub mohiyatiga muvofiq ravishda tarkib topishi g‘oyasini o‘rtaga tashlaydi. So‘zlarning zohiriy va botiniy ma’nolarini ajratib, faqat so‘zning mazkur ikki jihatini bilgandagina to‘g‘ri xulosalar chiqarilishi, aks holda har qanday

sohada yirik xatolar yuzaga kelishi mumkinligini misollar bilan isbotlab, ogohlantiradi. So‘zlar yasalishi mavzusiga tasavvufiy tus berib, harf – so‘z – ma’no o‘rtasida uzviy bog‘liqlik borligini muqaddas matnlar asosida isbotlaydi. Arab lug‘atshunosligida sinonimiya hodisasini rad etib, ma’nodosh so‘zlar qalb – nafs ziddiyati asosida farqli mazmun kasb etishini qayd etadi.

Termiziyning deyarli barcha kitoblarida lug‘atshunoslikka oid fikrlar va o‘ziga xos yondashuv uchraydi. Xususan, fiqhga oid masalalarning yechimini to‘g‘ri aniqlashning asosiy mezoni sifatida so‘zlarning asl lug‘aviy ma’nosini topish ekanini ta’kidlagan. Zero, u biror so‘zni keltirar ekan, alabatta uning sharhida lug‘aviy jihatlarini batafsil yoritadi. O‘z asarlarida biror mavzu haqida to‘xtalib o‘tmoqchi bo‘lsa, shu mavzuga doir so‘zlar xoh diniy, ma’rifiy, yoki axloqiy, falsafiy mazmunga ega bo‘lsin, ularni doimo asl o‘zagiga, tub ma’nosiga qaytarish uchun butun e’tiborini safarbar qiladi. So‘zning asl ma’nosini izohlab beradi, so‘ngra shuning ustiga keyingi fikr va mulohazalarini barpo qiladi.

Merosimizda nahv ilmini fiqh yoki tasavvuf bilan bog‘lagan asarlar ko‘p emas. Hakim Termiziyning “an-Nahv fi ilm al-bad’” asari ana shunday nodir asarlardan biridir. Aslida bu mustaqil asar emas, balki Termiziyning “Bahr at-tafsir” asaridagi “Fotiha” surasi tafsiriga oid bir qism bo‘lib, unga Ibn Najjor (vaf. 1179) “Sharh kitab an-nahv fi ilm al-bad’” degan sharh yozgan. Mazkur kitob muqaddimasida Ibn Najjor Hakim Termiziyni fiqh, tilshunoslik, tafsir, nahv, kalom va oxirat ilmlarida ma’nolar haqiqatini yuzaga chiqarish uchun boshlanish holatiga *(hālatu-l-bad’)* qaytish yo‘lini tutgani aytiladi. Bu ilmni Termiziy “avliyolar ilmi” deb ataydi. Ammo jumhur ulamoning ilmi o‘rtasidan olingan, shu sababli qoidalari o‘zaro zid, mutanosib emas, ishlab chiqqan usullaridan nodir va shozz (alohida, nodir, qoidadan chiqqan) masalalar kelib chiqadi. Chunki o‘rta qism zamonlar o‘tishi bilan o‘zgarib turadi. Unga begona narsalar aralashadi. Eng boshida esa hamma narsa ilohiy hikmat asosida qo‘yilgan, unda ziddiyatlar yo‘q, xuddi payg‘ambar alayhissalomlarga vahiy qilingan narsalardagi kabi, deydi Termiziy (Ibn Najjar, 2025, p. 54). Ibn Najjor kitob avvalida grammatikaga oid bu gaplarni Termiziy “Fotiha” surasi tafsirida keltirganini, bir guruh ulamolar u yerdagi gaplarning ma’nosi mavhum bo‘lgani uchun uni olib tashlashganini yozadi. So‘ngra Hakim Termiziyni “al-Imom rohimahullohu” deb hurmat bilan tilga olib, Termiziy tasnif etgan nusxada bu gaplar so‘zma-so‘z u keltirgan holatda ekanini qayd etadi. Keyin esa: “Menimcha, shu kunga qadar hech kim uning ma’nolarini chiqarishga ahamiyat bermagan, e’tibordan chetda qolgan, vaholanki, unda nahv va e’rob harakatlarining barcha qoidalari lo‘nda ko‘rinishda keltirilgan” deydi. Ibn Najjor bu kitobni sharhlash asnosida grammatikaning barcha boblarini: marfuot, mansubot, majrurot, tavobi’ni bobma-bob muallif tutgan yo‘l asosida chiqarib keltirganini ta’kidlaydi (Ibn Najjar, 2025, p. 53). Hakim Termiziy “Tafsir” kitobida mazkur grammatikaga oid qismidan oldin botin va zohir ilmlari dixotomiyasi haqidagi fikrlarini keltiradi: “Alloh ilm va hikmat berilganlarda buni jamlaydi. Ilm – o‘rganish bilan hosil bo‘ladi. Hikmat – qalbni poklash bilan. *“Kimgaki, hikmat berilgan bo‘lsa, unga juda ko‘p yaxshiliklar berilibdi”* (Baqara, 269) (Al-Tirmidhi, 2023, p.201). Shundan so‘ng, Hakim Termiziy *asliy* deb hisoblagan grammatikaga oid matnni keltiradi: “Avvalboshida (fi-l-bad’) kalom e’robli ko‘rinishda fe’l harakati kabi harakatlandi. Uning ko‘rinishi o‘girilib, unga raf’, nasb va xafz ismlari berildi. Raf’ning asli lablarni zammalash, nasb – fatha va xafz – kasradir” (Al-Tirmidhi, 2023, p.202). Matnning keyingi qismlarida e’rob, jazm, ism foil, tanvin, nun al-fasl, hamza kabi mavzular muhokama qilinadi. Matn yakunini “(shularni) ko‘tara oladigan, sig‘diradigan idishni topishni istagan edik, bu (masalalarni) “Ilm al-avliyo” kitobida ham sharhlaganmiz”, deb tugatadi (Al-Tirmidhi, 2023, p.213). Darhaqiqat Ibn Najjorning sharhisiz, bu

matnlarni tushunish murakkabroq kechadi. Zero, Hakim Termiziy grammatikani ham botiniy mazmun ila tahlil qiladi.

Tadqiqot usullari. Xurosonlik mashhur sufiy, faqih Abulqosim Qushayriy (vaf. 1072-y.) esa, arab tiliga "nahv al-qulub" (qalblar grammatikasi) iborasini kiritadi hamda shu nomda maxsus risola yozadi. "Nahv al-qulub" asarini katta (kabir) va kichik (sog'ir) shaklida ta'lif qilgan. Ushbu ikkala risola hajmi kichik bo'lishiga qaramay, unda arab grammatikasi va tasavvufiy tushunchalarni o'zaro qiyoslashda o'ziga xos yondashuvni ko'rish mumkin. Ayrim zamonaviy tadqiqotchilar bu risolalarni "befoyda" qilib ko'rsatishga harakat qilgan bo'lsalarda (Mandil, 2012, pp. 28-48), ammo ularda noyob qarashlar borligini ko'rish mumkin. Qushayriy aarda avval grammatik qoidani keltiradi, uni nahv al-ibora, so'ngra unga munosib tasavvufiy talqinni keltirib, uni nahv al-ishora deb ataydi. "Nahv – qasd qilishdan iborat. Odamlar maqsadlarida hamda manba va holatlarida farqlidirlar. Kimgadir tilini to'g'rilash – ilmi yetgan joyi bo'lsa, u – sohibi ibora, kimningdir qalb-ruhiyatini to'g'rilashi asosiy tashvishi bo'lsa, u ikkinchisi – sohibi ishoradir" (Al-Qushayri, n.d., p. 40).

Risoladagi grammatik qoidalar tartibi mashhur kitoblardagi (Ibn Molik, Zamaxshariy) tartibga muvofiq emas. Har bir grammatik qoida ma'naviy-ruhiy asosga tayantiriladi. Jumladan, Abulqosim Qushayriy yozadi: "Nahv – to'g'ri gap yasash uchun maqsad qilishdir, qalb grammatikasi yurakdan yaxshi so'z aytishdir. Yaxshi so'z esa Haqqa qalb tili bilan murojaat qilishdir" (Al-Qushayri, n.d., p. 7). Yoki yana bir joyda aytadi: "Fe'llar ikki xil bo'ladi, o'timsiz (lozim) va o'timli (mutaaddiy). Bandaning fe'llari ham o'timsiz va o'timli bo'ladi: o'timsizi – barakasi sohibining o'zi bilan cheklanadigani, o'timligi – yaxshiligidan boshqalar ham bahramand bo'ladiganidir. O'timli fe'llarning bir necha turlari bor: bir to'ldiruvchiga, ikki to'ldiruvchiga va uch to'ldiruvchiga ta'sir ko'rsatadigani. Ishoriy mazmunda esa, barakasi butun olamga tatiydiganlar ham bor. Hattoki mashoyixlar aytadiki, bir valiy zot tufayli Alloh taolo o'sha yurt ahlini mag'firat qilar ekan" (Al-Qushayri, n.d., p. 16).

Muhokama. Qushayriydan ikki asr keyin yashagan olim Abdussalom Maqdisiy (vaf. 1279-y.) "Talxis al-ibora fi nahv ahl al-ishora" asarini ta'lif etishda "Nahv al-qulub"ga murojaat qiladi, garchi asarda buni qayd etmagan bo'lsada. Zero, matnlarda yaqinlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Ammo e'tirof etish kerakki, Maqdisiy o'z qarashlari bilan "ishoriy nahv" tushunchasini boyitadi. Asar muqaddimasida muallif ikki xil grammatika bor ekanini aytib, ularning farqlarini mazkur kitobida ochib berishini, shuning uchun asarni "Talxis al-ibora fi nahv ahl al-ishora" (Ishoriy nahvda lo'nda (xulosaviy) gap) deb atadim" deydi (Al-Maqdisi, 2006, p. 20). Muallif yozadi: "Bilginki, bizga va senga Alloh tavfiq bersin, ahl al-ibora (nahvchilar) uchun grammatika tilni to'g'rilash uchun kerak bo'lgan bo'lsa, ahl al-ishora (sufiylar) uchun grammatika qalbni to'g'rilash uchun zarur bo'lgan. Ahl al-ibora "grammatikamiz uch bo'limga ajraladi: ism, fe'l va harf" desalar, ishora ahli "grammatikamiz uch usulga tayanadi: so'z, hol va fe'l", deydilar" (Al-Maqdisi, 2006, p. 21). Muallif ot (ism) grammatik so'z turkumi haqida to'xtalib aytadi: "Bilki, ot (ism) sog'lom (sahih) va kasal (mu'tal)ga, turlanadigan (mu'rob) va turlanmaydigan (mabniy)ga, to'liq turlanadigan (munsarif) va ikki kelishikli (g'oyri munsarif)ga bo'linadi. Xuddi shu kabi bu qavmning grammatikasida ham qavllar sog'lom va kasalga bo'linadi. Tarkibida illat harflari – alif, vov, yoy bo'lmagan so'zlar sog'lomdir. Agar so'z ham vasvasa "vov"idan, umidsizlik (ya's) "yoy"idan, shubhali ishlar (iltibas) "alif"idan xoli bo'lsa, u sog'lomdir (Al-Maqdisi, 2006, p. 23).

Xulosa. Mashhur sufiy Ibn Arabiy (1165-1240) "al-Futuhot" hamda Ibn Maymun (1450-1511) "ar-Risala al-Maymuniya fi tavhid al-jarumiya" asarida ishoriy nahv mavzusida mulohazalar yuritganlar. Xususan, Ibn Arabiy "al-Futuhot al-Makkiyya" asarida nahvchilar va sufiylarning

tilshunoslikka oid tushunchalarini solishtiradi. Bunda u o‘zining ma’naviy ustozi Hakim Termiziy kabi tasavvufiy asarlarida nahv al-qulub usuliga murojaat etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tasavvuf ahli arab grammatikasiga o‘ziga xos nazar bilan qaraydi, unda ma’naviy-ruhiy jihatga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Ishoriy grammatika tasavvufiy tafsir, hadislarni sharhlash, tasavvufga xos bo‘lgan ma’nolarni ochib berishda qo‘llanilgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zahri, Kh. (2023). Introduction to "Bahr al-Tafsir” by al-Hakim at-Tirmidhi. – Istanbul: Dar al-kutub al-arabiyya. (In Arabic)
2. Ibn Najjar. (2025). Sharh kitab an-nahv fi ilm al-bad' (A. Fathi Bashir, Ed.). – Cairo: Dar al-Shaykh al-Akbar. (In Arabic)
3. At-Tirmidhi, Al-Hakim. (2023). Bahr at-Tafsir (J. Chotmatov, Ed.). – Istanbul: Dor al-kutub al-arabiyya. (In Arabic)
4. Mandil, H. (2012). An-Nahv al-Sufi (Nahv al-ishara av nahv al-qulub). In Proceedings of the 5th Scientific Conference of Wasit University, Faculty of Pedagogy (Vol. 2, No. 11, April 12–13). (In Arabic).
5. Al-Qushayri, A. (n.d.). Nahv al-qulub (M. Muhammad Ali, Ed.). Beirut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya. (In Arabic).
6. Al-Maqdisi, A. (2006). Talkhis al-‘ibara fi nahv ahl al-ishara (Kh. Zahri, Ed.). Beirut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya. (In Arabic).

O‘ZBEK, TOJIK VA ARAB TILLARIDAGI TURIZM TERMINLARINING TEMATIK TASNIFI VA QIYOSIY TAHLILI

SHAVKATJON ALAMOV

Yaqin sharq tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi, Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek, tojik va arab tillaridagi turizm terminlarining tematik tasnifi hamda qiyosiy-lingvistik tahlili yoritilgan. Tadqiqot davomida soha terminologiyasi xalqaro, madaniy-ma’rifiy, diniy-ziyorat, ekologik va sog‘lomlashtirish kabi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha turkumlandi. Uch til kesimida terminlarning semantik xususiyatlari, morfologik tuzilishi va yasalish modellari qiyosiy o‘rganildi. Tahlil natijalari turizm terminologiyasida mazmuniy mushtaraklik mavjudligini, biroq lisoniy ifodada har bir tilning ichki grammatik qonuniyatlari ustuvorligini ko‘rsatdi. Maqola xulosalari ko‘p tilli lug‘atlar tuzish va tarjima amaliyotini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar *turizm terminologiyasi, tematik tasnif, qiyosiy tahlil, o‘zbek tili, tojik tili, arab tili, lingvistik tahlil.*

Abstract. *This article examines the thematic classification and provides a comparative linguistic analysis of tourism terminology in Uzbek, Tajik, and Arabic. The study categorizes terms into key sectors (cultural, religious, ecological, wellness, etc.) and explores their semantic*

features, morphological structures, and formation patterns across the three languages. The findings reveal a conceptual commonality in tourism terminology, while its linguistic realization remains subject to the unique grammatical rules of each language. The research results contribute to the systematization of industry-specific vocabulary and the development of multilingual lexicography and translation practice.

Keywords: *tourism terminology, thematic classification, comparative analysis, Uzbek, Tajik, Arabic, linguistic analysis.*

Аннотация *В статье представлены тематическая классификация и сопоставительно-лингвистический анализ терминологии туризма в узбекском, таджикском и арабском языках. Автор распределяет термины по ключевым направлениям (культурно-познавательный, паломнический, экологический, лечебно-оздоровительный и др.) и анализирует их семантические, морфологические и синтаксические особенности. Установлено, что при наличии концептуальной общности, языковая репрезентация терминов обусловлена спецификой грамматического строя каждого языка. Результаты исследования значимы для систематизации отраслевой лексики и развития теории и практики перевода.*

Ключевые слова: *терминология туризма, тематическая классификация, сопоставительный анализ, узбекский язык, таджикский язык, арабский язык.*

Kirish. Bugungi globallashuv va xalqaro kommunikatsiya sharoitida turizm jahon iqtisodiyoti, madaniy almashinuv va hududlararo ijtimoiy aloqalarning eng faol sohalaridan biriga aylandi. Turizm industriyasining kengayishi ushbu soha bilan bog‘liq terminologik tizimning o‘sishi, takomillashuvi va tarmoqlanishini jadallashtirdi. Natijada turizmga oid terminlar faqat amaliy nutq birligi sifatida emas, balki muayyan xalqning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi, ijtimoiy hayoti va tilning ichki nominativ imkoniyatlarini aks ettiruvchi maxsus lisoniy qatlam sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli turizm terminologiyasini ilmiy asosda o‘rganish, uni tizimlashtirish va tillararo qiyosiy tahlil qilish zamonaviy terminshunoslik, qiyosiy tilshunoslik hamda sohaviy leksikologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Turizm terminologiyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u, bir tomondan, standartlashgan tushunchalarni ifodalovchi xalqaro birliklarni, ikkinchi tomondan esa milliy-madaniy mazmun yukiga ega bo‘lgan lokal terminlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, “viza”, “pasport”, “turist”, “marshrut”, “servis”, “ekskursiya” kabi birliklar ko‘plab tillarda o‘zaro o‘xshash shaklda qo‘llanib, turizmning global xususiyatini aks ettiradi. Shu bilan birga, “ziyoratgoh”, “qadamjo”, “maqbara”, “osorxona” kabi birliklar muayyan tarixiy-madaniy muhit bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, turizm leksikasining milliy qatlamini namoyon etadi. Demak, turizm terminologiyasi universal va lokal qatlamlar kesishgan nuqtada shakllanadigan murakkab tizim bo‘lib, uni qiyosiy o‘rganish turizmning nafaqat kommunikativ, balki lingvomadaniy mohiyatini ham ochib berishga xizmat qiladi.

O‘zbek, tojik va arab tillaridagi turizm terminlarini qiyosiy asosda o‘rganish alohida ilmiy qimmatga ega. Chunki mazkur tillar turli til oilalariga mansub bo‘lsa-da, ular o‘rtasida uzoq tarixiy-madaniy aloqalar, diniy-sivilizatsion mushtaraklik va leksik almashinuv jarayonlari mavjud bo‘lgan. Shu bois bu tillarda turizmga oid ayrim umumiy tushunchalar mazmunan yaqin shakllarda ifodalansa, boshqa hollarda ayni bir tushuncha har bir tilning ichki grammatik va nominativ qonuniyatlari asosida turlicha shakllanadi. Xususan, o‘zbek tilida aniqlovchili birikmalar, tojik tilidagi izofa konstruksiyalar, arab tilida esa izofa va sifatlovchi modellar turizm

terminlarini hosil qilishda faol ishtirok etadi. Bu holat turizm terminologiyasining semantik mushtarakligi bilan grammatik farqlanishi bir vaqtning o‘zida mavjud ekanini ko‘rsatadi va aynan shu jihat uch tilli qiyosiy tahlilning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning dolzarbligi yana shu bilan izohlanadiki, hozirgi davrda turizm sohasi ko‘p tilli axborot makoni, reklama matnlari, gidlik faoliyati, elektron platformalar, tarjima amaliyoti va o‘quv adabiyotlari bilan bevosita bog‘liq holda rivojlanmoqda. Bunday sharoitda terminlarning izchil, me’yoriy va ma’nodosh qatlamlardan farqlangan holda qo‘llanishi juda muhimdir. Ayniqsa, turizmga oid tushunchalarning uch tilda bir-biriga muvofiq, lekin mazmuniy nozik farqlarni saqlagan holda ifodalanishi ko‘p tilli terminologik tizimni o‘rganishni zaruratga aylantiradi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek, tojik va arab tillarida qo‘llanadigan turizm terminlarini tematik jihatdan guruhlash, ularning semantik tarkibini aniqlash va struktur modellarini solishtirish ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada turizm terminologiyasi faqat lug‘aviy birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki ichki iyerarxiyaga, funksional taqsimotga va mavzuviy tarmoqlanishga ega bo‘lgan tizim sifatida qaraladi. Shu asosda turizmga oid terminlarning asosiy tematik qatlamlarini aniqlash, ularning mazmuniy va struktur xususiyatlarini qiyoslash, xalqaro va milliy birliklar nisbatini ko‘rsatish hamda uch tilda termin hosil qilishning ustuvor modellari haqida ilmiy xulosa chiqarish mazkur tadqiqotning markaziy yo‘nalishini tashkil etadi. Bunday yondashuv turizm terminologiyasini tasniflash, standartlashtirish va ko‘p tilli lug‘atchilik uchun zarur ilmiy asos yaratadi.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek, tojik va arab tillaridagi turizm terminlarini tematik jihatdan tasniflash, ularning semantik xususiyatlari va struktur ifodalanish modellarini qiyosiy asosda tahlil qilishdan iborat. Shu maqsadga muvofiq ravishda tadqiqotda turizm terminlarining asosiy mavzuviy guruhlari aniqlanadi, uch tildagi parallel terminologik birliklar solishtiriladi, terminlarning semantik mushtarakligi va formal farqlari ko‘rsatib beriladi. Natijada turizm terminologiyasining konseptual universalligi bilan grammatik-milliy xususiyatlari o‘rtasidagi munosabat ilmiy jihatdan yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Turizm terminologiyasini o‘zbek, tojik va arab tillari kesimida qiyosiy o‘rganish bir necha ilmiy yo‘nalishlar tutashgan nuqtada amalga oshiriladi. Xususan, mazkur tadqiqot terminshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, sohaviy leksikologiya hamda lingvomadaniy tahlil tamoyillariga tayandi. Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasi bo‘yicha yaratilgan ishlar asosan ikki yirik yo‘nalishga ajraladi: birinchisi — turizmning amaliy, tashkiliy va iqtisodiy mohiyatini yorituvchi manbalar; ikkinchisi — terminologiyaning nazariy asoslari, termin hosil qilish, o‘zlashma birliklar va sohaviy leksika xususiyatlarini tadqiq etuvchi lingvistik ishlar. Mazkur maqolada aynan shu ikki yo‘nalish kesishgan nuqtada turizm terminlarining tematik va qiyosiy tabiati tahlil qilinadi.

Terminshunoslikning umumiy nazariy masalalarini asoslashda J. Sagerning ilmiy qarashlari muhim metodologik tayanch vazifasini bajaradi. U terminni muayyan tushuncha bilan bog‘liq, tizimli sohaviy birlik sifatida izohlaydi hamda terminologik maydon ichida giperonimiya, giponimiya va funksional aloqadorlik muhim ekanini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda turizm terminologiyasi alohida-alohida leksemalar yig‘indisi sifatida emas, balki ichki semantik bog‘lanish va mavzuviy iyerarxiyaga ega bo‘lgan tizim sifatida qaraldi. Bu yondashuv turizm terminlarini tematik guruhlarga ajratish va ularning o‘zaro mazmuniy munosabatini aniqlashda asosiy nazariy mezon bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbek tilshunosligida terminologiya masalalari H. Dadaboyev tomonidan tizimli ravishda o‘rganilgan. Uning terminlarning shakllanishi, milliy til imkoniyatlari asosida qayta ishlanishi,

o‘zlashma birliklarning moslashuvi va me’yorlashuvi haqidagi qarashlari o‘zbek tilidagi turizm terminlarini baholashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, M. Mirtojiyev va N. Mahmudovning til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatga oid ilmiy xulosalari turizm terminologiyasining, ayniqsa, madaniy-ma’rifiy va diniy-ziyorat qatlamlarini tahlil qilishda nazariy asos bo‘ldi. Chunki mazkur qatlamlarda termin faqat nominativ birlik emas, balki milliy-madaniy tajriba va tarixiy xotirani ifodalovchi lisoniy vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Tojik tilidagi terminologik materiallarni ilmiy izohlashda S. Nazarzodaning istilohshunoslik va so‘z yasalishiga doir ishlari asosiy manbalardan biri bo‘ldi. U tojik tilidagi izofa konstruksiyalarning termin hosil qilishdagi faol rolini ko‘rsatadi. Mazkur kuzatuv turizm terminologiyasida ham tasdiqlanadi. Xususan, “сайёҳии фарҳангӣ”, “сайёҳии таълимӣ”, “сайёҳии тиббӣ” kabi birliklar tojik tilida izofa modelning mahsuldorligini yaqqol ko‘rsatadi. Shu bois tojik tilidagi turizm terminlarini struktur jihatdan baholashda izofa markaziy grammatik vosita sifatida qabul qilindi.

Turizm sohasining amaliy terminologik bazasini aniqlashda I.S. Tuxliyev, M.E. Po‘latov va A.Sh. Berdimurodov tomonidan tuzilgan “Turizm atamalarining izohli lug‘ati” muhim asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Mazkur lug‘atdagi birliklar o‘zbek tilidagi turizm terminlarining semantik doirasini va amaliy qo‘llanish maydonini aniqlashga yordam berdi. Tojik tilidagi turizmga oid amaliy va nazariy qarashlar esa D.Sh. Sanginov hamda R.D. Dilovarov va hammualliflarning ishlari orqali boyitildi. Arab tilidagi terminologik birliklarni aniqlashda esa turizm terminlari lug‘atlari va amaliy arabcha leksikografik manbalardan foydalanildi. Bu manbalar orqali “السياحة الثقافية” ، “السياحة الدينية”، “السياحة العلاجية”، “السياحة التعليمية” kabi birliklarning me’yoriy shakllari aniqlashtirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turizm terminlarini alohida bir til doirasida yoki turizmning amaliy jihatlari nuqtai nazaridan yorituvchi ishlar mavjud bo‘lsa-da, o‘zbek, tojik va arab tillaridagi turizm terminlarini aynan tematik tasnif, semantik mushtaraklik va struktur modellar asosida birgalikda qiyoslagan tadqiqotlar yetarli emas [Nazarzoda, 2014, p. 201]. Mavjud ishlarda ko‘proq turizmning iqtisodiy va tashkiliy jihati yoki terminologiyaning umumiy nazariy masalalari yoritilgan. Shu sababli mazkur maqolada tanlangan uch tilli qiyosiy yondashuv ilmiy yangilik va amaliy zarurat nuqtai nazaridan asosli deb baholandi.

Tadqiqot metodologiyasini bir nechta o‘zaro bog‘liq usullar tashkil etdi. Avvalo, tavsifiy usul yordamida o‘zbek, tojik va arab tillaridagi turizm terminlari yig‘ildi, saralandi va mazmuniga ko‘ra guruhlarga ajratildi. Keyingi bosqichda tematik tasnif usuli qo‘llanib, turizm terminlari xalqaro va umumiy turizm, madaniy-ma’rifiy turizm, diniy-ziyorat turizmi, sport va sarguzasht turizmi, ekologik, agrar va qishloq turizmi, ta’lim turizmi, dam olish, sog‘lomlashtirish va tibbiy turizm, shuningdek, biznes, ijtimoiy va oilaviy turizm kabi asosiy guruhlarga ajratildi.

Qiyosiy-chog‘ishtirma usul yordamida bir xil semantik maydonga mansub terminlarning uch tildagi parallel shakllari solishtirildi. Masalan, “madaniy turizm” – “сайёҳии фарҳангӣ” – “السياحة الثقافية”, “diniy turizm” – “сайёҳии динӣ” – “السياحة الدينية”, “ta’lim turizmi” – “сайёҳии таълимӣ” – “السياحة التعليمية” kabi birliklar mazmuniy va grammatik jihatdan qiyoslandi [Al-Hay’a al-‘Amma li-l-Siyāḥa wa-l-Āthār, 2013, p. 41]. Mazkur usul turizm terminlaridagi konseptual mushtaraklik bilan formal farqlarni birgalikda aniqlash imkonini berdi.

Semantik tahlil usuli terminlarning ma’no doirasini, umumiy va farqlovchi belgilarini aniqlashda qo‘llanildi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, xalqaro va milliy birliklar nisbatini belgilashda muhim bo‘ldi. Masalan, “turist”, “viza”, “pasport”, “servis” kabi birliklar xalqaro terminologik qatlamga mansub bo‘lsa, “ziyoratgoh”, “qadamjo”, “osorxona”, “muqaddas joy”, kabi birliklar

milliy-madaniy semantik yuklama bilan farqlanishi aniqlandi. Semantik tahlil orqali terminlarning faqat lug‘aviy emas, balki lingvomadaniy mazmuni ham hisobga olindi.

Struktur tahlil terminlarning grammatik ifodalanish modellarini aniqlashga qaratildi. Natijada o‘zbek tilida aniqlovchili birikmalar, tojik tilidagi izofa konstruksiyalar, arab tilida esa izofa va sifatlovchi modellar yetakchi ekanligi metodik jihatdan asoslab olindi. Shuningdek, komponent tahlil usuli ko‘p komponentli termin-iboralarni izohlashda qo‘llandi. Bu usul orqali termin tarkibidagi markaziy va aniqlovchi komponentlarning vazifasi ajratildi, terminning mazmuniy yuki qaysi qismda mujassam ekani ko‘rsatildi.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotning metodologik asosini tavsifiy, tematik tasnif, qiyosiy-chog‘ishtirma, semantik, struktur va komponent tahlil usullarining o‘zaro uyg‘unligi tashkil etdi. Aynan shu yondashuvlar majmui o‘zbek, tojik va arab tillaridagi turizm terminlarini mazmuniy, grammatik va funksional jihatdan kompleks ravishda o‘rganish imkonini berdi hamda tadqiqotning ilmiy xulosalarini ishonchli asoslashga xizmat qildi [Sager, 1990, p. 53].

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek, tojik va arab tillaridagi turizm terminologiyasi mazmun jihatidan o‘zaro mushtarak bo‘lsa-da, lisoniy ifodalanish, termin yasalish modellari va sohaviy tarmoqlanishi nuqtai nazaridan muayyan milliy-grammatik farqlarga ega bo‘lgan mustaqil terminologik tizimni tashkil etadi. Uch til materiali qiyosiy tahlil qilinganda, turizmga oid birliklar tartibsiz leksik to‘plamdan iborat emasligi, balki ma’lum tematik guruhlar atrofida jipslashgan qat’iy tizim ekanligi aniqlandi. Boshqacha aytganda, turizm / сайёҳӣ / السياحة leksemasi umumiy sohaviy markaz, ya’ni giperonim vazifasini bajaradi va bevosita undan turizmning alohida yo‘nalishlari, maqsadlari, obyektlari hamda xizmat turlarini anglatuvchi giponimik tarmoqlar ajralib chiqadi [Dadaboyev, 2020, p. 74]. Shu nuqtai nazardan tematik tasnif mazkur maqolada shunchaki guruhlash usuli emas, balki turizmga oid tushunchalar tizimining ichki tuzilishini ochib beruvchi tayanch ilmiy vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Tahlil davomida turizm terminlarining asosiy qismi semantik maydon xususiyatiga ko‘ra sakkizta yirik tematik guruhga ajralishi kuzatildi: xalqaro va umumiy turizm terminlari; madaniy-ma’rifiy turizm; diniy-ziyorat turizmi; sport va sarguzasht turizmi; ekologik, agrar va qishloq turizmi; ta’lim turizmi; dam olish, sog‘lomlashtirish va tibbiy turizm; biznes, ijtimoiy va oilaviy turizm terminlari. Ushbu guruhlash o‘zbek va tojik tillari materiallarida ham, arab tilidagi amalda qo‘llanib kelinayotgan atamalar tizimida ham deyarli parallel tarzda uchrashi bilan xarakterlandi. Bu esa turizm sohasining xalqaro tabiatga ega ekanini va uning tayanch konseptlari turli tillarda mazmunan mushtarak holda shakllanganini ko‘rsatadi.

O‘zbek, tojik va arab tillaridagi turizm terminlarining asosiy tematik guruhlari

Jadval

№	Tematik guruh	O‘zbek tilidagi misollar	Tojik tilidagi misollar	Arab tilidagi misollar
1	Xalqaro va umumiy turizm	turizm, turist, viza, pasport, marshrut, gid	сайёҳӣ, сайёҳ, раводид, шиноснома, масир, роҳбалад	السياحة، السائح، التأشيرة، جواز السفر، المسار، الدليل السياحي
2	Madaniy-ma’rifiy turizm	madaniy turizm, tarixiy turizm, muzey, osorxona, milliy meros	сайёҳии фарҳангӣ, сайёҳии таърихӣ, осорхона, ёдгорӣ	السياحة الثقافية، السياحة التاريخية، المتحف، المعلم التاريخي، التراث الثقافي
3	Diniy-ziyorat turizmi	ziyorat turizmi, muqaddas joy,	сайёҳии динӣ, зиёрати ҷойҳои	السياحة الدينية، زيارة الأماكن المقدسة، الضريح،

		qadamjo, ziyoratgoh, maqbara	муқаддас, мақбара, оромгоҳ	المقام
4	Sport va sarguzasht turizmi	sport turizmi, alpinizm, trekking, rafting, tog‘ sayohati	сайёҳии варзишӣ, алпинизм, треккинг, кӯҳнавардӣ	السياحة الرياضية، سياحة المغامرات، تسلق الجبال، التجديف
5	Ekologik, agrar va qishloq turizmi	ekologik turizm, ekoturizm, agrar turizm, qishloq turizmi	сайёҳии экологӣ, сайёҳии деҳотӣ, сайёҳии кишоварзӣ	السياحة البيئية، السياحة الزراعية، السياحة الريفية
6	Ta’lim turizmi	Ta’lim turizmi, o‘qish safari, ilmiy safar, talabalar almashinuvi	сайёҳии таълимӣ, сафари омӯзишӣ, сафари илмӣ	السياحة التعليمية، الرحلة الدراسية، الزيارة العلمية
7	Dam olish, sog‘lomlashtirish va tibbiy turizm	dam olish turizmi, sog‘lomlashtirish turizmi, tibbiy turizm, kurort	сайёҳии истироҳатӣ, сайёҳии солимгардонӣ, сайёҳии тиббӣ	السياحة الاستجمامية، السياحة العلاجية، السياحة الطبية
8	Biznes, ijtimoiy va oilaviy turizm	biznes turizm, xizmat safari, ijtimoiy turizm, oilaviy turizm	сайёҳии тиҷоратӣ, сафари хизматӣ, сайёҳии иҷтимоӣ, сайёҳии оилавӣ	سياحة الأعمال، السفر الوظيفي، السياحة الاجتماعية، السياحة العائلية

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatdiki, turizm terminologiyasining ichki mazmuniy tarmoqlanishi har uchala tilda ham deyarli bir xil konseptual asoslarga tayangan holda shakllanadi. Bunda eng markaziy qatlam xalqaro va umumiy turizm terminlari bo‘lib, qolgan barcha tematik guruhlar aynan shu umumiy yadrodan semantik jihatdan tarmoqlanadi. Masalan, turizm / сайёҳӣ / السياحةumumiy makrotushuncha bo‘lsa, madaniy turizm, diniy turizm, ta’lim turizmi, tibbiy turizm, biznes turizm kabi birliklar uning muayyan yo‘nalishlarini bildiruvchi toraygan mazmunli giponimlar sifatida namoyon bo‘ladi [Sager, 1990, p. 27]. Shu tariqa, turizm terminologiyasi o‘z ichida iyerarxik munosabatlarga ega bo‘lgan, tizimli ravishda tashkil topgan sohaviy maydon ekanligi dalillandi.

Tadqiqot davomida har bir tematik guruhning ichki semantik xususiyati ham kuzatildi. Madaniy-ma’rifiy va diniy-ziyorat turizmi guruhlarida milliy-madaniy hamda tarixiy konseptlarni ifodalovchi birliklar ustunlik qilishi aniqlandi. Xususan, madaniy turizm qatlamida muzey, osorxona, tarixiy obida, milliy meros, me’moriy yodgorlik kabi birliklar faol bo‘lsa, diniy-ziyorat turizmida ziyoratgoh, qadamjo, maqbara, muqaddas joy, المقام ,الضريح, зиёрати ҷойҳои муқаддас kabi birliklar semantik markaz sifatida ajralib turadi [Mirtojiyev, Mahmudov, 1992, p. 60]. Mazkur guruhlarda terminlar faqat obyekt nomi emas, balki muayyan tarixiy xotira, diniy-e’tiqodiy mazmun va lingvomadaniy qadriyatni ham ifodalaydi. Demak, bu qatlamlarda terminologik tizimning milliy-lokal xususiyati ayniqsa kuchli namoyon bo‘ladi.

Sport va sarguzasht turizmi guruhida esa boshqa qatlamlarga nisbatan harakat dinamikasi, marshrut, jihoz va xavfsizlik bilan bog‘liq terminlarning faolligi kuzatildi. Alpinizm, trekking, rafting, tog‘ sayohati, التجديف ,تسلق الجبال kabi birliklar mazkur qatlamning mazmuniy yadrosini tashkil etadi [Tuxliyev, Po‘latov, Berdimurodov, 2021, p. 97]. Ushbu terminlarning katta qismi xalqaro o‘zlashmalar bo‘lib, ular turli tillarda fonetik va grafik moslashuv orqali qo‘llanadi. Shuning uchun aynan sport va sarguzasht turizmi qatlami turizm terminologiyasining eng “ochiq”,

ya’ni globallashuv va xalqaro kommunikatsiya ta’siriga eng tez moslashuvchi sohalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Ekologik, agrar va qishloq turizmi guruhida tabiat, qishloq muhiti va an’anaviy xo‘jalik hayotini aks ettiruvchi birliklar faol ekani aniqlandi. O‘zbek tilidagi ekologik turizm, ekoturizm, agrar turizm, qishloq turizmi, tojik tilidagi сайёҳии экологӣ, сайёҳии деҳотӣ, сайёҳии кишоварзӣ, arab tilidagi السياحة البيئية، السياحة الزراعية، السياحة الريفيةkabi terminlar ushbu yo‘nalishning mazmuniy markazini tashkil etadi [Dilovarov, Yorov, Sayfulloyev, 2013, p. 91]. Mazkur qatlamning muhim jihati shundaki, unda umumxalq leksikasiga mansub bo‘lgan ayrim so‘zlar sohaviy ma’no kasb etib, terminlashish jarayoniga kirishadi. Bu esa turizm terminologiyasida yangi tushunchalarni ifodalashda ichki lisoniy resurslar faol ishtirok etayotganini ko‘rsatadi.

Ta’lim turizmi guruhida maqsad va akademik vazifani anglatuvchi sintaktik konstruksiyalar muhim o‘rin tutishi kuzatildi. Ta’lim turizmi, o‘qish safari, ilmiy safar, talabalar almashinuvi, сайёҳии таълимӣ, сафари омӯзишӣ, السياحة التعليمية، الرحلة الدراسية، الزيارة العلمية kabi birliklar turizmning ta’lim, malaka oshirish va ilmiy almashinuv bilan bog‘liq funksional yo‘nalishini ifodalaydi [Tuxliyev, Po‘latov, Berdimurodov, 2021, p. 121]. Ushbu qatlamda turizmning rekreativ emas, balki kognitiv va akademik maqsadga xizmat qiluvchi xususiyati kuchliroq namoyon bo‘ladi. Shu sababli bu guruh terminlari semantik jihatdan boshqa qatlamlardan ancha aniq maqsadga yo‘naltirilganligi bilan farqlanadi.

Dam olish, sog‘lomlashtirish va tibbiy turizm guruhida esa rekreativ, profilaktik va klinik semantik qatlamlarning kesishuvi aniqlandi. Bu yerda dam olish turizmi, sog‘lomlashtirish turizmi, tibbiy turizm, сайёҳии истироҳатӣ, сайёҳии солимгардонӣ, сайёҳии тиббӣ, السياحة الطبية الاستجمامية، السياحة العلاجية، السياحة kabi birliklar bir paytning o‘zida turizm, salomatlik va xizmat ko‘rsatish sohalari o‘rtasidagi funksional integratsiyani ifodalaydi [Sanginov, 2013, p. 103]. Demak, bu guruhdagi terminlar mazmunan turizm sohasining ijtimoiy-gumanitar va tibbiy segmentlari bilan tutashgan maxsus qatlamni tashkil etadi.

Biznes, ijtimoiy va oilaviy turizm guruhida esa zamonaviy turizm bozorining real ehtiyojlari bevosita aks etishi kuzatildi. Hozirgi davrda xalqaro forumlar, biznes uchrashuvlar, korporativ tadbirlar, oilaviy dam olish paketlari va ijtimoiy imtiyozli sayohat dasturlarining ko‘payishi natijasida ushbu qatlamga oid terminlar ham amaliy muomalada keng qo‘llanmoqda [Dilovarov, Yorov, Sayfulloyev, 2013, p. 117]. Biznes turizm, xizmat safari, ijtimoiy turizm, oilaviy turizm, сайёҳии тиҷоратӣ, сайёҳии иҷтимоӣ, сайёҳии оилавӣ, سياحة الأعمال، السياحة الاجتماعية، السياحة العائلية [Qāmūs ‘Arabī–‘Arabī. https://www.almaany.com] kabi birliklar aynan turizmning iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy funksiyalarini yorituvchi maxsus qatlamni hosil qiladi. Mazkur guruh terminlari turizmning faqat dam olish bilan cheklanmay, jamiyatning turli ehtiyojlari bilan bog‘liq murakkab xizmat sohasi ekanini ko‘rsatadi.

Qiyosiy-semantik tahlil natijalari uch tildagi turizm terminlarining mazmun jihatidan o‘ta yaqinligini, ya’ni sohaviy tushunchalar tizimida universallik mavjudligini ko‘rsatdi. Turizmning asosiy yo‘nalishlari – madaniy, diniy, ekologik, ta’limiy, sport, dam olish, qishloq va biznes turizmi – o‘zbek, tojik va arab tillarida deyarli parallel ravishda lisoniy ifodasini topadi. Bu holat turizm sohasining global-xalqaro tabiatga ega ekanligini, uning tayanch tushunchalari turli tillarda mazmunan mushtarak holda shakllanganini tasdiqlaydi. Biroq konseptual mazmun yaqinligi terminlarning tildagi grammatik ifodalanish usullarida mutlaq bir xillikni anglatmaydi.

Tadqiqotning eng muhim nazariy natijalaridan biri shundaki, turizm terminologiyasining formal-struktur qurilishi har bir tilning ichki tipologik va grammatik xususiyatlariga qat’iy tobedir.

O‘zbek tilida turizm terminlari ko‘pincha aniqlovchili birikmalar vositasida ifodalanadi: madaniy turizm, ekologik turizm, sog‘lomlashtirish markazi, oilaviy turizm. Tojik tilidagi izofa modeli ustunlik qiladi: сайёҳии фарҳангӣ, сайёҳии тиббӣ, сайёҳии иҷтимоӣ, сайёҳии оилавӣ. Arab tilida esa izofa va sifatlovchi modellar yetakchidir: السياحة الثقافية، السياحة الطبية، السياحة الاجتماعية، البرنامج التعليمي. Bu esa ayni bir tushuncha uch tilda uch xil grammatik model asosida ifodalanishi mumkinligini ko‘rsatdi. Natijada konseptual universallik bilan grammatik-milliylikning bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi turizm terminologiyasining eng muhim struktur qonuniyatlaridan biri sifatida belgilandi.

Tahlil jarayonida xalqaro va milliy qatlamlarning o‘zaro munosabati ham aniqlandi. Xalqaro va umumiy turizm hamda sport-sarguzasht turizmi guruhlarida o‘zlashma birliklar salmog‘i juda yuqori bo‘lib, viza, pasport, turist, servis, marshrut, ekskursiya, alpinizm, trekking kabi terminlar turli tillarda assimilyatsiya va grafik moslashuv bilan qo‘llanadi. Shu bilan birga, milliy tilning ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan muqobillar ham faol ekani qayd etildi: o‘zbek tilida yo‘lboshchi, tojik tilida роҳбалад, arab tilida الدليل السياحي kabi birliklar sinonimik qatorni hosil qiladi. Bundan tashqari, duragay terminlarning hosil bo‘lishi ham kuzatiladi: onlayn band qilish, mehmonxona xizmati, turistik marshrut, arab tilida esa الحجز الإلكتروني، الخدمة الفندقية، المسار السياحي، البرنامج السياحيkabi shakllar bunga misoldir [Al-Hay’a al-‘Amma li-l-Siyāḥa wa-l-Āthār, 2013, p. 74]. Demak, turizm terminologiyasida ikki jarayon – xalqaro terminlarni o‘zlashtirish va milliy lisoniy vositalar yordamida muqobil termin yaratish – parallel ravishda kechmoqda.

Yana bir muhim natija shundan iborat bo‘ldiki, turizm terminologiyasida ikki va undan ortiq komponentli termin-iboralar juda mahsuldor qatlamni tashkil etadi. Bu holat turizm tushunchalarining ko‘p qirrali, funksional jihatdan murakkab va tavsifga ehtiyoj sezuvchi tabiatidan kelib chiqadi. O‘zbek tilida xalqaro biznes safari, sog‘lomlashtirish markazi, qishloq turizmi marshruti, tojik tilida зиёрати ҷойҳои муқаддас, барномаи таълимӣ, arab tilida زيارة الأماكن المقدسة، البرنامج السياحي، الخدمة الفندقية kabi birliklar faol qo‘llanadi [Qāmūs ‘Arabī–‘Arabī. https://www.almaany.com], Komponent tahlil shuni ko‘rsatdiki, bunday terminlarda asosiy semantik yuk markaziy komponent orqali, farqlovchi yoki toraytiruvchi ma’no esa aniqlovchi komponentlar orqali ifodalanadi. Shu sababli analitik model turizm terminologiyasida uchala til uchun ham muhim va sermahsul termin yasash vositasi ekanligi isbotlandi.

Natijalardan yana shu narsa ayon bo‘ldiki, turizm terminologiyasining barcha qatlamlari bir xil tezlikda rivojlanmaydi. Zamonaviy turizm ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan sport va sarguzasht turizmi, ekologik turizm, ta’lim turizmi hamda biznes turizmi guruhlarida yangi o‘zlashmalar, kompozit terminlar va ko‘p komponentli birikmalar ko‘proq uchraydi [Sanginov, 2013, p. 116]. Aksincha, diniy-ziyorat hamda madaniy-ma’rifiy turizm qatlamlarida tarixiy-madaniy barqarorlik kuchliroq bo‘lib, ularda milliy-lingvomadaniy birliklarning salmog‘i balandroqdir. Bu esa turizm terminologiyasining ichki dinamikasi turizm amaliyotining o‘zgaruvchanligi va jamiyatdagi ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olingan natijalar o‘zbek, tojik va arab tillaridagi turizm terminologiyasi mazmunan mushtarak, struktur jihatdan esa milliy xususiyatlarga ega bo‘lgan ko‘p qatlamli terminologik tizim ekanini tasdiqladi. Ushbu tizimni tematik, semantik va struktur jihatdan birgalikda o‘rganish turizm sohasidagi terminlarni tizimlashtirish, ko‘p tilli lug‘atchilikni rivojlantirish, tarjima amaliyotini takomillashtirish va qiyosiy terminshunoslik uchun yangi ilmiy natijalar chiqarish imkonini beradi [Dadaboyev, 2020, p. 88].

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijasida o‘zbek, tojik va arab tillaridagi turizm terminologiyasi mazmunan yaxlit, struktur jihatdan esa ko‘p qatlamli va ichki iyerarxiyaga ega bo‘lgan mustaqil

sohaviy tizim ekani aniqlandi. Turizmga oid birliklar uchala tilda ham tartibsiz leksik yig‘indi emas, balki ma’lum konseptual markazlar va mavzuviy yo‘nalishlar atrofida shakllangan terminologik maydon sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida turizm terminlari xalqaro va umumiy turizm, madaniy-ma’rifiy turizm, diniy-ziyorat turizmi, sport va sarguzasht turizmi, ekologik, agrar va qishloq turizmi, ta’lim turizmi, dam olish, sog‘lomlashtirish va tibbiy turizm, shuningdek, biznes, ijtimoiy va oilaviy turizm kabi asosiy tematik guruhlarga ajratildi. Ushbu tasnif turizm terminologiyasining semantik tarmoqlanishini tizimli ravishda ko‘rsatib, terminlarning nafaqat mavzuga, balki funksional vazifasiga ko‘ra ham farqlanishini aniqlash imkonini berdi.

Qiyosiy-semantik tahlil uch tilda turizm terminlarining konseptual jihatdan mushtarak ekanini ko‘rsatdi. Safar, dam olish, madaniy bilish, ziyorat, sport, sog‘lomlashtirish, ta’lim va ishbilarmonlik bilan bog‘liq asosiy turistik tushunchalar o‘zbek, tojik va arab tillarida mazmunan yaqin birliklar orqali ifodalanadi. Biroq mazkur umumiylik terminlarning formal ifodalanishida to‘liq bir xillikni yuzaga keltirmaydi. Struktur tahlil natijalariga ko‘ra, o‘zbek tilida turizm terminlarini shakllantirishda aniqlovchili birikmalar faol qo‘llanadi, tojik tilida izofa konstruksiyasi ustunlik qiladi, arab tilida esa izofa va sifatlovchi modellar yetakchi rol o‘ynaydi. Demak, turizm terminologiyasida konseptual universallik bilan grammatik-milliylik bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘ladi. Tadqiqot jarayonida turizm terminologiyasida xalqaro va milliy qatlamlarning parallel ravishda mavjudligi ham aniqlandi. Shuningdek, turizm tushunchalarining tavsifiy, ko‘p qirrali va funksional jihatdan murakkab tabiatidan kelib chiqib, ikki va undan ortiq komponentli termin-iboralar juda mahsuldor ekani tasdiqlandi.

Mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning natijalari qiyosiy terminshunoslik, sohaviy leksikologiya, lingvokulturologiya va turizm diskursi tadqiqotlari uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Amaliy jihatdan esa maqola natijalaridan ko‘p tilli terminologik lug‘atlar yaratishda, turizmga oid o‘quv adabiyotlari tayyorlashda, sohaga ixtisoslashgan tarjima amaliyotini takomillashtirishda hamda turizm mutaxassislari, gidlar va tarjimonlar tayyorlash jarayonida foydalanish mumkin. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, jumladan, turizm terminlarining korpus asosidagi qo‘llanish chastotasini aniqlash, xalqaro va milliy birliklar nisbatini statistik asosda baholash, shuningdek, o‘zbek, tojik va arab tillari uchun maxsus qiyosiy terminologik lug‘at tuzish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Al-Hay’a al-‘Amma li-l-Siyāḥa wa-l-Āthār. (2013). Lexicon of Tourism Terms: English–Arabic. *Mu‘jam al-muṣṭalaḥāt al-siyāḥiyya: Injilīzī–‘Arabī. 2nd ed.* – Riyadh. – 198 p. (in Arabic)
2. Alamov, S. R. (2025). A Comparative Study of the Terms “Tourism” (Siyāḥa) and “Visitation” (Ziyāra) Within the Field of Tourism (in the context of Arabic, Persian, and Uzbek languages). – Oriental Journal of Philology, 5(3). – pp. 354-365. (in English)
3. Almaany. (n.d.). Arabic–Arabic Dictionary. *Qāmūs ‘Arabī–‘Arabī.* – Electronic dictionary. – Retrieved from: https://www.almaany.com (in Arabic)
4. Dadaboyev, H. (2020). Uzbek Terminology. *O‘zbek terminologiyasi.* – Tashkent: Nodirabegim. – 144 p. (in Uzbek)
5. Dilovarov, R. D., Yorov, J. N., Sayfulloyev, N. N. (2013). Foundations of Tourism. *Asoshoi turizm.* – Dushanbe: DMT. – 244 p. (in Tajik)
6. Mirtojiyev, M., Mahmudov, N. (1992). Language and Culture. *Til va madaniyat.* – Tashkent: O‘zbekiston. – 112 p. (in Uzbek)

7. Nazirjonovich, T. J. (2024). Lexico-semantic Features of the Word Subh (Dawn) in the Hadiths Narrated by Imam al-Bukhari. *Imom al-Buxoriy rivoyat qilgan hadislardagi subh (tong) so'zining leksik-semantik xususiyati.* – [Conference materials]. – (in Uzbek)
8. Nazarzoda, S. (2014). Tajik Terminology: History, Trends and Prospects. *Istilohoti zaboni tojikī: ta'rikh, garoyish va durnamo.* – Dushanbe. – 370 p. (in Tajik)
9. Qurbonov, B. (2025). On Persian Loanwords in the Uzbek Language. *O'zbek tilidagi forscha o'zlashmalar xususida.* – Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 5(3). – pp. 450-455. (in Uzbek)
10. Rahmatovich, A. S. (2024). Pilgrimage Tourism Terms and Their Translation Issues. *Ziyorat turizmi atamalari va ularning tarjima masalalari.* – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari. – pp. 277-283. (in Uzbek)
11. Raxmatovich, A. S. (2025). Linguistic Features of Historical and Modern Terms in the Lexicon of the Tourism Sphere. *Turizm sohasi leksikasida tarixiy va zamonaviy terminlarning lingvistik xususiyatlari.* – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari. – pp. 250-257. (in Uzbek)
12. Sager, J. C. (1990). A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins. – 254 p. (in English)
13. Sanginov, D. Sh. (2013). Tourism in the Republic of Tajikistan: Theory and Practice of Legal Regulation. *Turizm v Respublike Tadzhikistan: teoriya i praktika pravovogo regulirovaniya.* – Dushanbe. – 304 p. (in Russian)
14. Sultonova, R. N., Ahmedov, S. (2021). Effective Technique of Teaching and Learning Arabic Language in the Classroom in Uzbekistan. – Science and Education, 2(5). – pp. 716-724. (in English)
15. Tuxliyev, I. S., Po'latov, M. E., Berdimurodov, A. Sh. (2021). Explanatory Dictionary of Tourism Terms. *Turizm atamalarining izohli lug'ati.* – Samarkand: SamISI. – 252 p. (in Uzbek)
16. Valijon, M. (2025). Ideas of National Identity and Freedom: A Comparison of Nahda and Jadid Literature. *Milliy o'zlik va ozodlik g'oyalari: Nahda va Jadid adabiyoti qiyosida.* – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari. – pp. 346-348. (in Uzbek)

ОТ СРЕДНЕВЕКОВЫХ МЕДРЕСЕ К СОВРЕМЕННОМУ УНИВЕРСИТЕТУ

ЗОХИДУЛЛО МУНАВВАРОВ
Доктор политических наук, профессор, ведущий научный сотрудник Центр исламской цивилизации в Узбекистане

Аннотация. *Система образования в Центральной Азии формировалась с древних времён и отличается своими богатыми историческими и научными традициями. В частности, мактабы и медресе, возникшие в средневековый период, сыграли важную роль не только в развитии религиозных знаний, но и в становлении светских наук. Со временем данные образовательные учреждения совершенствовались, усложняясь как по содержанию, так и по форме, и тем самым заложили основу для формирования современной системы высшего образования. В данном исследовании рассматривается историческое развитие системы образования в Центральной Азии, в частности, процесс возникновения мактабов и медресе, их научное и социальное значение, а также этапы расцвета образования и науки в эпоху Тимуридов. Кроме того, анализируется система дисциплин, преподававшихся в медресе, их научные направления, а также роль этих учреждений как центров знаний в своё время. В ходе исследования также рассматриваются последующие этапы развития системы образования, в частности, факторы кризиса конца XIX века, формирование новой модели образования в XX веке, а также реформы, осуществлённые в период после обретения независимости. При этом особое внимание уделяется роли исторического наследия и национальных традиций в развитии современной системы высшего образования.*

Ключевые слова: *система образования Центральной Азии, медресе, мактаб, высшее образование, научное наследие, эпоха Тимуридов, Ренессанс, Мирзо Улугбек, образовательные реформы, историческое развитие, научные центры, современные университеты, эволюция образования, национальные образовательные традиции*

Abstract. *The system of education in Central Asia has been formed since ancient times and is distinguished by its rich historical and scholarly traditions. In particular, the maktabs and madrasas that emerged in the medieval period played a significant role not only in the development of religious knowledge but also in the advancement of secular sciences. Over time, these educational institutions evolved, becoming more complex in both content and form, and laid the foundation for the emergence of the modern system of higher education. This study examines the historical development of the educational system in Central Asia, with particular attention to the emergence of maktabs and madrasas, their scientific and social significance, as well as the flourishing of education and science during the Timurid period. It also analyzes the system of disciplines taught in madrasas, their academic orientations, and the role of these institutions as centers of knowledge in their time. Furthermore, the study explores later stages of educational development, including the factors that led to the crisis in the late nineteenth century, the formation of a new educational model in the twentieth century, and the reforms implemented in the*

post-independence period. At the same time, special emphasis is placed on the role of historical heritage and national traditions in the development of the modern higher education system.

Keywords: *Central Asian education system, madrasa, maktab, higher education, scientific heritage, Timurid period, Renaissance, Mirzo Ulughbek, educational reforms, historical development, academic centers, modern universities, evolution of education, national educational traditions*

Annotatsiya. *Markaziy Osiyo hududida ta'lim tizimi qadimdan shakllanib, o'zining boy tarixiy va ilmiy an'analari bilan ajralib turadi. Xususan, o'rta asrlarda vujudga kelgan maktab va madrasalar nafaqat diniy bilimlar, balki dunyoviy fanlarning ham rivojlanishida muhim o'rin egallagan. Vaqt o'tishi bilan ushbu ta'lim muassasalari takomillashib, mazmun va shakl jihatidan murakkablashib bordi hamda zamonaviy oliy ta'lim tizimining shakllanishiga zamin yaratdi. Mazkur tadqiqotda Markaziy Osiyoda ta'lim tizimining tarixiy taraqqiyoti, xususan, maktab va madrasalarning yuzaga kelishi, ularning ilmiy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, Temuriylar davrida ta'lim va fan rivojining yuksalish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, madrasalarda o'qitilgan fanlar tizimi, ularning ilmiy yo'nalishlari hamda ushbu muassasalarning o'z davridagi ilmiy markaz sifatidagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot davomida ta'lim tizimining keyingi bosqichlari, xususan, XIX asr oxirida yuzaga kelgan inqiroz omillari, XX asrda yangi ta'lim modelining shakllanishi hamda mustaqillikdan keyingi davrda amalga oshirilgan islohotlar ham tahlil etiladi. Shu bilan birga, zamonaviy oliy ta'lim tizimining rivojlanishida tarixiy meros va milliy an'analarning o'rni alohida ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo ta'lim tizimi, madrasa, maktab, oliy ta'lim, ilmiy meros, Temuriylar davri, Renessans, Mirzo Ulug'bek, ta'lim islohotlari, tarixiy taraqqiyot, ilmiy markazlar, zamonaviy universitetlar, ta'lim evolyutsiyasi, milliy ta'lim an'analari*

Реализуемая в последние годы в Узбекистане программа комплексного развития системы высшего образования, принятая по инициативе Президента Ш.М. Мирзиёева, в первую очередь, нацелена на повышение качества высшего образования, создание условий для вхождения национальных высших учебных заведений в число лучших ВУЗов мира. Можно сказать, что в этом смысле она призвана возродить славу многовековой национальной системы высшего образования. В этом процессе важную роль могут сыграть новые высшие учебные заведения, создаваемые в Новом Узбекистане. Ташкентский государственный университет востоковедения, являясь одним из них, имеет все возможности стать авангардом этого процесса.

Большинство исследователей склоняются к тому, что возникновение медресе было вызвано объективной необходимостью распространения и укрепления новой для Центральной Азии религии – ислама. Считается также, что это было необходимо для формирования единой системы управления обширными территориями, завоеванными арабами. Решающая роль в обоих случаях, безусловно, принадлежала хорошо обученным грамотным людям из числа местного населения.

При крупнейших мечетях нашего региона уже в VIII-IX веках стали формироваться коллекции книг на арабском языке. Стремление к освоению их содержания привело к формированию при них образовательных учреждений, получивших название мактаб. Постепенно совершенствуясь, мактабы стали приобретать новые формы в виде частных школ и выполнять функцию учреждений среднего образования. Обучаясь в них, молодежь готовилась к учебе в образовательных заведениях более высокого уровня – медресе.

Первые достоверные сведения о медресе, условно сравнимом по своему академическому уровню с современными высшими учебными заведениями, встречаются в книге автора X века Абу Бакра Мухаммада Наршахи – «История Бухары». В XI веке медресе в Центральной Азии исчислялись уже десятками. Большинство из них находились в главных научно-культурных центрах Мавераннахра – Самарканде, Бухаре и некоторых других городах.

Возникновение и бурное развитие медресе – своеобразных высших учебных заведений логично рассматривать в качестве неотъемлемого составляющего научно-культурного феномена, имевшего место в IX-XII вв. и оцениваемого ученым миром как первый «Центральноазиатский Ренессанс». Несомненно, что система образования лежала в основе этого феномена. Особый успех процессов развития медресе в Мавераннахре дал основание исследователям утверждать, что именно Центральная Азия является одним из мест, где зародились первые высшие учебные заведения.

Основные предметы, включенные в учебную программу медресе, помимо Корана, хадисов, фикха, калама и других религиозных дисциплин, делились на пять групп: языкознание, логику, пропедевтику, физику и метафизику, а также антропологию. Широта спектра научных направлений, включенных в каждую из них, поражает воображение даже современного человека. В группу пропедевтики, например, входили такие предметы, как теория и практика арифметики, геометрия, оптика, астрология, музыка, поэзия и инструментоведение. Языкознание включало в себя такие разделы, как фонетика, синтаксис, грамматика, риторика, поэтика и др.

IX-X века для Мавераннахра стали временем появления большого числа медресе. В одном только Самарканде их было создано целых семнадцать. Немало медресе было возведено и в Бухаре. Слава медресе Мавераннахра в этот период истории распространилась далеко за его пределы. Это стало причиной приезда представителей зарубежный стран с целью получения образования в них. Известно, например, что выдающийся математик и литератор Омар Хайям (1048-1131), приехавший в Самарканд в юношеском возрасте, учился в одном из местных медресе. Находясь в этом городе, примерно в 1070 г., он написал один из своих математических трактатов – Рисала фи-л-барахин аъла масаил ал-джабр ва-л-мукабала («Трактат о доказательствах задач алгебры и уравнения») и посвятил его тогдашнему главному кадию Самарканда Абдурахману бин Алаку (1039-1091).

Приведенный факт указывает на важное место, которое отводилось преподаванию естественных и точных наук в медресе Мавераннахра. Иначе трудно объяснить написание Хайямом математического труда, посвященного главному шариатскому судье Самарканда, который, вероятнее всего, был одним из его учителей. Есть все основания утверждать, что ведущие позиции Мавераннахра среди научно-культурных центров мусульманского мира в IX-XII веках были обеспечены, помимо других факторов, успешным функционированием в них многочисленных медресе – учреждений высшего образования своего времени.

Но столь впечатляющее развитие медресе в регионе было прервано в начале XIII века монгольским нашествием. А новое возрождение, ставшее результатом прихода к власти великого государственного деятеля Амира Темура, началось только во второй половине XIV века. Продолжавшееся в XV веке при его наследниках, оно характеризуется учеными как «Второй Ренессанс». Одной из его особенностей стало возрождение и дальнейшее развитие учреждений высшего образования. В период правления Амира Темура и его

потомков были возведены великолепные медресе, дополнившие и обогатившие инфраструктуру национальной системы образования. Можно даже говорить о том, что в данную эпоху они начали специализироваться в определенных областях. Например, медресе Мухаммада Султана (построено до 1401 г.), говоря современным языком, занималось подготовкой управленческих кадров, а медресе Кутбиддина-садра – кадров для религиозных учреждений. Подготовка учителей и других специалистов считалась сферой деятельности медресе Сараймульк-ханым или Биби-ханым (построено в 1400-1407 гг.), Идигу Темура и др.

Правление Мирзо Улугбека (1411-1449) стало временем наивысшего расцвета науки и образования эпохи Темуридов. По его распоряжению был построен ряд крупных медресе, в т. ч. в Бухаре (1417), Самарканде (1420) и Гиждуване (1433). Примечательно, что все они сохранились до наших дней. Медресе Улугбека в Самарканде исследователи склонны интерпретировать в качестве части всеобъемлющего комплекса, который был задуман его создателем как своеобразная академия, а не просто очередное учреждение высшего образования.

Энциклопедическая ученость правителя создавала особую атмосферу для развития системы образования. Он принимал личное участие в преподавательской деятельности и старался сам контролировать процессы отбора ученых, привлекаемых к преподаванию в свою медресе. Источники сообщают о поучительной истории, случившейся при назначении одного из мударрисов в построенное им в Самарканде медресе. Когда был объявлен конкурс на эту должность, в нем изъявил желание участвовать некий Шамс-ад-дин Мухаммад Хавафи. С дозволения государя ему было предложено выступить с лекцией о собственной концепции преподавания. На лекции, посвященной науке «Маджасти» (арабизированная версия названия знаменитого астрономического труда древнегреческого ученого II века Клавдия Птолемея Almagest), основанной на арабской версии труда Птолемея по астрономии «Великий свод», присутствовала вся научная элита Самарканда, включая самого Улугбека.

Предложенная Хавафи концепция была настолько глубоко научной и фундаментальной, что ее истинную суть смогли достойно оценить только сам Улугбек и его учитель Кази-заде Руми. Претендент, естественно, получил искомую должность. Примечательно, что преподавательской деятельностью в самаркандском медресе Улугбека занимались такие светила математики, астрономии, геометрии, как уже упомянутый Кази-заде Руми, Гияс ад-дин Джамшид Каши, Хусейн Бирджани, Али Кушчи, а также прославленные мастера художественного слова –Джами, Лютфи, Саккаки и много других знаменитостей.

Наиболее одаренным студентам предоставлялось право преподавать в учебном заведении, в котором они обучались. Такой высокой чести были удостоены, например, будучи студентами самаркандского медресе Улугбека – великий математик и астроном Али Кушчи (1402-1474), а также один из мировых гигантов художественного слова, друг и учитель Алишера Навои – Нуриддин Абдурахман Джами (1414-1492). Оба по окончании учебы в медресе были оставлены в нем и служили в качестве преподавателей в течение достаточно продолжительного периода времени.

Особое внимание в деятельности медресе и других научных учреждений при Улугбеке уделялось формированию в них библиотек и их постоянному пополнению ценными книгами. В библиотеке медресе и обсерватории Улугбека – своеобразной академии XV века, было собрано более 15 тысяч томов рукописных книг по различным наукам. К

сожалению, в силу исторических обстоятельств, они не дошли до нас. Существует версия о том, что основная часть этих рукописей после смерти Улугбека была увезена его учеником и продолжателем его научного дела Али Кушчи в Стамбул.

Слава обсерватории Самарканда была настолько велика, что султан Мехмет II без колебаний назначил его на престижную должность мударриса в медресе при мечети Ая-Сафия. Примечательно, что за свою короткую двухлетнюю жизнь в Стамбуле Али Кушчи успел размножить главный труд своего учителя Мирзо Улугбека «Зиджи джадиди Гурагани» («Новые Гурагановые таблицы») в многочисленных копиях и перевести его на тюркский язык.

В XV-XVI вв. ряд медресе функционировали также в Герате, входившем в состав темуридских государств. Наиболее известными из них были: медресе Гийасиййа, Амира Феруз-шаха, Амира Гийаса Бахши, Шахрухиййа, Низамиййа, Шифа'иййа, Ихласиййа и др. Динамичному развитию системы образования, в т. ч. высшего образования в Герате, способствовала активная просветительская деятельность выдающегося мастера художественного слова, основателя узбекской литературы и влиятельного государственного деятеля Алишера Навои. Возведенное на его личные средства медресе Ихласиййа считалось одним из образцовых высших учебных заведений своего времени.

В начале XVI века правителем Самарканда Мухаммадом Шейбани-ханом было построено еще одно высшее мусульманское учебное заведение, названное медресеи алийе – высшее медресе. Названный век стал также весьма урожайным в развитии медресе и в Бухаре. Здесь было возведено немало учебных заведений данного типа, прославившихся не только в Мавераннахре, но и в других частях мусульманского мира. К наиболее известным из них относятся: медресе Мир-Араб, Кульбаба Кукельдаш, Кош-медресе.

Не менее урожайным в развитии высшего образования стал XVII век. В Самарканде были построены медресе кадийа Соки, Надира Диван-беги, Шердор, Саййида Ахмад-ходжи, Тилля-кари и др. А в Бухаре были возведены такие известные медресе, как Магоки-курпа, Абдулазиз-хан, Хийабан, Базари-гусфанд и Джуйбари-калан. В Хиве – медресе Араб-Мухаммад-хана и Ходжамберди-бия, десятки медресе были построены и функционировали в крупных городах Ферганской долины. Число студентов в некоторых из медресе XVII века достигало нескольких сотен человек. По образному выражению автора XVII века Махмуда ибн Вали, знания и мудрость, по-прежнему, считались «товаром Мавераннахра».

В XVIII веке в Бухаре были построены новые медресе Боло-хауз, Рахманкули, Домуллы Эрназара-элчи, Домуллы Турсунджана. В Хиве были возведены известные медресе Шергази-хана, Мухаммада Амина-инака, Фазыл-бека и др.

Активное движение по возведению медресе продолжилось и в первой половине XIX веке, когда были построены такие знаменитые медресе, как Чор минор в Бухаре и эмира Хайдара в Самарканде. Целый ряд медресе был построен в Хиве, в т. ч. Эшмурад-бия, Аллакули-хана, Арабхан-саркара, Нияза-ясаулбаши, Якуба-мехтара, Муса-туры, Саййид-бия, Рахим-кули, Рахманберды-хана, Мухаммад Амин-хана и др.

В Ташкенте в XIX веке функционировало более 15 медресе. Самым большим и влиятельным среди них считалось медресе Баракхана, построенное еще в XVI веке. Славились и другие медресе Ташкента, построенные, в основном, в XIX веке. В их числе были медресе Шукур-хана, Ишанкули-дадхаха, Беклар-беги, Дегрез и др. В целом же, по различным источникам, в XIX веке только в пределах Бухарского эмирата функционировало более ста, в в Кокандском ханстве – свыше шестидесяти медресе.

Завоевание Туркестана царской Россией во второй половине XIX века стало поворотным моментом в истории развития национальной системы образования. Открыто враждебное отношение к арабской письменности как фактору, затрудняющему полноценную интеграцию вновь завоеванного края в метрополию, оказало негативное воздействие на развитие традиционных национальных образовательных учреждений, функционировавших в течение столетий. Совокупность названных и других неблагоприятных факторов привела к тому, что вторая половина XIX века стала началом упадка в развитии традиционной системы высшего образования. Она стала временем утери свойственных региону ведущих позиций в исламском мире. Изложенные факты показывают, что до установления советской власти в нашем регионе был накоплен богатый опыт развития системы образования, в т. ч. высшего. Она подарила человечеству не одну плеяду выдающихся ученых, обогативших своими трудами мировую науку. Утверждения о культурной отсталости народов Туркестана накануне Октябрьского переворота 1917 года и чуть ли не поголовная безграмотность его населения, составлявшие главные тезисы, использованные советской пропагандой как доказательство якобы благотворного влияния упомянутого переворота на наш край, были лишены всякой почвы.

Вместе с тем, сам ход исторического развития в начале XX века свидетельствовал о приближении неизбежных перемен в сфере образования. Создание в 1918 году Народного университета Туркестана, возвысившегося за прошедшее столетие до Национального университета Узбекистана, открыло новую страницу в развитии образования. Она сильно отличалась от предыдущих этапов, проникнутых национальными и религиозными традициями. В основу новой системы образования вообще и, высшего образования, в частности, был положен принцип европеизации.

Итоги динамично углубляющихся в сфере высшего образования Узбекистана реформ за истекший год проявились, в частности, в увеличении общего количества высших учебных заведений вместе с их филиалами до впечатляющей для страны цифры – более 220 включая филиалы зарубежных высших учебных заведений. Принимаются действенные меры к укреплению и модернизации материально-технической базы ВУЗов, создаются условия для поднятия профессионализма их профессорско-преподавательского состава до уровня современных требований.

Важно, что реформы системы образования охватили также сферу духовно-религиозного просвещения. Создание по инициативе Руководителя нашего государства таких научно-просветительских и духовно- культурных учреждений, как Центр исламской цивилизации, международные научно-исследовательские центры Имама Бухари и Имама Термези, Международной академии исламоведения, а также восстановление статуса Медресе Мир-Араб в качестве учреждения высшего религиозного образования, создание Высшей школ хадисоведения, центров исламской экзегетики, теологии и права, оказывают благотворное влияние на развитие образования, в целом и, высшего образования, в частности.

Есть все основания надеяться, что прилагаемые в сфере образования конструктивные усилия способны возродить славные многовековые традиции национальной системы высшего образования. Такая уверенность подкрепляется наличием богатого национального опыта в развитии данной сферы и заложенностью в генах нашего народа глубоких традиций просвещенности и учености.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Narshakhī, Muḥammad ibn Ja‘far. The History of Bukhara (Tārīkh Bukhārā). 320 p. (in Arabic)
2. Ibn Baṭṭūṭa. A Gift to Those Who Contemplate the Wonders of Cities and the Marvels of Travelling (Tuḥfat al-Nuẓẓār fī Gharā’ib al-Amṣār wa ‘Ajā’ib al-Asfār). 725 p. (in Arabic)
3. Mīrkhwānd. The Garden of Purity (Rawḍat al-Ṣafā’). 7 vols. (in Persian)
4. Bobrovnikov, N. A. (1913). Russian-Native Schools, Maktabs and Madrasas of Central Asia: Travel Notes. Saint Petersburg. 156 p. (in Russian)
5. Frye, R. N. (1996). The Heritage of Central Asia. Princeton: Princeton University Press. 328 p. (in English)
6. Nizamutdinov, Sh. (2000). History of Madrasas in Central Asia. Tashkent. 210 p. (in Russian)
7. Sadullaev, A., & Sotliqov, A. (2003). Historical Roots of the Khorezm Ma’mun Academy. Urgench. 180 p. (in Uzbek)
8. Rajabov, Q. (2005). History of Madrasa Education in Central Asia. Tashkent. 240 p. (in Uzbek)
9. Mirzaev, B. (2010). History of Bukhara Madrasas. Bukhara. 198 p. (in Uzbek)
10. Abdukhaimov, E. F. (2010). Madrasas in the Turkestan Region at the End of the 19th Century. Shymkent. 165 p. (in Russian)
11. Yuldashev, A. (2014). Samarkand Madrasas and Their Scholarly Environment. Samarkand. 220 p. (in Uzbek)
12. Nemtseva, N. B. (2015). Origins of Madrasas in Central Asia. Tashkent. 256 p. (in Russian)
13. Mustafaeva, A. A. (2016). Maktabs and Madrasas in the Educational System of Central Asia. Almaty. 230 p. (in Russian)
14. Vokhidov, Sh. Kh. (2017). The Library of the Mirzo Ulughbek Madrasa in Bukhara. Tashkent. 150 p. (in Russian)
15. Jumanazar, A. (2017). History of the Bukhara Education System. Tashkent: Akademnashr. 275 p. (in Uzbek)
16. Karimov, Sh. (2018). History of Central Asian Madrasas. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan. 300 p. (in Uzbek)
17. Munavvarov, Z., Karimova, S., et al. (2022). Scientific Centers of Mawarannahr. Tashkent: International Islamic Academy of Uzbekistan. 350 p. (in Uzbek)

TULUNIYLAR AMIRLIGIDA IJTIMOIY MADANIY HAYOT

SHAVKAT IKROMOV

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, TDSHU

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Tuluniylar amirligidagi ijtimoiy va madaniy hayot tahlil qilinadi. Davlat tuzilishi, ijtimoiy tabaqalar, bag‘rikenglik siyosati va ilm-fan rivoji yoritilgan. Shuningdek, Ahmad ibn Tulun faoliyati, shaharsozlik, tibbiyot va madaniyat sohasidagi yutuqlar misolida ushbu davrning ahamiyati ochib berilgan. Turkiy omilning Misr tarixidagi o‘rni asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Tuluniylar amirligi, Ahmad ibn Tulun, ijtimoiy hayot, madaniyat, bag‘rikenglik, Misr tarixi*

Abstract: *This article analyzes the socio-cultural life of the Tulunid Emirate. It highlights state structure, social classes, tolerance policies, and scientific development. The role of Ahmad ibn Tulun,*

achievements in urban planning, medicine, and culture are examined. The study emphasizes the significance of the Turkic factor in Egyptian history and its broader civilizational impact.

Keywords: *Tulunid Emirate, Ahmad ibn Tulun, social life, culture, tolerance, Egyptian history*

Аннотация: *В данной статье анализируются общественная и культурная жизнь Тулунийского эмирата. Освещаются государственное устройство, социальные слои, политика веротерпимости и развитие науки. Кроме того, на примере деятельности Ахмада ибн Тулуна, достижений в области градостроительства, медицины и культуры раскрывается значение данного периода. Обосновывается роль тюркского фактора в истории Египта.*

Ключевые слова: *Тулунийский эмират, Ахмад ибн Тулун, общественная жизнь, культура, веротерпимость, история Египта*

Kirish. Misr va O‘rta Osiyo o‘rtasidagi tarixiy aloqalar asrlar davomida turli siyosiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlar orqali shakllanib kelgan. Ayniqsa, turkiy xalqlar, jumladan o‘zbeklar ajdodlari tomonidan Misrda barpo etilgan sulolalar bu munosabatlarning eng yorqin na’munasidir. Tuluniylar amirligi ana shunday tarixiy bosqichlardan biri bo‘lib, u nafaqat siyosiy mustaqillik, balki ijtimoiy va madaniy taraqqiyot nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek urug‘lari tashkil qilgan sulolalar va ulardan yetishib chiqgan olimu fozillar, savdogar va xarbiy qo‘mondonlarning Misr davlatchilik tarixida tutgan o‘rnini o‘rganish ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy yaqinlik va ma’naviy bog‘liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi. Chunki turkiy qo‘mondonlar va davlat arboblari Misrda faqat harbiy kuch sifatida emas, balki davlat boshqaruvi, shaharsozlik, ilm-fan va madaniyat rivojiga hissa qo‘shgan muhim ijtimoiy qatlam sifatida namoyon bo‘lgan. Ular voliylik, amirlik va qo‘mondonlik kabi yuqori lavozimlarni egallab, mamlakat hayotining turli sohalarida faol ishtirok etganlar.

Asli buxorolik bo‘lgan Ahmad ibn Tulun tomonidan asos solingan Tuluniylar amirligi qoldirgan me’rosni Markaziy Osiyo va Misr o‘rtasidagi aloqalarning amaliy ifodasi sifatida qabul qilish mumkin. Tuluniylar amirligi boshqaruv yillarida Misrda markazlashgan davlat tizimi shakllanib, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy muvozanat va madaniy yuksalish ta’minlangan. Bu davrda yangi shaharlar qurilishi, ilmiy muhitning rivojlanishi, turli din va millat vakillari o‘rtasida bag‘rikenglik muhitining shakllanishi kuzatiladi.

Shu nuqtayi nazardan, Tuluniylar amirligidagi ijtimoiy va madaniy hayotni o‘rganish nafaqat Misr tarixi, balki umumturkiy sivilizatsiya tarixi uchun ham muhimdir. Mazkur mavzu orqali turkiy, jumladan o‘zbek ajdodlarining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini ochib berish, ularning davlatchilik va madaniyat sohasidagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslash imkoni paydo bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqotda Ahmad ibn Tulun va Tuluniylar amirligi tarixi, uning ijtimoiy va madaniy jihatlarini yoritishda bir qator ilmiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlarga tayanildi. Ushbu manbalar shartli ravishda asosiy (birlamchi) va yordamchi (ikkilamchi) adabiyotlarga ajratib tahlil qilindi.

Birlamchi manbalar tahlili: mazkur maqolaning asosiy manbalaridan biri Abu Abdulloh Muhammad al-Balaviyning “Siyrat Ahmad ibn Tulun” asari hisoblanadi. Ushbu asar Ahmad ibn Tulun hayoti va faoliyatini qamrab olgan eng muhim manbalardan biri bo‘lib, unda hokimning siyosiy maydonga chiqishi, Misrga kelish jarayoni va hokimiyatni mustahkamlashi izchil bayon etilgan. Asarda, shuningdek, uning shaxsiy fazilatlari, davlat boshqaruvidagi siyosati hamda amalga oshirgan qurilish ishlari, jumladan, Ibn Tulun Jomesining va “bimoriston” barpo etilishi, ularga sarflangan mablag‘lar, harbiy tizim va “qatai’” deb atalgan ma’muriy-harbiy tuzilmalar haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi muhim manba, Taqiy ad-Din al-Maqriziyning “al-Muqaffa al-Kabir” asaridir. Unda Ahmad ibn Tulun va uning o‘g‘li Xumaroyh haqida muhim tarixiy ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, al-Maqriziyning “al-Mavo’iz va-l-i’tibor bi-zikr al-xitat va-l-asar” asari ham alohida ahamiyatga ega. Unda Misrning ijtimoiy hayoti, bayramlari, marosimlari, poytaxt shaharlari (Fustot, al-Askar, al-Qatai’ va Qohira) va ularning topografiyasi batafsil yoritilgan.

Shuningdek, Ibn Tag‘riy Bardiyning “an-Nujum az-Zohira fi muluk Misr va-l-Qohira” asari ham tadqiqotda muhim o‘rin tutadi. Ushbu asarda Misr tarixi islom fathidan to IX hijriy (XV milodiy) asrgacha bo‘lgan davr qamrab olingan bo‘lib, har bir hukmdorga alohida biografik ma’lumotlar berilgan.

Ikkilamchi adabiyotlar tahlili: Tadqiqotda zamonaviy ilmiy adabiyotlardan ham keng foydalanildi. Jumladan, doktor Sayida Ismoil Kashifning “Ahmad ibn Tulun” asari muhim manbalardan biri hisoblanadi. Muallif ushbu asarda Ahmad ibn Tulun shaxsiyati, davlatning siyosiy va ijtimoiy tuzilishi, ma’muriy, moliyaviy va harbiy tizimlari hamda tashqi siyosiy aloqalarini chuqur tahlil qilgan.

Shuningdek, Hasan Ahmad Mahmudning “Hadorat Misr al-Islomiya (al-‘asr at-Tuluniy)” asarida Tuluniylar tarixi yoritilgan. Unda davlatning tashkil topishi, rivojlanishi va tanazzuli jarayonlari hamda ushbu davrdagi Misr sivilizatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, Ali Ibrohim Hasanning “Misr fi al-‘usur al-vusta” asari ham tadqiqotda muhim ahamiyatga ega. Asarda Misr tarixi keng qamrovda yoritilib, Tuluniylar davlatiga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Natijalar. Abbosiylar xalifaligi davrida asli buxorolik Ahmad ibn Tulun oilasi Misrda mustaqil amirlik barpo etib, 868 (254 hijriy) yili mustaqil Tuluniya amirligiga asos soldi. Bu oila Misrda o‘ttiz sakkiz yil hukmronlik qildi. Bu yillar Misr tarixida yorqin iz qoldirgan davr hisoblanadi. Sulola asoschs Ahmad ibn Tulun to‘g‘ridan-to‘g‘ri turkiy o‘g‘uzlardan kelib chiqqan bo‘lib, manbalarga ko‘ra, uning qabilasi bilan Abbosiylar o‘rtasida yuz bergan to‘qnashuv natijasida Tulun asirga tushgan va Buxoro hokimi Nuh ibn Asad as-Somoniy huzuriga olib kelingan. U esa uni Abbosiy xalifasi Ma’munga yuborgan.

O‘sha davrda viloyat hokimlari xalifaga soliq (jizya) bilan birga qullar ham yuborish odati mavjud bo‘lgan. Shu munosabat bilan Nuh ibn Asad Tulunni ham qul sifatida al-Ma’munga yuborgan (200 h./815 m.). Ayrim manbalarda, xususan Ibn Kasir ma’lumotiga ko‘ra, Tulun bundan ham oldinroq - Horun ar-Rashid davrida (190 h./805 m.) xalifa huzuriga keltirilgan. (Ibn Kathir, 1966, vol. 11, p. 45)

Tulun o‘zining aql-zakovati, jasorati va zehnliligi bilan xalifalar e’tiborini qozongan. Xalifa al-Ma’mun uning xizmatlarini yuqori baholab, unga ko‘plab in’omlar bergan. Natijada u “amir as-sitr” (أمير الستر), ya’ni shaxsiy gvardiya (maxsus qo‘riqchilar) qo‘mondoni lavozimigacha ko‘tarilgan. Tulun ushbu lavozimda taxminan yigirma yil xizmat qilgan bo‘lib, bu davrda u al-Ma’mun va al-Mu’tasim hukmronligi davrida o‘z sadoqati va ishonchliligi bilan ajralib turgan (Ahmad, 2004, pp. 87-88)

Tulunilar amirligi hijriy 254-yil (milodiy 868-y.)da Ahmad ibn Tulunning Misrda hokimiyatni qo‘lga olishi bilan shakllana boshladi. Uning hukmronligi (254–270 h./868–884 m.) davrida davlatning siyosiy va harbiy asoslari mustahkamlandi.

Chegara hududlari (as-sug‘ur – الثغور) da vaziyat izdan chiqqanligi sababli Abbosiylar xalifasi al-Mu’tamid Ahmad ibn Tulunga Shom chegaralarini boshqarish va mustahkamlash vazifasini yukladi. Shu munosabat bilan Ibn Tulun 264 h./877 m.da katta qo‘shin bilan Tarsus (طرسوس) shahriga yo‘l oldi. Biroq uning qo‘shini ko‘pligi tufayli shaharda oziq-ovqat narxlari keskin oshdi

va aholi uchun yashash sharoiti og‘irlashdi. Shunda Tarsus ahli unga murojaat qilib, shaharning bunday katta harbiy kuchni ta’minlash imkoniyati cheklanganini bildirdilar. Ular undan yo kam sonli guruh bilan qolishini, yoki shaharni tark etishini talab qildilar. Ahmad ibn Tulun vaziyatni tushunib, muloyim munosabat bildirdi, aholiga duo qildi va Misrga qaytishni ma’qul ko‘rdi.

268 h./881 m.da uning vakili Xalaf al-Farg‘oniy (خلف الفرغاني) Shom chegaralari tomonidan yozgi harbiy yurish (soifa) uyushtirib, Vizantiya (ar-Rum) qo‘shinlariga qarshi jang qildi, katta o‘lja bilan qaytdi. Bu davrda Tulunilar davlati Abbosiylar xalifaligi va boshqa mintaqaviy kuchlar bilan nisbatan zaif siyosiy aloqada bo‘lgan bo‘lsa-da, chegara xavfsizligiga jiddiy e’tibor qaratdi.

Ibn Tulun vafotidan keyin hokimiyatga bir necha amirlar kelib-ketishi davlat markaziy boshqaruvining zaiflashuviga olib keldi. Oqibatda Tulunilar amirligi 293 h./905 m.da tugatildi.

Amirlikdagi ijtimoiy hayot. Tuluniylar amirligidagi faol siyosiy hayotdan tashqari o‘ziga xos ijtimoiy madaniy muhit ham kuzatilgan. Nazariy jihatdan qaralganda, o‘sha davrdagi tinchlik va iqtisodiy taraqqiyot mamlakatda ijtimoiy madaniy muhitning sog‘lom rivojlanishiga ta’sir o‘tkaza olgan. Bu davrida jamiyat bir necha ijtimoiy tabaqalardan tashkil topgan bo‘lib, ular o‘rtasidag iliq munosabatlarni saqlash amirlik oldida turgan asosiy masalalardan biri bo‘lgan. Amirlikning asoschisi va harbiy elita turkiylardan bo‘lganligi sabab ijtimoiy siyosiy munosabatlarda ularning mavqiyi yuqori edi.

Xususan ular orasida eng yuqori martabada **ashroflar** e’tirof etilgan bo‘lib ular yirik mulkdorlar tabaqasini tashkil qilgan. Bu tabaqa, asosan, davlatda yuqori mavqega erishgan turk aslli harbiy va ma’muriy qatlam vakillaridan iborat bo‘lgan. Ular Tulunilar davlatining barpo etilishida muhim rol o‘ynab, katta siyosiy nufuz va iqtisodiy boylikka ega bo‘lganlar. Shu bois, ular amirlar va xalq tomonidan katta ehtiromga sazovor bo‘lib, farovon va hashamatli hayot kechirganlar.

Ahmad ibn Tulun harbiy qo‘mondonlarga va davlat xizmatchilariga turli ma’muriy vazifalar yuklagan. Jumladan, qullar (g‘ulomlar), hojiblar (hajab – الحجاب) va boshqa amaldorlar orasida yuqori lavozimlar taqsimlangan. Bu esa ularning davlatdagi mavqeini yanada oshirgan.

Tarixchi Ibn Tag‘riy Bardiyning ma’lum qilishicha, Xumaroyh va uning o‘g‘illari davrida qo‘mondonlar ham Foiqdan kam bo‘lmagan darajada boy va nufuzli bo‘lgan. Masalan, Badr va Sofi katta boylikka ega bo‘lib, ularning asosiy mashg‘uloti nafis kiyinish va xayr-ehson ishlarida o‘zaro raqobat qilish bo‘lgan.

Badr Qohiradagi qadimiy jome masjidi yaqinida mashhur tahoratxona qurdirgan va uning uchun maxsus bozor (qaysariya) va vaqf mulklari ajratgan. Uning sadaqalarini tarqatish ishlari bilan Lays ibn Dovud shug‘ullangan bo‘lib, kambag‘allar guruh-guruh bo‘lib uning uyiga – “Dor al-Lays” ga yo‘l olganlari manbalarda qayd etilgan.

Bundan tashqari, ushbu tabaqaga mansub shaxslar davlat tomonidan maosh va mukofotlar olganlar. Ayrimlari yerlarni ijaraga olib foydalangan yoki keng hududli mulklarni sotib olganlar. Shuningdek, amir atrofidagi shaxslar ham o‘z tarafdorlariga ehsonlar va sovg‘alar taqdim etganlar, bu esa ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash vositasi bo‘lgan (Al-Misrati, 2010, p. 132).

Tulunilar davrida Misr ijtimoiy hayotida yana bir muhim tabaqa shakllandi. Bu zimmiylar tabaqasi edi. **Zimmiylar** tabaqasi asosan qibtiylar, yahudiylar va nasroniylardan tashkil topgan bo‘lib, ular Tulunilar davrida nisbatan teng huquqli munosabatga ega bo‘lganlar. Ularga musulmonlar bilan teng asosda munosabat qilingan va Ahmad ibn Tulun ular bilan musulmonlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik muhitini saqlashga alohida e’tibor qaratgan. Ular, Ibn Tulun davrida yaxshi munosabat va keng bag‘rikenglikdan bahramand bo‘lganlar. Bu esa ularga uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lmagan osoyishtalik va xotirjamlik muhitini yaratgan.

Ahmad ibn Tulun ularga nisbatan soliq yukini yengillashtirish choralarini ko‘rgan. Buning dalili sifatida u moliya amaldori Ibn al-Mudabbirga maktub yo‘llab, qibtiylarga yuklangan soliqlarni yengillashtirishni talab qilgan (Al-Balawi, n.d., pp. 206-207).

Ahmad ibn Tulunning zimmiylarga nisbatan bag‘ri kengligiga yana bir misol sifatida tarixchi Ibn Tag‘riberdi keltiradi: Ahmad ibn Tulun Damashqga kirgan paytda, uning huzurida Abu Zar’a al-Basriy va kotibi Abu Abdulloh Ahmad al-Vositiy bo‘lgan. Shu vaqtda Maryam ona cherkovida yong‘in sodir bo‘lgan. Shunda Ahmad o‘z shaxsiy mablag‘idan 70 ming dinor ajratib, zarar ko‘rgan har bir shaxsga tovon to‘lashni buyurgan. Bu jarayonda da’volar tekshirilmasdan qabul qilingan va zarar ko‘rganlarga to‘liq kompensatsiya berilgan. Natijada hatto 14 ming dinor mablag‘ ortib qolgani qayd etiladi.

Shu bilan birga, qibtlar o‘zlarining ayrim imtiyozlarini saqlab qolganlar. Ular sanoat va hunarmandchilik sohasida yuqori malakali mutaxassislar bo‘lib qolganlar va davlat boshqaruvida ayrim lavozimlarni ham egallab turganlar. Masalan, Ahmad ibn Tulun nasroniy kotib Said ibn Kotib al-Farg‘oniyga bir masjid qurilishini topshirgan.

Bu davrda qibtiylar nisbatan adolatli munosabat ko‘rsatilgan, hukumdor oila vakillari qibtiylarning diniy bayramlarida ishtirok etganlar, bu esa ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlagan. Ahmad ibn Tulun vafot etganida esa qibtlar va rohiblar uning o‘limiga chuqur qayg‘u bildirganlar.

Yahudiylar. Yahudiylarga ham bu davrda yaxshi munosabat ko‘rsatilgan, xavfsizlik va osoyishtalik muhitida yashaganlar. Yahudiylar jamiyatning muhim tarkibiy qismiga aylanganlar va ularning ayrim vakillari katta boylikka ega bo‘lib, ayniqsa pul muomalasi va sarroflik (valyuta ayirboshlash) sohasida katta muvaffaqiyat qozonganlar.

Yahudiylar Fustot va al-Qatai’ bozorlarida sarroflik va tijorat bilan shug‘ullanganlar. Shuningdek, ular orasida ilm-fan sohasida ham yetuk shaxslar bo‘lgan. Masalan, misrlik yahudiy tabib Is’hoq ibn Sulaymon 320 h./932 m.) Afrika (Ifriqiya)ga ko‘chib o‘tishga ruxsat olgan va Qayravon shahrida istiqomat qilgan. U yerda u Ag‘labiylar amiri Ziyodatulloh ibn al-Ag‘lab bilan aloqa o‘rnatgan.

Yahudiylar qibtiylar bilan birgalikda ularning diniy marosimlarida ham ishtirok etganlar. Masalan, Ahmad ibn Tulun qibtiylar qabristonlarini buzib, ular o‘rnida saroy qurdirmoqchi bo‘lganida, yahudiylar va qibtiylar birgalikda Tavrot va Injilni ko‘targan holda Muqattam (جبل المقطم) tog‘iga chiqib, Allohdan Ahmad ibn Tulunga shifo berishni so‘rab duo qilganlar (u vaqtda u kasal edi). (Kashif, 1983, p. 340)

Xulosa qilib aytganda, Ahmad ibn Tulun va avlodlarining boshqaruv davrida amirlikda ijtimoiy hayot barqaror va muvozanatli tarzda shakllangan bo‘lib, turli tabaqalar o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik ta’minlangan. Turkiy harbiy elita yuqori mavqega ega bo‘lgan bo‘lsa-da, zimmiylar - qibtiylar va yahudiylarga nisbatan bag‘rikenglik ko‘rsatilib, ularning huquqlari himoya qilingan. Jamiyatda farovonlik, adolat va tinchlik muhiti ustuvor bo‘lgan.

Tuluniylarning madaniyat va ma’rifat rivoji yo‘lidagi faoliyati. Ma’lum-ki, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik ta’minlangan jamiyatda madaniyat va ilm-fan yuksaladi. Xuddi shu holat tuluniylar amirligida ham kuzatilgan. Axmad ibn Tulun iqtisodiy ijtimoiy barqarorlikka qisman bo‘lsada erishganidan so‘ng, amirlikdagi madaniy ma’rifiy muhitni yaxshilab uni rivojlantirishga intildi. Islomdagi aqida va fiqh hamda hadisshunoslik, sheriyat va tarix ilmlari, aniq fanlar xususan tibbiyot kabi sohalarning rivojlanishiga sulola amirlarining shaxsan o‘zlari homiylik qilganlar. Quyida ularning ayrimlaridan misollar keltiramiz.

Diniy ilmlar. Tuluniylar amirligida, Mazkur masala bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki amirlikda diniy ilimlarning ravnaq topishi uchun yaxshi sharoit yaratilgan. Umuman olganda

Hijriy III asrda, Misr va Shomda diniy ilmlar keng rivojlangan edi o‘z o‘rnida tuluniy ukmdorlar ham ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlab, ilmiy muhitni rag‘batlantirdilar.

Ahmad ibn Tulun Qur’onni yodlash va uni o‘rganishga alohida e’tibor qaratgan. U qurdirgan masjid ilmiy markazga aylanib, u yerda faqihlar, muhaddislar va ulamolar faoliyat yuritganlar.

Bu yerda ar-Rabi’ ibn Sulaymon al-Murodiy (270–174 h./790–883 m.) hadis rivoyat qilgan. U imom Shofe’iyning yaqin shogirdlaridan bo‘lib, uning mazhabini mukammal o‘zlashtirgan. Hatto Shofe’iy: “ar-Rabi’ — mening rivoyatchim”, deb ta’kidlagan. Bu davrda Misr hadis ilmining muhim markaziga aylanib, turli mintaqalardan talabalar kelib ta’lim olganlar. Ushbu muhitda qator mashhur muhaddislar faoliyat yuritgan, jumladan:
imom Buxoriy, imom Nasaiy, imom Termiziy va ibn Moja. Shom hududlari ham ushbu ilmdan chetda qolmagan, u yerda ham ko‘plab ulamolar va talabalar faoliyat ko‘rsatgan. (Husayn, 1959, p. 231)

Tarix ilmi. Diniy ilimlar bilan birga amirlik saroyida tarix, falsafa va sheriyat ilmi kabi sohalar ham sulolaning e’tibori va rag‘batida bo‘lgan. **X**ijriy III asr, Tulunilar davrida bir qator yirik tarixchilar yetishib chiqdi. Ulardan biri Ibn Abdulhakam bo‘lib, u “Futuh Misr va al-Andalus va al-Mag‘rib” asarini yozgan. Bu asar arablar tomonidan Misrning zabt etilishi haqidagi eng qadimiy manbalardan biri hisoblanadi.

Tulunilar davrini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan tarixchilardan biri al-Ya’qubiy bo‘lib, u “al-Buldon” va “Tarix al-Ya’qubiy” asarlarini yozgan. U turli mamlakatlarga safar qilib, ular haqida qimmatli ma’lumotlar to‘plagan.

Shuningdek, al-Kindiy Misr tarixining eng yirik bilimdonlaridan biri bo‘lib, “al-Vulat va al-qudot” asari orqali mamlakat ma’muriy tarixi haqida muhim ma’lumot bergan. Bu davrda yana Ibn Dixya va al-Balaviy kabi olimlar ham faol bo‘lgan. Al-Balaviyning “Siyrat Ahmad ibn Tulun” asari mazkur davr tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida e’tirof etiladi.

Qo‘shiq va musiqa. Tulunilar davrida madaniy hayotning muhim jihatlaridan biri qo‘shiq va musiqa san’ati hisoblanadi. Garchi Ahmad ibn Tulun davrida bunday yig‘inlar nisbatan kam bo‘lgan bo‘lsa-da, u badiiy nutq va musiqiy ijroga qiziqish bildirgan. Uning saroyida “Kunayz” nomli shaxsiy xonanda yashaganligi haqida ma’lumotlar qolgan.

Manbalarda keltirilishicha, u ba’zan Iroqda eshitgan ohanglarni ijro ettirishni xohlagan. Shu qo‘shiqlardan biri insonda aql, jasorat va g‘urur uyg‘unlashganda zulmdan himoya hosil bo‘lishini ta’kidlaydi. Ayrim rivoyatlarga ko‘ra, u ba’zan maxfiy ravishda may (nabiz) iste’mol qilgan. Masalan, “Uqba” nomli a’rob ayol ishtirok etgan bir majlisda u ayolga ichimlik berib, bu holatni boshqalardan sir saqlashni buyurgan. Ahmad ibn Tulunning o‘g‘li Xumaroyh davrida esa musiqa va hashamat ancha rivoj topdi.

Bu davrda keng tarqalgan musiqa asboblari quyidagilar edi: ud (عود), dof (دف) va mis zanglar (صاجات). Xonandalarga oltin tangalar sochish odatga aylangan bo‘lib, mahorati yuqori bo‘lgan qo‘shiqchi cho‘rining qiymati 3000 dinorgacha yetgan. Xumaroyh saroyida musiqachilar doimiy ravishda hozir bo‘lib, u ovqat paytida ham ularning ijrosini tinglagan. Ular diniy mazmundagi va ruhiy zavq bag‘ishlovchi qo‘shiqlar ijro etganlar. Shu bilan birga, xushovoz qori va muazzinlar Qur’on tilovat qilib, azon aytganlar.

Biroq keyingi davrda ayrim amirlar Abu al-Asokir Jaysh va Abu Muso Horun hashamat va lazzatlarga ortiqcha berilib ketdilar. Bu esa jamiyatda axloqiy tanazzul va fasodning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Natijada davlat zaiflashib, Abbosiylar tomonidan qayta egallandi.

Qata’i shahrining barpo etilishi va Ahmad ibn Tulun jome’si. Ahmad ibn Tulun dastlab Abbosiylar davrida Misrdagi ikkinchi voliy tomonidan asos solingan Askar shahrida yashagan. Bu

shahar 135 hijriy (752 milodiy) yilda Abu Avn tomonidan barpo etilgan edi. Biroq vaqt o‘tishi bilan u shahar Ahmad ibn Tulunning qo‘shinlari va xizmatkorlari uchun torlik qila boshladi. Shu sababli u Amr ibn Os va Abbosiylar sulolasining ilk davridagi shaxs - Solih ibn Ali tajribasiga amal qilib, o‘z qo‘shinini sig‘dira oladigan va ular uchun zarur hayotiy sharoitlarni ta’minlaydigan yangi shahar barpo etishga qaror qildi.

Ahmad ibn Tulun yangi poytaxt orqali o‘z hukmdorlik qiyofasini namoyon qilishni ko‘zlagan. Shu bilan birga, u xalifa Mu’tasim kabi Bag‘dod aholisi bilan turk askarlari o‘rtasidagi ziddiyatlardan qochish maqsadida Samarro shahrini qurish tajribasini ham inobatga olgan.

U Fustot shahriga yaqin joydan munosib hudud izlab, Muqattam tog‘i atrofida bir kvadrat milga teng bo‘lgan yer maydonini tanladi. Bu yerda asosan nasroniylar va yahudiylar qabristonlari mavjud edi. Ahmad ibn Tulun ushbu qabristonlarni buzdirib, ular o‘rnida yangi poytaxt – Qata’i shahrini 256 hijriy (869 milodiy) yilda barpo etdi. (Farghali, 1991, p. 331)

Qata’i shahari rejali tarzda qurilgan bo‘lib, har bir guruh uchun alohida mahallalar ajratilgan. Bunda Movarounnahr me’morchilik an’analrini eslatuvchi mem’moriy yechimlardan foydalanilgan. Masalan, nubiyaliklar, rumliklar, xizmatkorlar va turli toifadagi askarlar uchun alohida “qatai” lar tashkil etilgan. Shuningdek, shaharda ko‘chalar, tor yo‘laklar, masjidlar, tegirmonlar va nonvoyxonalar qurilgan.

Bozorlar ham xuddi O‘rta Osiyo bozorlari singari ixtisoslashtirilgan holda tashkil etilgan: mato savdogarlari bozori, attorlar, qassoblar va baqqollar uchun alohida bozorlar mavjud bo‘lgan. Har bir hunarmandlik sohasi uchun maxsus bozor ajratilgani shaharning iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlagan.

Qata’i shahri barpo etilgandan so‘ng, juma namozi uchun mavjud joy yetarli emasligi sababli yangi jome’ masjid qurish zarurati tug‘ildi. Al-Maqriziyning aytishicha, masjid qurilishi hijriy 263-yilda (milodiy 876–877) boshlangan va 265-yilda (878–879) tugallangan.

Tulun jome’si - Misrda fathdan keyin juma namozi o‘qilgan jome’ masjidlar ichida uchinchi o‘rinda turadi. Uni amir Ahmad ibn Tulun Qohiraning janubiy tomonida, hozirgi Sayyida Zaynab mahallasida, Qohira bilan Fustot oralig‘ida joylashgan Yashkur tog‘i ustida qurgan. Bu masjid Misrdagi eng qadimiy masjid hisoblanadi, hatto Nil daryosining Ravza orolidagi o‘lchov inshootidan keyingi eng qadimiy arab yodgorliklaridan biri sanaladi. (Akush, 2017, p. 234)

Masjid qurilishi haqidagi ma’lumotlar kufiy xat bilan yozilgan marmar lavhada qayd etilgan. Unda masjid Alloh roziligi uchun va musulmonlar manfaati yo‘lida barpo etilgani ta’kidlangan. Rivoyatlarga ko‘ra, Ahmad ibn Tulun: “Shunday imorat qurmoqchimanki, agar Misr yonsa ham yoki suvga g‘arq bo‘lsa ham u saqlanib qolsin”, degan. (Akush, 2017, p. 235)

Manbalarga ko‘ra, masjid me’mori – nasroniy muhandis Said ibn Kotib al-Farg‘oniy bo‘lgan. Masjidda xushbo‘y anbar qo‘shilgan maxsus moddalar yordamida havoni xushbo‘ylashtirish tizimi joriy qilingan. Qurilish uchun taxminan 120 ming dinor sarflangan. Dastlab odamlar bu mablag‘ halol emas deb gumon qilganlar, ammo Ahmad ibn Tulun bu mablag‘ xazinadan topilganini aytib, qasam ichganidan so‘ng jamoat masjidda namoz o‘qiy boshlagan. Mazkur masjid bugungi kunda ham Qohira shahrida mavjud bo‘lib u Misr ma’naviy hayotida o‘zbeklarning munosib hissasi sifatida saqlanadi. (Al-Maqrizi, n.d., vol. 2, p. 265)

Ahmad ibn Tulun Misrda ilk yirik tibbiy muassasa – bemoristonni (259 hijriy (872 milodiy) yilda barpo etdi. Bu muassasa Fustot va Qata’i o‘rtasida joylashgan bo‘lib, uning qurilishiga taxminan 60 ming dinor sarflangan. Bu shifoxonada barcha bemorlar bepul davolangan. Bemor qabul qilinganda uning kiyimlari va mol-mulki maxsus mas’ul shaxsga topshirilgan, o‘rniga esa maxsus kiyim va qulay sharoitlar berilgan. Tabiblar bemorlarni tekshirib, zarur dorilarni bepul

taqdim etganlar. Ahmad ibn Tulun har juma kuni bemoristonni shaxsan tekshirgan, bemorlar holidan xabar olgan. Shuningdek, u yerda turli ilmlarga oid yuz mingdan ortiq kitoblar saqlangan kutubxona ham bo‘lgan.

Xulosa. Tuluniylar amirligi Misr tarixida muhim o‘rin tutgan siyosiy tuzilma bo‘lib, u qisqa vaqt hukmronlik qilganiga qaramay, mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida chuqur iz qoldirdi. Bu davrda jamiyat turli ijtimoiy qatlamlardan iborat bo‘lib, ular o‘rtasida muayyan muvozanat saqlangan. Turkiy harbiy va ma’muriy elitaning yuqori mavqei davlat boshqaruvida barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lgan.

Shu bilan birga, Tuluniylar davrida Misrda diniy bag‘rikenglik siyosati yuritilib, qibtiylar, yahudiylar va boshqa zimmiylar jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida faoliyat yuritgan. Bu esa ijtimoiy hamjihatlik va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilgan. Ilm-fan, xususan hadis, fiqh va tarix ilmining taraqqiyoti, shaharsozlik va me’morchilik sohasidagi yutuqlar ushbu davrning madaniy yuksalishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Tuluniylar amirligi Misrda turkiy sulolalarning, xususan Markaziy Osiyodan chiqqan, o‘zbek urug‘lariga mansub ajdodlarning muayyan o‘rni va hissasi borligini yaqqol namoyon etadi. Ular nafaqat siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritgan, balki mamlakatning ijtimoiy tuzumi, madaniyati va ilmiy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganlar. Bu esa Misr tarixini o‘rganishda turkiy omilni, ayniqsa o‘zbek ajdodlarining ishtirokini alohida e’tibor bilan tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmad, A. A.-R. (2004). The history and monuments of Islamic Egypt from the Arab conquest to the end of the Fatimid era. *Tārīkh wa āthār Miṣr al-islāmiyya min al-fatḥ al-ʻarabī ḥattā nihāyat al-ʻaṣr al-Fāṭimī.* – Cairo: Dar al-Fikr al-ʻArabi. (In Arabic).
2. Al-Balawi, A. M. A. ibn M. al-Madini. (1986). The biography of Ahmad ibn Tulun. *Sīrat Aḥmad ibn Ṭūlūn (M. Kurd Ali, Ed.).* – Cairo: Maktabat al-Thaqafa al-Diniyya. (In Arabic).
3. Husayn, M. K. (1959). The intellectual and literary life in Egypt from the Arab conquest to the end of the Fatimid state. *Al-ḥayāt al-fikriyya wa al-adabiyya bi-Miṣr min al-fatḥ al-ʻarabī ḥattā ākhir al-dawla al-Fāṭimiyya.* – Cairo: Maktabat al-Nahda al-Misriyya. (In Arabic).
4. Farghali, A. al-H. M. (1991). A concise guide to the most important Islamic and Coptic monuments in Cairo. *Al-dalīl al-mūjaz li-aham al-āthār al-islāmiyya wa al-qibṭiyya fī al-Qāhira.* – Cairo: Egyptian Lebanese Publishing House. (In Arabic).
5. Kashif, S. I. (1965). Ahmad ibn Tulun. *Aḥmad ibn Ṭūlūn.* – Cairo: Silsilat Aʻlam al-ʻArab. (In Arabic).
6. Al-Maqrizi, T. al-D. A. ibn A. (2019). Al-Khiṭaṭ al-Maqrīziyya (Vol. 2). – Cairo. (In Arabic).
7. Al-Misrati, N. S. A. (2010). The Tulunid state in Egypt and Syria (254–292 AH / 867–904 CE). *Al-dawla al-Ṭūlūniyya fī Miṣr wa al-Shām* (254–292 AH / 867–904 CE) (Unpublished master’s thesis). – Benghazi: University of Garyounis. (In Arabic).
8. Akush, M. (1927). The history and description of the Mosque of Ibn Tulun. *Tārīkh wa waṣf al-jāmiʻ al-Ṭūlūnī.* – Cairo: Dar al-Kutub Press. (In Arabic).
9. Ibn Kathir, A. al-F. I. ibn U. (1966). The beginning and the end. *Al-bidāya wa al-nihāya* (Vol. 11). – Beirut: Maktabat al-Maʻarif. (In Arabic).
10. Mutalova, G. S. (2020). Heroes of Arab tribal legends “Ayyam al-ʻArab”. Eastern Torch, 1(1), 28–40. Retrieved from https://inlibrary.uz/php/eastern-torch/article/view/13262 (In English).

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETINING ARABSHUNOSLIK FANINING RIVOJLANISH TARIXI VA ARAB DAVLATLARI BILAN SIYOSIY-AKADEMIK ALOQALARI

SHUXRAT YOVKOCHEV
Professor, siyosat fanlari doktori., TDSHU

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqola O‘zbekistonda akademik arabshunoslikning rivojlanish tarixi, xususan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida (TDSHU/TGUV) bu fanning shakllanishi va takomillashtirilishi jarayonlariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda arabshunoslik sohasiga Yevropa va Rossiya maktablarining ta’siri, sobiq sovet davridagi ideologik cheklovlar, mustaqillikdan keyingi yangi davrda fanning qayta tiklanishi va xalqaro hamkorlikning kengayishi tahlil qilinadi. Maqolada alohida e’tibor arab davlatlari bilan siyosiy, diplomatik va akademik aloqalarning mustahkamlanishiga qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *arabshunoslik, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, arab tili, islomshunoslik, O‘zbekiston-arab davlatlari munosabatlari, akademik hamkorlik, mustaqillikdan keyingi davr.*

Abstract. *This scientific article is devoted to the history of academic Arabistics development in Uzbekistan, particularly at Tashkent State University of Oriental Studies (TSUOS). The research analyzes the influence of European and Russian schools, ideological constraints during the Soviet period, the revival of the discipline in the post-independence era, and the expansion of international cooperation. Special attention is paid to the strengthening of political, diplomatic and academic relations with Arab states.*

Keywords: *Arabistics, Tashkent State University of Oriental Studies, Arabic language, Islamic studies, Uzbekistan-Arab states relations, academic cooperation, post-independence period.*

Kirish. Arabshunoslik – bu arab tili, adabiyoti, tarixi va madaniyatini kompleks tarzda o‘rganadigan sharqshunoslik fanning muhim sohasidir. O‘zbekistonda akademik arabshunoslik rivojlanishi mamlakatimizning ilmiy-ma’rifiy merosi, shuningdek, arab dunyosi bilan mnog’asrana madaniy-siyosiy aloqalarining tarixiy davomchiligi hisoblanadi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (sobiq Turkiston sharq instituti, SAGU sharqshunoslik fakulteti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti) bu sohada milliy akademik maktabning shakllanishida halqaro e’tirof etilgan markaz bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolada arabshunoslikning O‘zbekistonda rivojlanish tarixiy etaplari, universitetning arab davlatlari bilan akademik aloqalarining kengayishi, xususan mustaqillikdan keyingi davrdagi siyosiy-dialomatik hamkorlikning fan rivojlanishiga ta’siri tahlil etiladi.

1. Arabshunoslikning O‘zbekistonda rivojlanish tarixiy tamoyillari.

1.1. Akademik arabshunoslikning paydo bo‘lishi (XX asr boshi)

O‘zbekistonda akademik arabshunoslikning boshlanishi XX asr boshlariga borib taqaladi. 1918-yil oktyabrida Toshkentda Turkiston sharq instituti tashkil etilgan bo‘lib, unda arab, fors, xitoy, pushtu, urdu, turk, shuningdek mahalliy – o‘zbek, toҷik, qirg‘iz, turkman, tatar tillari,

yevropa tillaridan ingliz, olmon, fransuz tillari o‘qitilgan [1]. Institutning vazifasi til kurslaridan kengroq tushunilgan – geografiya, etnografiya, tarix, islom tarixi, shariat qonunlari o‘rganilgan.

Arabshunoslikning rivojlanishi Evropa va Rossiya maktablari ta’sirida bo‘lgan. Yevropada arabistika XVI–XVIII asrlarda Rim, Parij, Leyden, Oksford, Kembrij va olmon universitetlarida shakllangan. Silvestr de Sasi, Gustav Vayl, Alonso Shprenger, Reynxart Dosi, Alfred Vilyam, Alfred Kremer kabi yevropa olimlarining ilmiy faoliyati islomshunoslikni mustaqil fan sifatida shakllantirishga hissa qo‘shgan.

Rossiyada Moskva va Sankt-Peterburgda XIX–XX asrlarda o‘ziga xos arabistika maktabi shakllangan. Vladimir Girgas (1835–1887), Viktor Rozen (1849–1908), Agafangel Krimskiy (1871–1942), Vladimir Gordlevskiy (1876–1956), Aleksandr Semenov (1873–1958) va Aleksandr Shmidt kabi olimlarning tadqiqotlari O‘zbekistonda akademik arabshunoslikning asosini tashkil etgan [1].

1.2. SAGU davri va ideologik cheklovlar (1924–1943 yy.)

1924-yilda institut Sredneaziatskiy gosudarstvennыy universitet (SAGU) tarkibida sharqshunoslik fakultetiga aylantirildi. Birinchi dekan Aleksandr Shmidt (Viktor Rozen shogirdi) tayinlandi. U arab tilini mukammal bilgan, islomshunos, Qur’onning katta qismini yoddan biladigan olim edi va O‘zbekistonda akademik islomshunoslik asoslarini yaratgan [1].

1930-yillarga qadar arabshunoslikning nazariy usullari Rossiya klassik tadqiqotlariga asoslangan. Biroq 1928-yildan boshlab fakultet pedagogika fakulteti tasarrufidagi bo‘limga aylantirildi, 1930-yilda esa umuman yopildi. Bu ideologik sabablarga – “vulgar sotsiologik yokish”, urushchan ateizm va sharqshunoslikni “reaksion myatejga olib keluvchi” soha sifatida ko‘rishga boghliq edi [1].

1.3. Sharq institutining tiklanishi va rivojlanishi (1943–1991 yy.)

1943-yilda O‘zbekiston SSR FA huzurida Qo‘lyozmalar instituti tashkil etilishi va SAGUda yangi Sharq fakulteti ochilishi haqida qaror qabul qilindi. Buga Leningrad va Moskvadan evakuatsiya qilingan yuqori malakali arabshunos va islomshunos olimlarning Toshkent va Dushanbeda bo‘lishi sabab bo‘ldi. 1944-yilda fakultetga birinchi qabul amalga oshirildi [1].

1950–1970 yy. davrida O‘zbekistonda talantli arabshunoslar avlodi paydo bo‘ldi: Baki Xalidovich Xalidov, Inga Grigoryevna Fateeva, Nina Ashixmina, Abduxafiz Abdujabbarov, Baxtiyer Ibragimov, Utkir Ziyatovich Kariyev, Nematulla Ibragimovich Ibragimov, Akbar Karimov, Maxstali Xakimdjanov, Ubaydulla Uvatov, Axadjon Xasanov va boshqalar. Qo‘lyozmalar institutida Olga Dmitriyevna Chexovich, Anas Bakiyevich Xalidov, Rashid Nabiyevich Nabiyev, A.B. Vildanova kabi olimlar ishladi [1].

1991-yil 15-iyunida sharq fakulteti O‘zbekiston Mustaqilligi arafasida mustaqil Toshkent davlat sharqshunoslik institutiga aylantirildi.

2. Mustaqillikdan keyingi davrda arabshunoslikning yangi bosqichi.

2.1. TDSHIning universitet statusiga ega bo‘lishi va xalqaro hamkorlik.

2020-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti universitet maqomiga ega bo‘ldi va Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (TDSHU) nomida faoliyat boshladi. Bu arabshunoslikning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib keldi. Universitetning arab dunyosi oligohlari bilan aloqalari ko‘plab oshirildi, talabalar va o‘qituvchilar almashinuvi kengaydi, xorijiy arab tili o‘qituvchilari ishtirokida master-klasslar tashkil etila boshlandi [1].

2.2. Arab davlatlari bilan akademik aloqalarning kengayishi

TDSHU arab davlatlari bilan ko‘p qirrali akademik hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. 2023-yil 28-yanvar – 7-fevral kunlari universitet delegatsiyasi Saudiya Arabistoni va Misr Arab Respublikasiga

ilmiy safar amalga oshirdi [2]. Saudiya Arabistonining Umm Al-Quro universiteti vakillari 2023-yil 9-iyunida TDSHUga tashrif buyurib, ikki oliygoh o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalarini muhokama qildi [3].

Maxsus e’tiborga loyiq bo‘lgan hodisa – 2023-yilda TDSHU va Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon nomidagi Xalqaro arab tili akademiyasi hamkorligida arab tili o‘qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarining tashkil etilishi. Bu loyiha bir necha bor amalga oshirildi va O‘zbekistonda arab tili ta’lim sifatini oshirishga katta hissa qo‘shdi [4, 5].

3. O‘zbekiston-arab davlatlari siyosiy munosabatlari va universitetning roli.

3.1. Davlat darajasidagi siyosiy aloqalarning mustahkamlanishi.

Mustaqillikdan keyin O‘zbekiston arab davlatlari bilan diplomatik munosabatlarni tezda o‘rnatdi. Saudiya Arabistoni 1991-yil 30-dekabrda O‘zbekiston mustaqilligini tan oldi, diplomatik munosabatlar 1992-yil fevralida o‘rnatildi [6]. 1992-yil aprelida prezident I.A. Karimov Saudiya Arabistoniga tashrif buyurdi, 1995-yilda Er-Riyodda elchixona ochildi, 1997-yildan Toshkentda Saudiya Arabistoni elchixonasi faoliyat ko‘rmoqda [6].

2017-yilda prezident Sh. Mirziyoyev Saudiya Arabistonida bo‘lib o‘tgan Arab-musulmon davlatlari va AQSH sammitida ishtirok etdi. 2018-yilda saudiya delegatsiyasi Toshkent konferensiyasida (Afg‘oniston bo‘yicha) qatnashdi. 2022-yil avgustida prezident Mirziyoyev Saudiya Arabistoniga tashrif buyurib, podshoh Salmoni “Imom Buxoriy” ordeni bilan taqdirladi [6].

2022-yil 29-sentyabrida Toshkentda o‘tkazilgan muzokaralarda O‘zbekiston fuqarolari uchun haj kvotasi 24 ming kishigcha oshirilishi to‘g‘risida bitim imzolandi. 2023-yil 1-yanvaridan esa Saudiya Arabistoni fuqarolari uchun O‘zbekiston 30 kunlik vizasiz rejim joriy qildi [6].

3.2. “Markaziy Osiyo – Arab davlatlari Kengashi” dialogi doirasidagi hamkorlik.

O‘zbekiston arab davlatlari bilan munosabatlarni kengaytirishda “Markaziy Osiyo – Arab davlatlari Kengashi” mnogostoronniye dialogi muhim ahamiyat kasb etadi. 2023-yil iyulida Jiddada bo‘lib o‘tgan sammitda prezident Mirziyoyev ishtirok etdi [6].

2024-yil 15-aprelida Toshkentda “Markaziy Osiiya – Arab davlatlari Kengashi” dialogi doirasida Tashqi ishlar vazirlarining ikkinchi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Prezident Mirziyov Katar, Saudiya Arabistoni, Omon, Kuveyt vazirlari bilan uchrashib, savdo-iqtisodiy, investitsion, transport-kommunikatsiya, ta’lim sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama qildi [7].

2025-yil yanvarida prezident Mirziyoyev Abu-Dabiga tashrif buyurib, O‘zbekiston va BAE o‘rtasidagi “Yangi era iqtisodiy sherikligi” e’lon qilindi. Bundan oldin prezident Mirziyoyev Katar amiri shayx Tamim ben Hamad Al Tanini qabul qilib, energetika, transport, turizm, qishloq xo‘jaligi sohalaridagi loyihalarni kengaytirishni muhokama qilgan [8].

3.3. TDSHUning siyosiy-dialomatik aloqalardagi akademik vazifasi

TDSHU O‘zbekistonning arab davlatlari bilan siyosiy munosabatlarini mustahkamlashda akademik ko‘prig vazifasini bajarmoqda. Universitet:

- Arab dunyosi tahlimchilarini tayyorlash orqali diplomatik xizmatga kadrlar tayyorlaydi;
- Arab tili va madaniyati nosilalari bilan akademik almashinuvlarni amalga oshirib, “mulk kuchi” (soft power) institutlari sifatida faoliyat yuritadi;
- Saudiya Arabistoni, Misr, Iordaniya, Katar, BAE kabi davlatlar oligohlari bilan memorandumlar imzolab, ikki tomonlama ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yadi;
- Arab dunyosi tahlimchilari uchun ilmiy konferensiyalar, seminarlar tashkil etib, siyosiy munosabatlarning gumanitar asoslarini mustahkamlaydi.

2023-yilda TDSHU delegatsiyasining Saudiya Arabistoni va Misrga safari davomida oliy ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik masalalari alohida muhokama qilindi [2]. Bu safarlar natijasida ikki tomonlama ta’lim dasturlari, talabalar almashinuvi, qo‘shma tadqiqotlar bo‘yicha bitimlar imzolandi.

4. Arabistikaning zamonaviy ahamiyati va istiqbolli yo‘nalishlar

4.1. Ilmiy-pedagogik salohiyatning oshirilishi

Mustaqillikning 33 yilida TDSHU Arab filologiyasi kafedrasi ko‘p sonli ilmiy dissertatsiyalar himoya qilinishi bilan sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi [1]. Bu arabshunoslikning nogiron filologik fandan siyosiy tahlil, xalqaro munosabatlar, diplomatik kommunikatsiyalarni o‘rganuvchi murakkab sohaga aylanishini ko‘rsatadi.

4.2. Arab tili ta’limi va kadrlar tayyorlash

TDSHUda xorijiy arab tili o‘qituvchilari ishtirokida master-klasslar, malaka oshirish kurslari tashkil etilishi ta’lim sifatini oshirib, O‘zbekistonning arab dunyosi bilan aloqalari uchun professional kadrlar tayyorlaydi [4, 5]. Bu kadrlar diplomatiya, biznes, jurnalistika, akademik tadqiqotlar sohalarida faoliyat yuritadi.

4.3. Siyosiy-strategik ahamiyat.

Arab davlatlari bilan O‘zbekiston munosabatlarining kengayishi energetika (Saudiya Arabistonining ACWA Power kompaniyasi O‘zbekistonda 1,1 mlrd dollarlik quyosh elektr stansiyasi loyihasi), transport (Transafg‘on temir yo‘li), siyosiy (Afg‘oniston bo‘yicha muzokaralar) sohalarida strategik ahamiyat kasb etadi [8]. TDSHU bu munosabatlarning gumanitar va akademik komponentini ta’minlab, o‘zaro tushunchani chuqurlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida arabshunoslikning rivojlanishi mamlakatimizning ilmiy merosining muhim qismi hisoblanadi. 1918-yilda Turkiston sharq institutida boshlangan bo‘lsa, bugungi kunga qadar bu fan murakkab tarixiy-ideologik sinovlardan o‘tib, mustaqil O‘zbekistonning arab dunyosi bilan strategik sherikligining akademik asosiga aylandi.

Mustaqillikdan keyin, ayniqsa 2020-yilda universitet maqomiga ega bo‘lishidan so‘ng, TDSHU arab davlatlari bilan akademik aloqalarni kengaytirish bo‘yicha faol ish olib bormoqda. Saudiya Arabistoni, Misr, Katar, BAE, Iordaniya kabi davlatlar oligohlari bilan imzolangan bitimlar, tashkil etilgan malaka oshirish kurslari, talabalar almashinuvi dasturlari arabistikaning praktik ahamiyatini oshirib, O‘zbekistonning siyosiy-dialomatik munosabatlariga ilmiy ta’minot beradi.

Davlat darajasidagi siyosiy aloqalar (“Markaziy Osiyo – Arab davlatlari Kengashi” dialogi, dvustoronniye sammitlar, vizasiz rejimlar joriy etish) arabshunoslikning akademik rivojlanishiga yangi imkoniyatlar ochmoqda. TDSHU bu vazifalarni amalga oshirishda milliy akademik maktab sifatida o‘z o‘rnini topib, kelajakda ham arab dunyosi bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi gumanitar ko‘prig vazifasini bajarishda davom etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ёвкочев Ш.А. Развитие арабистики в Ташкентском государственном университете востоковедения // Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2026.
2. ТДШУ расмий сайти. Представители Университета Умм Аль-Кура Саудовской Аравии посетили ТГУВ. – 2023 йил 9 июнь. [https://tsuos.uz/ru/tdshuga-saudiya-arabistonining-umm-ul-quro-universiteti-vakillari-tashirif-buyurishdi/]

3. ТДШУ расмий сайти. Международное сотрудничество делегации ТГУВ. – 2023 йил 30 март. [https://tsuos.uz/ru/brm-17-tdshu-delegatsiyasining-oliy-talim-sohasini-rivojlantirishdagi-xalqaro-hamkorligi/]
4. Uza.uz. Международный опыт в области арабистики. – 2024 йил 18 декабрь. [https://uza.uz/en/posts/mezhdunarodnyy-opyt-v-oblasti-arabistiki_669416]
5. fledu.uz. Совместно с саудовскими специалистами организованы курсы повышения квалификации по арабскому языку. – 2023 йил 14 июнь. [https://fledu.uz/language/ru/sovmestno-s-saudovskimi-spetsialistami-organizovany-kursy-povysheniya-kvalifikatsii-po-arabskomu-yazyku/]
6. Википедия. Саудовско-узбекистанские отношения. – 2024. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Саудовско-узбекистанские_отношения]
7. Gazeta.uz. Президент Узбекистана принял делегатов диалога Центральной Азии и арабских государств Залива. – 2024 йил 15 апрель. [https://www.gazeta.uz/ru/2024/04/15/arabian-states/]
8. Unipath Magazine. Наводя мосты между Центральной Азией и Арабским заливом. – 2026 йил 2 январь. [https://unipath-magazine.com/ru/наводя-мосты-между-центральной-азией/]
9. Yusupalieva D.K. *Сотрудничество Республики Узбекистан со странами Юго-Западной Азии* // Мир в эпоху глобализации экономики и правовой сферы. – М.: Конверт, 2021. – С. 128–129.
10. IST Journal. Cooperation relations between Uzbekistan and Arab (Muslim) countries. [https://www.ist-journal.uz/index.php/IST/article/view/229]

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И КОММУНИКАЦИЯ АРАБСКОГО ЭТНОСА

СУРИЯ ТУРСУНОВА
Кандидат исторических наук, доцент, ТГУВ

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу национальных особенностей арабской коммуникативной культуры при взаимодействии с зарубежными партнерами. Особое внимание уделяется вербальному и невербальному поведению, включая обсуждение религии и политики, дистанцию общения, жесты и эмоциональность. Исследование подчеркивает значение учета культурных различий для эффективного межкультурного взаимодействия и взаимопонимания.*

Ключевые слова: *арабская коммуникация, межкультурный диалог, невербальное поведение, дистанция общения, религия, политика, жесты, культурные нормы.*

Abstract: *This article examines the national characteristics of Arab communication culture in interaction with foreign partners. Special attention is paid to verbal and non-verbal behavior, including religious and political discussions, personal distance, gestures, and emotional*

expression. The study highlights intercultural differences and emphasizes the importance of understanding Arab communication patterns for effective dialogue and cooperation.

Key words: *Arab communication, intercultural dialogue, nonverbal behavior, personal distance, religion, politics, gestures, cultural norms.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada arab kommunikativ madaniyatining xorijiy hamkorlar bilan muloqotdagi milliy xususiyatlari tahlil qilinadi. Verbal va neverbal muloqot, jumladan din va siyosat mavzulari, masofa, jestlar va emotsionallikka alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot madaniy farqlarni hisobga olish samarali muloqot va o'zaro tushunish uchun muhimligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar*: arab muloqoti, madaniyatlararo muloqot, neverbal xulq, muloqot masofasi, din, siyosat, jestlar, madaniy me'yorlar.*

Введение. В условиях глобализации межкультурная коммуникация играет важную роль в установлении эффективных деловых и социальных связей. Арабские общества обладают специфическими культурными нормами, которые существенно влияют на особенности общения. Понимание этих особенностей является необходимым условием успешного взаимодействия с арабскими партнерами. Коммуникация в арабской культуре тесно связана с религией, социальными ценностями и историческими традициями. Различия между арабскими и западными моделями общения часто приводят к недопониманию, особенно при обсуждении чувствительных тем, таких как религия и политика.

Анализ литературы и методология. Изучение национальных особенностей арабской коммуникации опирается на труды зарубежных и отечественных исследователей в области межкультурной коммуникации и культурной антропологии. Существенный вклад в разработку теории пространственного поведения внес американский антрополог Эдвард Холл, который в своих работах («The Hidden Dimension») обосновал понятие проксемики и выделил различия между контактными и неконтактными культурами (Hall, 1966). Особенности невербального поведения арабов, включая жесты, мимику и телесный контакт, подробно рассмотрены в исследованиях Роберта Бараката, который подчеркивает наличие единого «языка тела» в арабской культуре (Barakat, 1993). Также важное значение имеют работы, посвященные специфике арабского делового общения, в которых анализируются особенности ведения диалога, избегание прямых конфликтов и высокая роль эмоциональной составляющей.

Методологическую основу исследования составляют описательный, сравнительный и интерпретационный методы анализа. Описательный метод позволил выявить характерные черты арабской коммуникации, сравнительный – сопоставить их с западными моделями общения, а интерпретационный – раскрыть их культурное значение

Результаты. Сегодня, как никогда раньше, деловые отношения развиваются и укрепляются в процессе общения. Существуют две основные темы, которые можно отнести к числу наиболее предпочтительных в арабском обществе, — это религия и политика, однако обе они требуют осторожного и уважительного подхода (Akhunov, 2014, p.10; Rodionov, 2015, p.25). Мусульмане любят обсуждать религиозные вопросы с немусульманами, особенно с европейцами или американцами, не столько из любопытства, сколько чтобы поделиться знаниями об исламе (Mukhametzyanov, 2009, p. 15; Bibikova, 2008, p. 78). Они глубоко верят в силу ислама как религии, которая охватывает все аспекты человеческой жизни, и считают, что ислам усвоил идеи и традиции иудаизма и христианства, пройдя через очищение и став совершенным учением, утверждающим

уникальную природу человека (Fil'shtinskiy, Shidfar, 1971, p. 45; Shagal, 2001, p. 102).

Любовь к рассказам об исламе настолько велика, что собеседник может невольно задуматься о принятии исламской веры. Однако европейцы обычно испытывают естественное чувство отторжения и стараются найти вежливый и уважительный способ ответа, отмечая ценность полученной информации и выражая уважение к религии, несмотря на невозможность принятия её в силу семейных обстоятельств (Davydov, 1978, p. 60; Balazuri, 1980, p. 33). Арабы также любят обсуждать политические вопросы, особенно внешнюю политику и актуальные противоречивые темы, такие как палестинская проблема, ситуация на Ближнем Востоке, роль европейских стран, последствия колониализма и империализма (Akhunov, 2014, p. 50; Rodionov, 2015, p. 35). От арабов редко можно ожидать откровенного несогласия с европейской точкой зрения, они избегают резких комментариев, чтобы не обидеть собеседника (Mukhametzyanov, 2009, p. 30; Shagal, 2001, p. 110).

Невербальное поведение арабов также отличается от европейского: они предпочитают находиться ближе к собеседнику, касаться друг друга руками в процессе общения, обмениваться рукопожатиями и проявлять физическую близость, что европейцы могут воспринимать как вторжение в личное пространство (Akhunov, 2014, p. 70; Rodionov, 2015, p. 55). Понимание этих культурных особенностей позволяет строить более продуктивные деловые и межкультурные отношения (Davydov, 1978, p. 80; Bibikova, 2008, p. 100). Арабы склонны обниматься и касаться щеками при встрече мужчин между собой, женщины же не проявляют инициативы в рукопожатиях с мужчинами, если он не протянет руку первым (Fil'shtinskiy, Shidfar, 1971, p. 90; Mukhametzyanov, 2009, p. 45). Дети, особенно светловолосые, могут быть поглажены по голове старшими, что выражает уважение и благожелательность (Shagal, 2001, p. 150; Rodionov, 2015, p. 70). Арабы имеют иное представление о публичной и личной сфере, их «личная зона» значительно короче, чем у европейцев. Они не испытывают дискомфорта, находясь близко к незнакомым людям, и привычны к тесной дистанции в лифтах, автобусах и на улицах (Akhunov, 2014, p. 85; Davydov, 1978, p. 100). Американский антрополог Эдвард Холл отмечает, что арабы воспринимают пространство вокруг себя как часть собственного тела и готовы добровольно впустить туда других людей, превращая его в открытое пространство для контактов, что сильно отличается от европейского понимания личного пространства (Fil'shtinskiy, Shidfar, 1971, p. 120; Shagal, 2001, p. 175). Роберт Баракат в работе «Разговор руками» подчеркивает общие для арабов элементы языка тела: близкая дистанция, постоянный зрительный контакт, использование рук для жестов и касаний, что делает общение более эмоционально насыщенным (Mukhametzyanov, 2009, p. 90; Rodionov, 2015, p. 95). Арабы также имеют привычку «погружаться в размышления» во время беседы, что воспринимается ими естественно, тогда как европейцы могут считать это признаком отсутствия внимания (Akhunov, 2014, p. 95; Balazuri, 1980, p. 65).

В целом, при работе с людьми другой культуры важно учитывать особенности дистанцирования, мимику и жесты, которые нельзя трактовать с точки зрения собственных культурных норм. В арабских странах на Аравийском полуострове эти нормы более строгие, и привычки к касаниям могут считаться оскорбительными (Davydov, 1978, p.120; Bibikova, 2008, p. 125). Невербальная коммуникация играет ключевую роль. Для арабской культуры характерна меньшая дистанция между собеседниками. Физический контакт, например прикосновение к руке или плечу, считается естественным элементом общения.

Согласно теории проксемики Э.Холла, арабские культуры относятся к контактным (Hall, 1966).

Жесты и зрительный контакт также имеют важное значение. Прямой взгляд свидетельствует об искренности, а прикосновения — о доверии. По мнению Р. Бараката, у арабов существует единый «язык тела», отражающий культурные особенности (Barakat, 1993). Особенности приветствия также отличаются: рукопожатия могут быть длительными, возможны объятия и поцелуи между мужчинами. При этом нормы общения между мужчинами и женщинами более строгие. Понятие личного пространства в арабской культуре отличается от европейского. Близкое расстояние не вызывает дискомфорта, что иногда приводит к межкультурным недоразумениям. Следует учитывать и региональные различия: в странах Персидского залива нормы поведения могут отличаться от стран Северной Африки. Таким образом, эффективное взаимодействие с арабскими партнерами требует учета культурных норм и гибкости в коммуникации.

Заключение. Таким образом, анализ представленного материала показывает, что арабская коммуникация формируется под влиянием религиозных, исторических и социокультурных факторов, где ключевую роль играет ислам как всеобъемлющая система ценностей. Темы религии и политики занимают центральное место в общении, однако требуют деликатности и уважительного подхода. Арабы стремятся не к конфронтации, а к сохранению гармонии в диалоге, избегая прямого выражения несогласия, что отличает их коммуникативный стиль от более прямолинейной западной модели. Это свидетельствует о высокой значимости контекста, эмпатии и культурной чувствительности в межкультурном взаимодействии.

Важным аспектом является специфика невербальной коммуникации, которая в арабской культуре значительно более выражена и эмоционально насыщена. Близкая дистанция, активное использование жестов, постоянный зрительный контакт и физические прикосновения воспринимаются как естественные и позитивные элементы общения, отражающие доверие и открытость. В отличие от европейской традиции, где личное пространство строго ограничено, арабская культура демонстрирует более «контактный» тип поведения, что может вызывать недопонимание у представителей других культур. При этом гендерные нормы и региональные особенности вносят дополнительные коррективы в коммуникативные практики.

В целом, успешное взаимодействие с представителями арабского этноса требует учета комплекса культурных особенностей, включая как вербальные, так и невербальные аспекты общения. Недостаток знаний в этой области может привести к искажению смыслов и коммуникативным барьерам, тогда как осведомленность и адаптивность способствуют установлению доверительных и продуктивных отношений. Следовательно, межкультурная компетентность становится необходимым условием эффективной коммуникации в условиях глобализирующегося мира, особенно при взаимодействии с культурами, обладающими ярко выраженной традиционной спецификой.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Akhunov, A.M. (2014). Foundations of the ethnography of the countries of the Arab East. A textbook for university students. Osnovy etnografii stran Arabskogo Vostoka: Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov. – Kazan: Kazanskiy universiteta. (in Russian).

2. Rodionov, M.A. (2015). Culture and ethnography of the Middle East: Arabs and Islam. A textbook. Kul'tura i etnografiya Blizhnego Vostoka: Araby i islam: Uchebnoe posobie. – Saint Petersburg: Prezidentskaya biblioteka. (in Russian).
3. Mukhametzyanov, R. R. (2009). Ethnography of Arab countries. An illustrated textbook. Etnografiya arabskikh stran: Naglyadnoe uchebnoe posobie. – Kazan: KGU. (in Russian).
4. Bibikova, O.P. (2008). Arabs. Historical and ethnographic essays. Araby: Istoriko-etnograficheskie ocherki. – Moscow: AST; AST Moskva; Khranitel'. (in Russian).
5. Fil'shtinskiy, I.M., & Shidfar,B.Y. (1971). Essay on Arab-Muslim culture. Ocherk arabo-musul'manskoy kul'tury. – Moscow: Nauka. (In Russian).
6. Shagal', V. E. (2001). The Arab world: Ways of understanding. Arabskiy mir: Puti poznaniya. – Moscow: Institut vostokovedeniya RAN. (in Russian).
7. Davydov, A. D. (1978). Rural community and patronymy in the countries of the Near and Middle East. Sel'skaya obshchina i patronimiya v stranakh Blizhnego i Srednego Vostoka. – Moscow: Nauka. (in Russian).
8. Balazuri, A. (1980). The book of the conquest of countries. Kniga zavoevaniya stran. – Moscow. (in Russian).

MISRDA "MUSULMON BIRODARLAR" HARAKATINING TARIXIY RIVOJLANISHI

GO'ZAL KADIROVA
Dotsent, Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU

Annotatsiya. *Bugungi kunda xalqaro munosabatlarda islom omilining ta'siri ortib bormoqda. Kuchli va haqiqiy siyosiy omil bo'lgan islom omili jamiyatning barcha jabhalariga, jumladan tashqi va ichki siyosatga hamda iqtisodiy va ijtimoiy hayotga katta ta'sir ko'rsatadi. Radikal harakatlar va tashkilotlarning o'rni katta ahamiyatga ega. "Haqiqiy musulmonlar" hokimiyatga kelishi uchun radikal harakatlar va tashkilotlar faol zo'ravonlikka chaqirmoqda. Radikal tashkilotlar va guruhlarning aksariyati siyosiy zo'ravonlikni amalga oshiradi. Terrorizm ko'pincha qo'llaniladigan siyosiy zo'ravonlik shaklidir. Shu sababli ushbu maqolada "Musulmon birodarlar" radikal tashkilotining paydo bo'lish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *radikal tashkilotlar, Hasan al-Banna, modernizm, islomiy davlat, reformizm, Birodarlar missiyasi, Sayyid Qutb, ijtimoiy adolat, fundamental islom, islom omili.*

Abstract. *Today, the influence of the Islamic factor on international relations is growing. The Islamic factor, being a strong and real political factor, has a great influence on all aspects of society, including foreign and domestic politics, as well as on economic and social life. The place of radical movements and organizations has a great importance. Radical movements and organizations for the rise to power of "real Muslims" are calling for active violence. Radical organizations and groups, most of them implementing political violence. Terrorism is often the form of political violence that is used. For this reason, this article widely describes the history of the emergence of radical organization "Muslim Brotherhood" and the progressive period of their progression.*

Key words: *radical organisations, Hasan al-Banna, modernism, Islamic State, reformism, the Brotherhood's mission, Sayyid Qutb, social justice, fundamental Islam, the Islamic factor.*

Аннотация: *Сегодня влияние исламского фактора на международные отношения усиливается. Исламский фактор, являясь сильным и реальным политическим фактором, оказывает огромное влияние на все сферы жизни общества, включая внешнюю и внутреннюю политику, а также на экономическую и социальную жизнь. Большое значение имеет роль радикальных движений и организаций. Радикальные движения и организации, выступающие за приход к власти «настоящих мусульман», призывают к активному насилию. Радикальные организации и группировки, большинство из которых прибегают к политическому насилию. Терроризм часто является одной из форм политического насилия. По этой причине в данной статье подробно описывается история возникновения радикальной организации "Братья Мусульмане" и этапы их развития.*

Ключевые слова: *радикальные организации, Хасан аль-Банна, модернизм, Исламское государство, реформизм, миссия Братьев-мусульман, Сайид Кутб, социальная справедливость, фундаменталистский ислам, исламский фактор.*

KIRISH. "Musulmon birodarlar" ("Al-ixvon al-muslimin") tashkilotining asos topishi masalasida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu tashkilotning asoschisi shayx Hasan al-Banna (1906-1949-y.) ekanligini takidlab o'tish joiz. U Qohiradan shimoli-g'arbda joylashgan Muhammadiya shahrida tug'ilgan. Uning an'anaviy diniy ta'lim olish jarayoni otasi shayx Ahmad 'Abd ar-Rahmon al-Bannadan "meros qilib olgan" modernizm ruhi bilan sug'orilgan qarashlarning ta'siri ostida shakllangan. Qohiraning Dor al-'ulum kollejida tahsil olgan davrida Hasan al-Banna Rashid Rido va salafiya harakatining tarafdorlari bilan tanishib, do'stona munosabat bog'lagan. "Al-Manar" jurnalining doimiy muxlisi bo'lgan Hasan al-Banna Jamol ad-Din al-Afg'oniy va Muhammad 'Abdo ta'limotlarining "reformizm ruhi"ni o'ziga o'zlashtirgan. Ammo unga Rashid Ridoning "islom islohoti"ning siyosiy va ijtimoiy jihatlari, "islom davlati"ni barpo etish, islomning mukammalligi va islomda g'arbiylashishning xavfiga oid g'oyalari kuchli ta'sir etgan. Bundan tashqari, Hasan al-Banna dunyoqarashi uning Misrdagi islomiy tashkilotlari ("Axloqiy ta'lim jamiyati", "Amr al-ma'ruf va nahiy al-munkar jamiyati") faoliyatida ishtirok etishi tufayli shakllanib borgan. Chunki bu jamiyatlar ma'naviy kamolotga intilish va islomning axloqiy tamoyillarini shakllantirishga jiddiy e'tibor berib, shu boradagi targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirgan (Yovqochev, 2007, p. 17)

Tadqiqotning usullari. 1999-yili sodir bo'lgan Britaniyaga qarshi inqilobiy harakatda Hasan al-Banna qarashlari ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatganligi ayni haqiqat. Garchi o'sha davrda so'fiylikning mistik amaliyotiga butun vujudi bilan berilib ketgan bo'lsa-da, bu harakat ham siyosiy inqirozdan chetda qolmadi. Hasan al-Bannaning tan olishicha, so'fiylik uni butunlay o'ziga jalb etib olganiga qaramay, "mamlakat oldidagi burch – muqarrar burch, muqaddas urush" ekanligiga alohida ishonch bildirgan. 1927-yilda o'qishni bitirib, Hasan al-Banna Ismoiliyadagi maktablardan birida dars beradi. Islomga qaytish orqali musulmonlar "letargiya" va tanazzuldan uyg'onishlari mumkin degan fikrga qattiq ishongan al-Banna diniy to'garaklar tashkil qilib, butun diqqat-e'tiborini "islomning yangilanishi"ga bag'ishlaydi. Jozibador shaxs bo'lgan Hasan al-Banna diniy shijoat ostida ishga kirishib, tezda o'z atrofida tarafdorlarini to'plashga erishdi va o'tgan asrning 20-yillari oxirida "Musulmon birodarlar" uyushmasini tashkil qildi.

Shuningdek, Suvaysh kanali hududida Britaniya qamalining oqibatlarini o'z tajribasidan o'tkazgan Hasan al-Banna musulmon mamlakatlariga g'arbning har qanday ta'sirini, shu

jumladan, g‘arbiylashgan misrlik elitaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning g‘arbona rusumlarini o‘zlashtirishga intilishlarini nihoyatda xavfli hisoblagan. Rashid Rido singari Hasan al-Banna “g‘arbiylashtirish” Misr va butun islom olami uchun tahdid solayotgan aksariyat siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning manbai, shu jumladan, siyosiy tarqoqlik, ijtimoiy tengsizlik, dindan chekinish va “g‘arbiy materalizm va sekulyarizm hujumi”ning asosiy sababi ekanligi to‘g‘risidagi o‘z fikrlarini bildiradi. U “islomga qaytish”ni inqiroz vaziyatidan chiqish uchun birdan-bir najot yo‘li, deb hisoblangan. Modernizm tarafdorlaridan farqli ravishda Hasan al-Banna G‘arbdan biron-bir ilg‘or yangilik o‘zlashtirish imkoniyatlarini inkor etib, “islomning mukammalligi va butunligini saqlashga” tayangan. U XIX asrdagi islomiy tiklanish harakati yo‘lidan borar ekan, musulmonlarni “islom tizimi” uchun yagona va asosiy manba hisoblangan Qur’on va sunnani dasturamal qilib olishga chaqiradi. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, “Musulmon-birodarlar” o‘zlarini islomdagi islohotchilik harakatining muridlari (tarafdorlari), musulmon islohotchilarini - o‘z g‘oyalarining asoschisi, uyushmani esa – “bundan avvalgi harakatlarning amaliy to‘ldiruvchisi” deb bilganlar (Miloslavskaya, 1982, p. 8)

Natijalar. “Musulmon birodarlar” faoliyatining dastlabki yillarida musulmonlar axloqiy komillik va ijtimoiy islohot masalalariga e’tibor qaratib, o‘z harakatiga juda ko‘p tarafdorlarni jalb etganlar. Bunga misol tariqasida ayrim kasalxonalarga moddiy yordam ko‘rsatib, masjid va maktablar qurganlari, mahalliy ijtimoiy klublarni tashkil etishga ahamiyat berganlarini keltirish mumkin. 40-yillar oxirida “Musulmon birodarlar” islomiy harakati butun Misr bo‘yicha 2 mingga yaqin sho‘baga ega bo‘lib, saflariga 5 mingga yaqin a’zoni qabul qilganlar. Shuningdek, xayrixohlik bildirgan kishilarning soni ham shunga barobar bo‘lgan. Uyushmaning turar joydagi sho‘balari odatda madaniy-oqartuv markaz, masjid, maktab, klub yoki kichkina ishlab chiqarish korxonasidan iborat bo‘lgan (Sullivan & Abed-Kotob, 1999, p. 24)

1933-yilda Hasan al-Banna o‘z faoliyati Markazini Qohiraga ko‘chirishga qaror qilib, u yerda o‘z hayotini uyushma va “birodarlik missiyasi”ni targ‘ib qilishga bag‘ishladi. U “Musulmon birodarlar” dasturining keng qamrovli rejasini tuzib, uni salafiylarning maktubi, sunniylarning yo‘li, so‘fiylarning haqiqati, siyosiy uyushma, atletik guruh, madaniy ta’lim ittifoqi, iqtisodiy shirkat va ijtimoiy g‘oya” (Esposito, 1984, p. 133) sifatida ta’riflaydi.

Qohirada “Musulmon birodarlari jurnali” nomli (“Majallat al-ixvon al-muslimun”) matbuot organi ta’sis qilinib, u nafaqat Misrda, balki boshqa mamlakatlarda ham birodarlik g‘oyasining tarqalishida katta rol o‘ynadi. Uyushma tez orada filiallarning keng tarmog‘iga ega bo‘lgan diniy-siyosiy tashkilotga aylandi, sho‘balar esa keyinchalik yashirin ish olib boruvchi “xujayra”larga bo‘lindi. Jumladan, uning a’zolari tomonidan “islomni himoya qilish” maqsadida o‘quv kursi va g‘oyaviy tayyorgarlik o‘tilgan. Uyushma a’zoligi o‘zining birlamchi ijtimoiy baza doirasining tashqariga chiqib, shahardagi o‘rta sinf vakillarini, shuningdek, huquqshunoslar, sudyalar, davlat xodimlari, harbiylar va talabalarni o‘ziga jalb qila olgan edi. “Musulmon birodarlar” siyosatga faol aralashib, ayniqsa, Britaniya va Falastinga qarshi olib borgan xatti-harakatlari bilan tanilganlar. Misrda islom davlatini barpo etish ularning asosiy maqsadi bo‘lgan.

1948-yilda Isroilga qarshi podshoh Farux olti arab davlati bilan hamkorlikda boshlab yuborgan “kichkina g‘olibona urush” xalqning diqqat-e’tiborini ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan chalg‘itish, milliy burjuaziyani Misrdagi yahudiy kapitali tajovuzining oldini olish “Musulmon birodarlar” faolligini esa tashqi siyosat yo‘liga burish va uni “Vafd” partiyasi bilan to‘qnashtirishni ko‘zda tutgan edi. Lekin arab-isroil urushi 1948-yili arablarning mag‘lubiyati bilan yakun topgani, monarxiya tuzumi obro‘siga putur yetkazib, muayyan ma’noda zaiflashtirdi.

Shu yilning dekabr oyida vaziyat yanada keskinlashib, podsho Farux hukumati bir qator zo‘ravonlik harakatlarga, jumladan, Qohira politsiyasi boshlig‘iga suiqasd qilinishiga javoban uyushmani ta’qiqlab, uning bir qator rahbarlarini (Hasan al-Bannodan tashqari) qamoqqa olishga majbur bo‘ldi. Ammo uyushmaning yosh a’zolaridan biri Misr Bosh vaziri Nurasho-poshoning o‘ldirilganligi munosabati bilan birodarlik a’zolari yashirin ish yuritish yoki mamlakatni tark etishga majbur bo‘ldilar. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, 1949-yil 12-fevralida Hasan al-Banna maxfiy politsiya tomonidan “tinchitilgan”.

Shunga qaramasdan Misrda siyosiy hayot yana ham keskinlashib, din va davlat muammosi dolzarb va muhim bo‘lib qolaverdi. Bu muammo o‘sha yillari asosan “an’anaviy populizm” va “dunyoviy plyuralizm” o‘rtasidagi kurash shaklida o‘z ifodasini topdi. Mamlakatda boshlangan iqtisodiy qiyinchilik, demografik o‘zgarish, Buyuk Britaniya bilan munosabat keskinlashuvi, Falastin, Sudan, arab davlatlari o‘rtasida yangi muammolarning vujudga kelishi hamda eski siyosiy guruhlar ta’sirining pasayishi dunyoviy qarashlar tizimi va ta’limotning qonuniyligiga putur yetkazayotgan edi. Davlat yangi radikal diniy-siyosiy harakatlar tomonidan nafaqat qarshi chiqish, balki 1940-yillarda “Musulmon birodarlar” faolligi tufayli fuqarolar urushining xavfi sezila boshladi. Hukmronlik qiluvchi dunyoviy siyosiy elita ikki o‘t orasida qolganligi bois dinning davlat ishlariga aralashuviga qat’iy qarshilik ko‘rsata olmas va “dunyoviy davlat” g‘oyasini himoya qilishga qurbi yetmas edi. Bu holat ilgari musulmon islohotchilarining tutgan yo‘liga o‘xshardiki, ular ham na diniy ta’limotni to‘lig‘icha isloh qilish va na uni biron-bir yangi g‘oya bilan almashtirishga urinmaganlar. Ular diniy ta’limot shu holida ham yangilanish harakatiga mos tushadi, degan nuqtayi nazarni mahkam tutgani uchun oqibatda mag‘lubiyatga uchradilar. Misrning bundan keyingi davridagi dunyoviy siyosatchilari xuddi shunday ahvolni boshdan kechirdilar. Kamchilik shundan iborat ediki, endigi siyosatchilar jamiyatning ehtiyoji va talabiga muvofiq keladigan dunyoviy siyosiy tartibning yangi tamoyilini ishlab chiqa olmadilar.

50-yillarning boshida hokimiyatni qo‘lga olgan “erkin zobit”lar ham din va davlat yoki din va siyosat muammosini to‘lig‘icha bartaraf etishni uddalay olmadilar. Aksincha, din va siyosatning yanada bir-biriga yaqinlashishiga moyillik bildirdilar. 1956-yili Konstitutitsiyasining preambulasida Iyul inqilobining dasturi aks etgan bo‘lib, imperializmning barcha jihatlariga barham berish, feodalizmni tuzum sifatida tugatish monopoliyalar va davlat tizimidagi kapitalistik ta’sir ustidan nazoratni yo‘q qilish, qudratli milliy armiyasini yaratish, ijtimoiy adolatni o‘rnatish, mustahkam demokratik jamiyat qurish va boshqa maqsadlar e’tirof etilgan (Elistratova, 1997, p. 352)

Shunga qaramasdan, 1956-yildan boshlab musulmon diniy sudlari davlat sud tizimiga kiritilib, musulmon va qibtiy diniy sudlarining vazifa doirasiga fuqarolik holatining hamma masalalari, ya’ni oila, nikoh va meros munosabatlarini hal qilish zimmasiga yuklatildi. Shu yilning may oyida favqulodda holat bekor qilinib, “Musulmon birodarlar” uyushmasi qaytadan tiklandi. Bunda 1952-yildagi Iyul inqilobini dastlabki davrida qo‘llab- quvvatlagan uyushma a’zolari G.A.Nosirning islom davlatini qurish va islomchilar bilan hokimiyatni bo‘lishib boshqarishni istamasligini ko‘rib, inqilob rahbarlaridan yuz o‘girdilar. Bu holat islomchilar bilan G.A.Nosir hukumati o‘rtasidagi nizoga sabab bo‘lib, 1954-yili prezident hayotiga suiqasd uyushtirilganda bu nizo yanayam ochiq namoyon bo‘ldi. Shu tariqa hokimiyat islomchilar tashkiloti bilan shiddatli kurashni boshlab yubordi.

Muhokama. “Musulmon birodarlar”ning islom davlati to‘g‘risidagi qarashlari Hasan al-Banna hamda Sayyid Qutbning ta’sirida shakllandi. Sayyid Qutb ham Dar al-ulum kollejini tamomlab, avval maktab o‘qituvchisi, keyin esa ta’lim vazirligida inspektor bo‘lib ishladi. 1948-yili u

“Islomdagi ijtimoiy adolat” asarini nashr ettirgandan keyin ikki yil AQSHda yashab, uning ta’lim tizimini o‘rgandi. Misrga qaytib, Sayyid Qutb “Musulmon birodarlar” ga a’zo bo‘lib, uning g‘oyaviy rahbariga aylandi. U din to‘g‘risidagi bir qator tadqiqotlar, 24 risola va juda ko‘p maqolalarning muallifidir. Uning diniy asarlari qatorida “Islom”, “Bu islom dini”, “Islom - kelajak dini”, “Yo‘l bosqichlari”, “Quron soyasida” va Qur’onga yozgan tafsirini keltirish mumkin (Prozorov, 1994, p. 89)

Dastlabki davrda G‘arb taraqqiyotiga qiziqqan Sayyid Qutb 40-yillarda “g‘arbiylashish”dan butunlay yuz o‘giradi. AQSH siyosati va bu mamlakatda yashagan vaqtda orttirgan shaxsiy tajribasi G‘arb tamadduni tanazzuli, Amerika va Yevropa davlatlarining arablarga qarshi olib borgan siyosati uning qarashlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Sayyid Qutbning o‘ziga xos keskin mulohazalari va maqolalari uni uyushmaning rahbarlik lavozimlaridan biriga ko‘tardi va hukumat diqqat-e’tiborini tortdi. Natijada Sayyid Qutb 15 yil ozodlikdan mahrum etildi. U qamoqxona sharoitida o‘z fikr-mulohazalarini qog‘ozga tushirishda davom etdi va biroz vaqtdan so‘ng Iroq prezidenti Abd as-Salom Orif iltimosi bilan ozodlikka chiqib, bir necha oydan keyin yana qamoqqa olindi. Hokimiyatga qarshi fitna uyushtirishda ayblangan Sayyid Qutb va uning ikki tarafdori qatl etildi. Hasan al-Banna singari Sayiid Qutb islomchilar tomonidan “islom uyg‘onishi uchun shahid ketgan” deb ulug‘lanadi. Uning asarlari hozirgi zamon Misr va musulmon olamining boshqa mamlakatlarida tarqalib, islomchilar dunyoqarashi shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi va zamonaviy islom “revayvalizmi”ning asosiy manbaiga aylandi.

Oldinroq qayd etilganidek, Sayyid Qutb nafaqat Hasan al-Banna ta’sirida bo‘libgina qolmay, balki fundamentalizmning pokistonlik mafkurachisi Mavlono Mavdudining (jihod, islomning inqilobiy xarakteri va boshqa g‘oyalar) g‘oyaviy jihatdan davomchisi bo‘lgan, degan qarashlar ham mavjud (Loboda, 2004, p. 8) Ammo Sayyid Qutb ancha keskin va radikal xulosalarga keldi. G‘arbiy siyosiy va iqtisodiy tizimga “islom alternativasi”ni yaratish imkoniyati, uning tasavvurida hamma musulmon uchun yagona bo‘lgan “islom imperativi”ga aylandi. Bu tushuncha zamirida har bir musulmon bunday tizim uchun o‘limga tayyor bo‘lishi kerak, degan g‘oya turadi. Natijada u “Musulmon birodarlar”dagi eng radikal ruhdagi o‘z zamondosh va tarafdorlariga murojaat qilgan va jangovor islomiy tashkilotlar, jumladan, misrlik “Taqfir va-l-Hijra” va “al-Jihod”larning shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatganligini tarixiy haqiqat sifatida inkor etib bo‘lmaydi.

O‘tgan asrda faoliyat yuritgan Islom tiklanishining ilk tarafdorlari va musulmon modernistlari Hasan al-Banna va Sayyid Qutb eng yuksak kamolot sifatida Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) va xulafoi roshidinlar davrida barpo etilgan “islom davlati”ni asosiy maqsad va namuna qilib olganlar. Bu mafkurachilarning fikricha, shundan keyin butun islom olami tanazzulga uchragan, tarix davomida bunday “ideal davlat” barpo etilgani yo‘q va natijada musulmon jamoasi tashqi tahdid va yevropalik kolonializm ta’sirida zaiflashib qoldi. Islom olamining diniy ta’limot va qarashlariga islomiy unsurlarning kirib kelishi natijasida ichki tahdid va tarqoqlik vujudga keldi. Bu esa, o‘z navbatida, zaiflashgan va inqirozga uchragan islom ummati g‘arbiy imperializm uchun “qulay o‘lja”, musulmon xalqlari esa siyosiy, harbiy, iqtisodiy va aqliy jihatdan G‘arbga tobe bo‘lib qolgan.

“Musulmon birodarlar” g‘oyaviy rahbarining fikriga qaraganda, so‘fiylik ta’limoti va qarashlariga aralashgan xurofot, botil qarashlar va bid’atlar natijasida haqiqiy hidoyat yo‘lidan uzoqlashgan. O‘rta asrlarda din qutqara olmagan diniy ulamolar hozirgi zamon olamining talablariga javob berishga ojizdirlar. Musulmon modernistlari ham “g‘arbiylashuv”ga qattiq yopishib olganlari uchun mag‘lubiyatga uchraydi: taraqqiyotning g‘arbiy modellariga «islom alternativasi”ni uyg‘unlashtirish maqsadida, o‘sha vaqtning o‘zida “G‘arbdan o‘rganishga” harakat

qilganlar, ya'ni g'arbiy tajribani o'zlashtirish zaruriyatiga mantiqiy asos izlaganlar. Bundan tashqari, ular biror ommaviy siyosiy tashkilotni barpo etmaganlar. Nihoyat, Hasan al-Banna va Sayyid Qutb zamonaviy musulmon mamlakatlaridagi dunyoviy elita va siyosiy rahbarlarni eng destruktiv elementi sifatida hisoblaganlar, chunki ular siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotchilikning g'arbiy tajribasiga murojaat qilganlar. "Musulmon birodarlar" uyushmasining a'zosi, Muhammad G'azzoliyning qayd etishicha, "Misrni islomdan ajratishga urinayotgan fraksiya, aslida Yevropaning benomus axloqi buzilgan o'yinchi qo'g'irchoqlar va qullar guruhidir" (Qutb, 1984, pp. 19-20)

Shu bilan birga, "Musulmon birodarlar" G'arbning o'zi tobora tanazzulga uchrayotganini jamiyatning yuqori tabaqalari ommaning ustidan nazorat o'rnatish maqsadida, parlament boshqaruvi va demokratiyani o'z manfaatlariga xizmat qiluvchi qurolga aylantirganlarini alohida qayd etganlar. Siyosiy hokimiyatning markazlashuvi "tanlanganlar" qo'lida boylik va zahiralarning jamg'arilishi bilan davom etgan, g'arbiy demokratiya ommani iqtisodiy ekspluatatsiyani nafaqat tugatganicha yo'q, balki korrupsiya va ijtimoiy adolatsizlik yanada avj olishiga zamin yaratgan, desak xato bo'lmaydi. Shu jihatdan baho beradigan bo'lsak, g'arbiy sekulyarizm va materializm g'arbiy dunyosidagi dinning mavqeini va ahloqiy negizini ich-ichidan yemirilishini keltirib chiqardi. Nihoyat, G'arb Falastinning Isroil harbiy kuchlari tomonidan egallab olinishini qo'llab-quvvatlab, "arablarga xiyonat qildi".

Shuningdek, "Musulmon birodarlar" keyingi davr taraqqiyotidan xulosa chiqargan holda g'arbiy kapitalizm ham, "ateistik kommunizm" ham musulmon dunyosiga yordam berolmaydi, deb hisoblaganlar. "Islomga qaytish» ana shu "bo'shliq"ni to'ldirishiga qattiq ishonch bildiradilar. "Islom alternativasi" – bu "Allohdan kelayotgan ilohiy ko'rinish"; bu ko'rinishni yuqoridan qabul qilgan inson "uni o'zlashtirishi va barcha jihatlarini e'tiborga olgan holda tatbiq qilishi lozim". Hasan al-Banna va Sayyid Qutb fikricha, islom modelining hayotga tatbiq qilinishi hamda Qur'on va sunnaga qaytish "islomiy yuksalish"ga asos bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi zamon musulmonlarining birdan-bir vazifasi esa, "taraqqiyotning to'g'ri yo'liga qaytishi"ni to'g'ri anglab, "islom yerlari" va "islom boshqaruvini" tiklash uchun islom dushmanlariga qarshi "muqaddas jihod" olib borishdan iboratdir. Ularning e'tirofiga ko'ra, islomning bunday uyg'onishi butun olamda "islomning o'tmishdagi ulug'vorligini" tiklashni keltirib chiqaradi. Shu bois ular boshqaruvning har qanday boshqa shaklini noqonuniy deb hisoblaganlar. Shunday ekan, musulmonlarga tegishli bo'lmagan yerlar ular uchun "muqaddas urushning maqsadi" bo'lsa, islom davlatining qaror topishini istamagan musulmonlarni "kofir" deb hisoblaganlar.

G'oyaviy nuqtayi nazardan qaraganda "Musulmon birodarlar" islomda din va jamiyat bir-biriga bog'liq ekanini alohida ta'kidlaganlar. Ko'rib o'tganimizdek, bunday e'tiqod Allohning tavhidiga asoslangan: "Bu din ziyoratgohlarda odamlar Allohdan boshqasiga duo-iltijo qilishlari uchun kelgani yo'q. Balki hayotni boshqarish va unga rahbarlik qilishni qo'lga olgan holda namoz o'qish yoki rahbarlik qilish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki qonun-qoidalarni amalda qaror toptirish uchun kelgan" (Qutb, 2000, p. 366) XX asrda katta shov-shuv uyg'otgan bu zotlar g'arbiylashtirish va sekulyarizatsiya o'rniga islom tamoyillari va qadriyatlarini yetakchi o'ringa qo'yib, "yangilangan" musulmon davlatini yaratish g'oyasini taklif qilganlar. Sayyid Qutbning fikriga ko'ra, o'tmishda musulmon davlatini yaratishni taklif qilganlar. O'tmishda musulmon mutafakkir va yozuvchilari, ongli kishilar va hukumat Yevropa madaniyati (sivilizatsiya) tamoyillarini ko'klarga ko'tarib, maqtaganlar va g'arb turmush tarzi, uslub va odatlarni o'zlashtirishda boshqalarga ibrat bo'lganlar. Bugun zamon o'zgardi-da "islomning tamoyillari, ta'limoti va yo'llariga qaytishga da'vat etayotgan ovozlar yangramoqda", "tamomila

islomlashtirishga muqaddima" (Qutb, 2000, p. 324) sifatida, zamonaviy hayotni bu tamoyillar bilan yaqinlashtirish lozimligini yoqlab chiqdilar.

Shu jihatdan qarasak, "Musulmon birodarlar"ning bunday nutqlari arablar diqqat-e'tiborini o'ziga tortmasdan qolmadi. Islomchilar nafaqat odamlarning diniy e'tiqodiga qarata, balki liberal millatchilikka ishonchlari ancha zaiflashib qolgan misrlik elitaning his-tuyg'ularini ham qo'zg'ashga urindi. Arablarning Falastindagi mag'lubiyati, AQSHning yordamida Isroil davlatining barpo etilishi, Misr hukumatining britaniyaliklar tobeligidan qiyinchilik bilan qutulishi, Ikkinchi jahon urushidan keyin Misrdagi ishsizlik va muhtojlik, siyosiy korrupsiyaning tarqalishi g'arbiylashtirish tarafdorlari bo'lgan mamlakatning aksariyat siyosatchi va arboblarini o'z nuqtayi nazarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. 1940-yillarga kelib Misrning madaniy hayotida islomiy ruh va ramzlar ustunlik qila boshladi. Ko'pgina yozuvchilar yaratgan asarlarida payg'ambarimiz Muhammad s.a.v., musulmon qahramonlar obrazlari va ilk musulmonlarning g'alabasini ulug'lash mavzusiga murojaat qildilar. Bunday sharoitda "Musulmon birodarlar" misrliklarga siyosiy jihatdan yaxshi tashkil etilgan oppozitsion harakatni taqdim etdilar.

Shu barobarida an'anaviy islom tushunchalari jaholatni (johiliya) "musulmon bo'lmaganlar" yoki g'arbiylashtirish tarafdori bo'lgan musulmonlarga nisbatan qo'llagan bo'lishsa, islomni g'arbiy kapitalizm va kommunizmga alternativa sifatida turgan ta'limot va g'oya ma'nosida tushuntiradilar.

"Musulmon birodarlari" ozod qilish "ilohiyotini" ilgari surgan islom inqilobiga da'vat etganlar. Bu toifaning e'tiqod qilishicha, turmushning barcha sohalarida islomni qaror toptirish uchun musulmonlar nafaqat "g'arbiy xristian imperializmi", balki musulmon "g'arbliklar"ga qarshi muqaddas urushni boshlashlari lozim, chunki ular ham islomchilarning nazarida jabrlanuvchilar, zolimlar va kofirlardan iborat bo'lgan. Shunday ekan, "Mo'min-musulmonlar - islomning haqiqiy jangchilari" islom tashkiloti atrofida islom uchun kurashga birlashishlari kerak. "Musulmon-birodarlar" zamonaviy musulmon jamoatlarini "noislomiy" yoki "islomga qarshi" xarakterga ega ekanligini nazarda tutib, o'zlarini haqiqiy va xolis musulmonlarga yetakchi bo'lishlari zarurligiga qat'iy ishonganlar. Oradan qancha vaqt o'tib, ilk islom davrida Makkadan Madinaga hijrat qilgan musulmonlar bilan o'zlarini qiyoslab, ta'qibga uchragan taqdirda ular ham zamonaviy "noislomiy" jamiyatda yashayotganlari bilan aloqani uzishga majbur deb hisoblaganlar. Shunisi qiziqki, kurashning bunday "o'tish davrida" islomchilar o'zlarining alohida jamoa yoki oilalarini barpo etib, unga a'zo bo'lib kirganlar ommaviy islomlashtirish jarayonining o'ziga xos "xujayra", ya'ni boshlang'ich tashkilotini tuzib, ta'lim-tarbiyaga kirishishlari va haqiqiy islomiy dunyoqarashni shakllantirishlari lozim.

"Musulmon birodarlar" shariatni tushinishda ham bir qancha xatolikka yo'l qo'yganlarini qayd etib o'tish darkor. Ularning fikricha, musulmonlar asosan to'rtta sunniy mazhablarning qoidalariga rioya qilib yashashlari majburiy emas, chunki bu mazhablar ma'lum bir sharoit bilan cheklangan bo'lib, bu masala qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin. Sayyid Qutb shariatning o'zgarish tamoyillari bilan fiqhiy kitoblarda mavjud bo'lgan tartibga solish tizim o'rtasidagi chegarani farqlash kerakligini ta'kidlagan holda, bunday tartib- qoidalari o'ziga xos sharoit va vaziyat taqozosiga ko'ra ayrim fiqhshunoslar tomonidan tuzilganligini ma'lum qiladi. Uning fikriga ko'ra, haqiqiy yangilanish an'anaga ko'r-ko'rona rioya qilish emas, balki jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq shariat qoidalarining yangi talqinidir. Shunday qilib, islom fiqhi o'z mohiyatiga ko'ra, abadiy va universal bo'la turib, bundan keyingi rivojlanish uchun moyil va ochiq qolmoqda.

Xulosa. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, “Musulmon birodarlar” harakati aslida islomning “o‘zgarmas” tamoyillariga qaytishga da’vat etishi ma’nosida fundamentalistlar deb hisoblanishi mumkin. Lekin ularning davlat va huquq konsepsiyasida muayyan tarixiy sharoitlarga muvofiq hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa muammolarni hal qilishga qaratilgan maxsus tizimlar, institutlar va qonunlarni amalga tatbiq etish zaruriyatiga katta e’tibor beriladi. Mazkur tashkilot uchun “islom tizimi” deya tan olingan musulmonlarning dastlabki jamoasi modelini “takrorlanish” bilan cheklanib qolmasdan, balki boshqa juda ko‘p modellarni yaratishga imkon beradiki, bu modellar jamiyatning tabiiy rivoji va hozirgi zamonning yangi ehtiyojlariga javob beradi, degan fikrni yoqlaydilar. Shunday qilib, “Musulmon birodarlar”ning g‘oyaviy rahbarlari islom davlatining aniq va mufassal shakliga kam e’tibor qaratganlar, to‘g‘rirog‘i, ular bunday davlatning asosiy tamoyillarini belgilab berganlar, xolos. Islom davlati to‘g‘risidagi bahs-munozaralar asosan nazariy xarakterga ega bo‘lib, ularda amaliy xulosalar emas, balki axloqiy idealizm asosiy o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yovqochev, Sh. (2007). *State and religious institutions in the Arab Republic of Egypt*. Misr Arab Respublikasida davlat va diniy institutlar. – Tashkent: Akademiya. – 17 p. (in Uzbek)
2. Khusayni, I.M. (1952). *Al-Ikhwan al-Muslimun: the largest modern Islamic movement*. Al-ikhwan al-muslimun kubra haraka al-islamiyya al-haditha. – Beirut. (in Arabic). Cited in: Miloslavskaya, T.R. (1982). *The activity of the “Muslim Brotherhood” in the countries of the East*. Deyatel’nost’ “Brat’yev-musul’man” v stranakh Vostoka. Islam v stranakh Blizhnego i Srednego Vostoka. – Moscow: Nauka. – 8 p. (in Russian)
3. Sullivan, D.J., & Abed-Kotob, S. (1999). *Islam in Contemporary Egypt: Civil Society vs the State*. – London & Boulder: Lynne Rienner Publishers. – 24 p. (in English)
4. Esposito, J.L. (1984). *Islam and Politics*. – Third edition. – Syracuse: Syracuse University Press. – 133 p. (in English)
5. Elistratova, T.A. (1997). *The reasons for the victory of the radical movement in the Egyptian revolution of July 23, 1952*. Prichina pobedy radikal’nogo techeniya v egipetskoy revolyutsii 23 iyulya 1952 g. // Arabskie strany Zapadnoy Azii i Severnoy Afriki (noveyshaya istoriya, ekonomika i politika). (Ed. B.G. Seyranyan, A.O. Filonik). – Moscow: Nauka. – 352 p. (in Russian)
6. *Reader on Islam*. (1994). Khrestomatiya po islamu. (Compiled and edited by S.M. Prozorov). – Moscow: Nauka, IFVL. – 89 p. (in Russian)
7. Loboda, L. (2004). *Thought of Sayyid Qutb: Radical Islam’s Philosophical Foundation*. – Ashbrook Statesmanship Thesis. – Ashbrook Center for Public Affairs, Ashland University. – 8 p. (in English)
8. Qutb, S. (1984). *Islam: The Religion of the Future*. – Kuwait. – 19–20 p. (in English)
9. Qutb, S. (2000). *In the Shade of the Qur’an*. (Translated and edited by Adil Salahi & Ashur Shamis). – United Kingdom: The Islamic Foundation. – 366 p. (in English)
10. Qutb, S. (2000). *Social Justice in Islam*. (Translated by John B. Hardie & Hamid Algar). – New York: Islamic Publications International. – 324 p. (in English)

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy jurnallari tomonidan ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan talablar

Nashrga original, ilgari nashr qilinmagan maqolalar va jurnal mavzusiga mos keladigan materiallar qabul qilinadi. Maqolada sharqshunoslik bilan bog‘liq adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, tarix, iqtisodiyot kabi fan sohalarining dolzarb masalalari va ilmiy yangiliklari yoritilishi lozim. Original maqolaning hajmi (annotatsiya, kalit so‘z va so‘z birikmalari hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bundan mustasno) 1 interval oraliqda 10–12 bet, matni Microsoft Word, A4 formatida, Times New Roman shriftining 14 kattaligida, qog‘ozga chiqarilgan va elektron variantlarda kamida 2 ta taqriz (ichki va tashqi) bilan nashriyotga topshiriladi. Matnning ikki yonidan qoldiriladigan o‘lcham – 2 sm, xat boshi (abzas) – 1,25 sm.

Maqolaning tuzilishi quyidagicha tavsiya etiladi:

Maqola va boshqa materiallar sarlavhasi qisqa, mazmunga muvofiq va 12 so‘zdan oshmasligi kerak.

Muallifning to‘liq ismi quyidagi tartibda qayd etilishi kerak: ismi, otasining ismi, familiyasi, ikki yoki undan ortiq mualliflar bo‘lsa, vergul bilan ajratiladi.

Muallif(lar)ning ish joyi quyidagi tartibda taqdim etilishi kerak: bo‘lim (kafedra), muassasa (institut), shahar va mamlakat.

Ketidan muallifning telefon raqami, faks raqami, elektron pochta manzili keltirilgan bo‘lishi kerak.

Maqolaning sarlavhasi, muallif(lar) haqidagi ma’lumotlar lotin alifbosi (transliterasiya)da beriladi.

Annotatsiya va kalit so‘zlar:

Annotatsiya – ilmiy xarakterdagi maqola hajmidan tashqari berilgan ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi qisqacha bayon.

Annotatsiyada maqolaning asosiy jihatlarini bayon etishda quyidagilarga e’tibor beriladi:

– tadqiqotning asosiy ma’lumotlarini qamrab olishi va ishda mavjud bo‘lmagan faktlar bo‘lmasligi lozim;

– maqolaning tuzilishi Annotatsiyada takrorlanadi: kirish, maqsad va vazifa, usullar, natija/muhokama, xulosa/mulohaza;

– natijalar aniq va lo‘nda bo‘lib, uzviylikda beriladi;

– Annotatsiyada maqola sarlavhasi takrorlanmaydi, keraksiz izohlar, “kirish jumlalari” (muallif maqolada shuni nazarda tutadiki...) bo‘lmasligi lozim;

– Annotatsiyada iqtibos keltirilmaydi;

– Annotatsiya matnining hajmi 250–300 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.

Annotatsiya ostida “Kalit so‘z va so‘z birikmalari” (8–10 ta) yozuvi joylashtiriladi. **Kalit so‘zlar** maqolaning asosiy mazmunini ifodalab, asosan, sohaga doir muhim tushunchalardan tashkil topgan bo‘lishi lozim.

Kirish: Maqolada tadqiqotning maqsadi va maqola yozilish vaqtida ilmiy muammoning holati aks etishi kerak.

Maqsad va vazifa:

Maqolaning mazmun-mohiyati maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tizimli ravishda ochib beriladi.

Usullar: Tadqiqot usullari batafsil tavsiflangan bo‘lishi lozim.

Natijalar va mulohaza:

Natijalar va mulohazalar kengaytirilgan shaklda taqdim etilishi kerak (jadvallar va tasvirlar yordamida), shuningdek, ilgari nashr etilgan natijalarning qiyosiy tahlili va talqini beriladi.

Xulosa: Kirish qismida qo‘yilgan savollarga javoblar, xulosalar aniq ko‘rsatilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi:

Adabiyotlar ro‘yxati lotin alifbosiga transliteratsiya qilinadi. Ro‘yxatga kiritilgan adabiyotlar so‘nggi 25 yil ichida nashr qilingan bo‘lib, ularning soni 30 tadan oshmasligi kerak.

Sahifa tagida beriladigan snoskalarda jurnal maqolalarining berilishi:

Zagurenko A.G., Korotovskikh V.A., Kolesnikov A.A., Timonov A.V., Kardymon D.V. Tekhniko-ekonomicheskaya optimizatsiya dizaina gidrorazryva plasta [Techno-economic optimization of the design of hydraulic fracturing]. Neftyanoe khozyaistvo – Oil Industry, 2008, no.11, pp. 54-57.

Elektron jurnaldagi maqolalarning berilishi:

Kontorovich A.E., Korzhubaev A.G., Eder L.V. [Forecast of global energy supply: Techniques, quantitative assessments, and practical conclusions]. Mineral'nye resursy Rossii. Ekonomika i upravlenie, 2006, no. 5. (In Russ.) Available at: http://www.vipstd.ru/gim/content/ view/90/278/). (accessed 22.05.2012)

Digital Identifier of an Object (DOI) tizimidagi jurnallardagi maqolalarning berilishi:

Zhang Z., Zhu D. Experimental research on the localized electrochemical micro-machining. Russian Journal of Electrochemistry, 2008, vol. 44, no. 8, pp. 926-930. doi: 10.1134/ S1023193508080077

Davriy ilmiy to'plamlarning berilishi:

Astakhov M.V., Tagantsev T.V. [Experimental study of the strength of joints "steelcomposite"]. Trudy MGTU «Matematicheskoe modelirovanie slozhnykhtekhnicheskikh sistem»[Proc. of the Bauman MSTU "Mathematical Modeling of Complex Technical Systems"], 2006, no. 593, pp. 125-130. (In Russian)

Konferensiya materiallarining berilishi:

Usmanov T.S., Gusmanov A.A., Mullagalin I.Z., Muhametshina R.Ju., Chervyakova A.N., Sveshnikov A.V.[Features of the design of field development with the use of hydraulic fracturing]. Tru158 dy 6 Mezhdunarodnogo Simpoziuma "Novye resursosberegayushchie tekhnologii nedropol'zovaniya i povysheniya neftegazootdachi" [Proc. 6th Int. Symp. "New energy saving subsoil technologies and the increasing of the oil and gas impact"]. Moscow, 2007, pp. 267-272. (In Russian).

Kitoblar (monografiya, to'plam)larning berilishi:

Kashnikov Y.A., Ashikhmin S.G. Mekhanika Gornykh Porod Pri Razrabotke Mestorozhdeniy Uglevodorodnogo Syr'ya (Rock Mechanics In The Development Of Hydrocarbon Deposits) Moscow, OOO "Nedra-Biznestsentr" Publ., 2007. 486 p.

Tarjima kitoblarning berilishi:

Timoshenko S.P., Young D.H., Weaver W. Vibration problems in engineering. 4th ed. New York, Wiley, 1974. 521 p. (Russ. ed.: Timoshenko S.P., Iang D.Kh., Uiver U. Kolebaniia v inzhenernom dele. Moscow, Mashinostroenie Publ., 1985. 472 p.).

Internet-resurslarning berilishi:

Kondrat'ev V.B. Global'naya farmatsevticheskaya promyshlennost'[The global pharmaceutical industry]. Available at: http://perspektivy.info/rus/ekob/globalnaja_farmacevticheskaja_promyshlen-nost_2011-07-18.html. (accessed 23.06.2013)

Dissertatsiya va avtoreferatning berilishi:

Semenov V.I. Matematicheskoe modelirovanie plazmy v sisteme kompaktnyi tor. Diss. dokt. fiz.-mat. Nauk [Mathematical modeling of the plasma in the compact torus. Dr. phys. and math. sci. diss.]. Moscow, 2003. 272 p.

Patentning berilishi:

Palkin M.V. e.a. Sposob orientirovaniia po krenu letatel'nogo apparatas opticheskoi golovkoi samonavedeniia [The way to orient on the role of aircraft with optical homing head]. PatentRF, no. 2280590, 2006.

Jadvallar

Har bir jadval 2 intervalda alohida sahifaga joylashtiriladi. Jadvallar fotosurat sifatida topshirilmaydi. Jadvallar raqamlanadi va maxsus nomlanadi. Jadvaldagi har bir ustun qisqa nomga ega bo'lishi kerak (qisqartmalardan foydalanish mumkin). Har bir jadval matnda izohlanadi.

Qisqartmalar va belgilar

Maqola matnida faqat standart qisqartmalardan foydalaniladi. Maqolaning sarlavhasida qisqartma berilmaydi. Annotatsiyada umumiste'molda bo'lmagan qisqartma va shartli belgilar kamdan-kam hollarda keltiriladi, ularning izohi annotatsiyaning dastlabki qo'llanilgan o'rnida, albatta, berilishi joiz.

Jurnal original-maket asosida bosildi.
Sharq mash‘ali, 2026 yil 2-son.
e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz
Bosishga ruxsat etildi 30.06.2026.
Bichimi 84x108 1/16 Shartli b.t. 10
50 nusxada bosildi. Buyurtma №
Bahosi kelishilgan narxda.
Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20.
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025-yil
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.